

**Sh.M.Turdimetov**

**ALMASHLAB EKISHDA  
O'G'ITLASH TIZIMI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TUPROQSHUNOSLIK  
kafedrasi**

**Sh.M.Turdimetov**

**ALMASHLAB EKISHDA  
O'G'ITALASH TIZIMI**

**Guliston-2016**

Turdimetov Sh.M. «Almashlab ekishda o'g'itlash tizimi» fanidan.-.Uslubiy qo'llanma. Guliston. 2016-180 bet.

Uslubiy qo'llanma 5141000–Tuproqshunoslik ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Majmuada qishloq xo'jaligini uyg'un rivojlantirishda o'g'it qo'llash tizimining o'rni, ekinlar hosildorligi va o'g'it me'yorlari o'rtasidagi bog'liqlik, ekinlarning o'g'itga talabchanligini aniqlashning fiziologik asoslari. Turli omillarning mineral va mahalliy o'g'itlar samaradorligiga ta'siri, o'g'it qo'llash usullari, me'yorini belgilash. Almashlab ekishda o'g'itlash tizimini tuzish. Qishloq xo'jaligi ekinlarni o'g'itlashning o'ziga xos tomonlari, o'g'it qo'llash hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlik bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu majmuada amaliy mashg'ulotlar, talabalarning mustaqil ish topshirqlari, nazorat savollari, ilmiy adabiyotlar va internet saytlari haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan.

Uslubiy qo'llanma Guliston davlat universiteti Ilmiy-uslubiy Kengashi tomonidan ( “\_\_\_\_\_” 2015 yil, -bayonnomma) nashrga tavsiya etilgan

Taqrizchi: ToshDAU Tuproqshunoslik va agrokimyo kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi X.Q.Namozov

## **KIRISH**

O‘g‘itlash tizimi almashlab ekishning maksimal samaradorligini, barcha ekinlardan yuqori va barqaror hosil olishni, tuproq unumdorligidan ratsional foydalanishni va o‘g‘it qo‘llashda barcha sharoitlarni ham agrokimyoviy, ham iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lishni ta’minlashga doir masalalarni hal etishi kerak.

Xo‘jalikda almashlab ekish sharoitida o‘g‘itlash tizimi uzoq muddatga mo‘ljallanganligi va almashlab ekishning hamma maydonlarida faqat tuproq unumdorligining umumiyligini darajasi hisobga olinishi sababli har yili o‘g‘itlardan foydalanishning yillik rejalarini tuziladi. Ularda o‘g‘it me’yori shakli, o‘g‘itlash muddati va usullari ko‘rsatiladi. Ekinlarning navbatlanishi, yillar bo‘yicha hosildorligi va ob-havo sharoitlarining o‘zgarishi ehtimoli bo‘lgan hollarda tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi. Yillik reja mahalliy va mineral o‘g‘itlarni qo‘llanish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlar uchun asosiy xujjat bo‘lib xizmat qiladi.O‘g‘it qo‘llash tizimi xo‘jalikda dehqonchilik tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘g‘itlash tizimining asosiy maqsadi almashlab ekish sharoitida o‘g‘itlardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan tashkiliy xo‘jalik, agrokimyoviy va agrotexnikaviy tadbirlarni hisobga olgan holda qishloq xo‘jalik ekinlaridan mo‘l hosil olish, eng maqbul o‘g‘it turi, me’yori qo‘llash muddatlarini belgilashdir.

## **Muallif to‘g‘risida ma’lumot**

**Turdimetov Shaxobiddin Muhitdinovich**

**U 2003 yildan buyon:** Guliston davlat universiteti  
“Tuproqshunoslik» kafedrasi dotsenti

**Tug‘ilgan yili:** **Tug‘ilgan joyi:**  
22.09.1966 yil Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumani

**Millati:** **Partiyaviylici:**  
o‘zbek yo‘q

**Ma’lumoti:** **Tamomlagan:**  
oliy 1992 yil, Toshkent davlat Agrar universiteti  
(kunduzgi)

**Ma’lumoti bo‘yicha mutaxassisligi:** agronomiya

**Ilmiy darajasi:** **Ilmiy unvoni:**  
biologiya fanlari nomzodi dotsent

**Qaysi chet tillarini biladi:**  
rus (yaxshi) va ingliz (lug‘at yordamida) tillari

## **Maslahat va tasiyalar**

O‘g‘itlar qishloq xo‘jalik ekinlari hosilini oshiradi va maxsulot sifatini yaxshilaydi. Lekin ayrim xollarda tuproqka kiritiladigan o‘g‘itlar maxsulot sifatiga salbiy ta’sir kursatishi mumkin. Mazkur salbiy jarayon mineral va maxalliy o‘g‘itlar xaddan ziyod ishlatilganda, saprof el maishiy chikindilarning kimyoviy tarkibini urganmasdan foydalanganda va tarkibida og‘ir metallar mavjud bo‘lgan o‘g‘itlar muntazam ravishda tuproqka kiritilganda nomoyon bo‘ladi.

Zamonaviy agrokimyo oldida turgan asosiy muammolaridan biri sekin ta’sir etuvchi azotli o‘g‘itlardan foydalanishdir. Lekin bu masalada mutaxasislar yakdil fikrga kelmaganlar. Masalan, inglizlar bunday o‘g‘itlar ishlatilganda, tuproqning azot rejimi boshqarish mushqo‘llashadi, shu bois ingibitorli o‘g‘itlar istikbolsiz amalga oshirilmoqda. Sekin ta’sir etishni ta’minalash uchun o‘g‘itlar kapsula kilinadi, kapron, polietilen, parafin yoki elementar oltingugurt bilan koplanadi.

Mineral o‘g‘itlar kimyoviy tarkibini yaxshilash ham ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘g‘it bilan tuproqqa tushadigan fтор chorva mollari maxsuldarligini pasaytiradi, rivojlanishini sekinlashtiradi, nimjon qilib qo‘yadi. Insonlar salomatligiga ham salbiy ta’sir kursatadi.

## Me'yoriy hujjatlar

### MAHALLIY O'G'IT

Bu yilgi qish yog'ingarchiligi nisbatan kam, quruq va qirovli sovuqning uzoq davom etayotganligi g'alla maysalarini parvarishlashda qator noqulayliklarni yuzaga keltirmoqda. Soha mutaxassislari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda ekinlarning holati o'r ganilganda, ularning rivoji o'tgan yildagiga nisbatan 10—15 kun orqada qolayotgani, xususan, mavjud maydonlarning 10—15 foizi nam etishmasligi tufayli rivoji sust ekanligi aniqlandi.

G'allakorlarimiz mutaxassislar tavsiyasi hamda ilg'orlar tajribasiga tayangan holda omilkorlik bilan ish yuritsalar, bunday murakkab iqlim sharoitida ham mo'l hosil olishga muvaffaq bo'ladilar, albatta. Ko'p yillik tajribadan ma'lumki, hozirgidek noqulay ob-havo sharoitida ekinlarni mahalliy o'g'it bilan oziqlantirish yaxshi samara beradi. Chunki dalaga ko'proq mahalliy o'g'it chiqarilsa, u tuproqning tabiiy namligini saqlab, ekining suvgaga bo'lgan talabini kamaytiradi.

Bu jarayonda nafaqat chorva mollarining nurisi, balki daraxt barglari, ekin qoldiqlari, eski devorlar kesagi, zovur va ariqlar loyqasidan ham foydalanish mumkin. Shuningdek, boyitilgan ko'mir kukuni, fosforit va noan'anaviy agrorudalardan kompostlar tayyorlab, mahalliy o'g'itlar zaxirasini yaratish maqsadga muvofiq.

Ekinga mahalliy o'g'itlar qo'llanilganda, hosil bilan olib chiqib ketilgan oziq moddalarning bir qismi tuproqqa qaytadi. Dukkakli va dondukkakli ekinlarning doni va poyasi bilan oziqlantirilgan chorva mollarining go'ngi azotga boy bo'ladi. Mahalliy o'g'itlar tuproqning oziq rejimiga ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mikroorganizmlar azotni o'zlashtirib, tanasigato'playdi.

Mahalliy o'g'itlar tuproqdagi mikroorganizmlar faoliyatini jadallashtirib, biologik faol moddalarning turi va miqdorini ko'paytiradi. Mahalliy o'g'itlar ayniqsa, unum dorligi past bo'lgan tuproqlarga kiritilganda yaxshi samara beradi. Tuproqqa go'ng muntazam kiritilsa, gumus miqdori ko'payadi, singdirish sig'imi va buferligi ortadi. Shu bilan

bir qatorda, tuproqning fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda suv va havo rejimi yaxshilanadi.

Mahalliy o‘g‘itlar ta’sirida og‘ir tuproqlarning mexanikaviy tarkibi engillashadi, engil tuproqlarning nam sig‘imi va suv o‘tkazuvchanligi ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Ta’kidlash joizki, go‘ngning bir tonnasida 20 kg azot, 10 kg fosfor, 24 kg kaliy, 28 kg kaltsiy, 6 kg magniy, 4 kg oltingugurt va boshqa mikroelementlar mavjud. Tarkibida o‘simliklarning rivojlanishi uchun zarur barcha elementlarni tutgani sababli go‘ng to‘liq o‘g‘it deb yuritiladi.

Dala sharoitida go‘ngni zichlab, ustini somon bilan yopgan holda saqlash tavsiya etiladi. Agar go‘ng g‘ovak holda, usti ko‘milmasdan saqlansa, aerob sharoit yuzaga keladi. Aerob sharoitda chirishi natijasida yuqori harorat yuzaga keladi va ko‘p miqdordagi azot va organik moddalar yo‘qoladi. Go‘ngga fosforli mineral o‘g‘itlarni aralashtirgan holda saqlash samarali hisoblanadi.

Parranda go‘ngida ham o‘simliklarning me’yorida o‘sib rivojlanishi uchun zarur barcha oziq moddalar mavjud. Parranda go‘ngi tarkibidagi oziq moddalar o‘simlik oson o‘zlashtiradigan shakldadir. O‘g‘it uyum holida saqlansa, tez qiziydi va ammiak behuda isrof bo‘ladi. Parranda go‘ngi olti oy davomida saqlanganda tarkibidagi 50 foizga yaqin azot yo‘qoladi. Ayniqsa, qishda go‘ngning goh muzlab, goh erishi tufayli ko‘p miqdorda azot yo‘qoladi. Azot isrof bo‘lishining oldini olish uchun parranda go‘ngiga massasining 7—10 foizi miqdorida superfosfat kukuni qo‘shib qo‘yish talab etiladi.

Parranda go‘ngi boshoqli don ekinlarini ekishdan oldin hamda sharbat usulida berilganda foydasi yuqori bo‘ladi. Boshoqli don ekinlarini parvarishlashda sug‘orishni sharbat usulida tashkil etib, fekal aralashtirilib berilsa samarasini yanada ortadi.

Mahalliy o‘g‘itlar tarkibidagi oziq moddalar isrof bo‘lishining oldini olish va fosforli o‘g‘itlar tarkibidagi oziq moddalarning o‘simliklar tomonidan oson o‘zlashtiriladigan shaklga o‘tkazish uchun turli kompostlar tayyorlanadi.

Go‘ng-fosforli kompostni bevosita ekin maydonlariga yaqin joylarda tayyorlash zarur. Buning uchun 50—60 sm chuqurlikda o‘ra kovlanadi. O‘raga 30—40 sm qalinlikda go‘ng tashlanadi (go‘ng quruq holatda bo‘lsa, ma’lum miqdorda suv sepiladi) va ustiga 200—300 kg superfosfat sochiladi. Superfosfatning yirik kesakchalari maydalanishi lozim. So‘ngra 15—20 sm qalinlikda tuproq bilan ko‘miladi. Agar kompostni ko‘mishda eski devor qoldiqlari yoki uzoq muddat quyosh ta’sirida qizib yotgan zovur tuproqlari ishlatsa, kompostning sifati yanada ortadi. Tuproq ustidan bir qatlama go‘ng shaltog‘i quyiladi. Shu taxlit uyum 2—2,5 metrga etkaziladi

va usti 10—15 sm qalinlikda somon va yupqa (10 sm chaması) tuproq bilan qoplanadi.

Kompost tayyorlash jarayonida uyumdagı jinslarni aralashtirishga alohida e'tibor berish kerak. Aralashtirilmagan kompost yaxshi chirimaydi. Aralashtirish chizel yoki yuklash mexanizmining cho'michi yordamida bajarilishi mumkin. Aralashma 100—120 kundan keyin kurak yordamida yaxshilab aralashtiriladi.

Yetilgan kompost sochiluvchan, qoramtil-jigarrang tusda bo'lishi zarur. 1 hektar maydonga 10—15 tonna kompost solinsa, yaxshi samara beradi.

Shuni alohida qayd etish joizki, g'alladan sara hosil etishtirib, o'z oilasining ham, xalqimizning ham rizqi mo'l bo'lishini ta'minlashga ahd qilgan fermerlarimiz ayni kunlarda g'alla maydonlarini monitoring qilib, ekinning holatini aniqlab olishi zarur. Shunga ko'ra, kechikib ekilgan, rivojdan ortda qolgan siyrak maydonlarga jamg'arilgan mahalliy o'g'itning 40—50 foizini sepgan ma'qul. Bu qishning qirovli kunlarida nihollarga bamisol "ko'rpa" bo'lib, ularni sovuqdan asraydi, tuplash, o'sish va rivojlanish jarayonini tezlashtiradi.

## **Umumiy va o‘quv ishlari turlari bo‘yicha hajmi**

“Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimi” fani bo‘yicha ma’ruza va amaliy hamda seminar mashg‘ulotlari rejalashtirilgan bo‘lib, ular quyidagi yuklama tavsiya etiladi:

Fan uchun o‘quv rejada jami 126 soat ajratilgan bo‘lib, shundan 16 soati ma’ruza, 24 soati amaliyot, 20 soati laborotoriya va 66 soatini mustaqil ta’lim tashkil qiladi.

Nº	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan ball	Izoh
Joriy nazorat			
1	Auditoriya soati	21	
2	Mustaqil ta’lim	19	
	Jami	40	
Oraliq nazorat			
1	Oraliq nazorat	16	
2	Mustaqil ta’lim	14	
	Jami	30	

Nº	Nazorat turi	Soni	Har bir so‘rovga	Jami
Joriy nazorat				
I	1.1.Amaliy mashg‘ulotlari	7	3	21
	1.2.TMI. Ma’ruza mavzularini mustaqil o‘qib kelib topshirish	8	2,5 (1,5)	19
	Jami			40
II	2.1.Oraliq nazorat	2	8	16
	2.1.2. Bolimlar bo‘yicha mustaqil ish mavzularini topshirish	2	7	14
	Jami			30
III	Yakuniy nazorat			
	3.1. Test	1	30	30
	<b>Jami</b>			<b>100</b>

## **1.O‘quv dasturi. Kirish**

Ekinlar hosildorligi tuproqqa colinadigan o‘g‘itlarning yalpi miqdori bilan emas, balki ulardan oqilona foydalanish hisobiga oshiriladi. Bu o‘rinda o‘g‘it qo‘llash tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Almashlab ekish sharoitida o‘g‘itlardan samarali foydalanishni tashkil qilish hamda ekinlaridan mo‘l va sifatli hosil olish uchun maqbul o‘g‘it turi, me’yori, qo‘llash muddatlarini belgilash, o‘g‘it qo‘llash tizimini ishlab chiqishda o‘simpliklarning biologik xususiyatlari, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash, almashlab ekishni to‘g‘ri tashkil etish, agrokimyoviy xaritanomalardan unumli foydalanish, ilmiy tadqiqot muassasalari ma’lumotlari va ishlab chiqarish ilg‘orlari yutuqlarini uyg‘unlashtirishdan iborat.

### **O‘quv fanining maqsadi va vazifalari**

Fanni o‘qitishdan maqsad-almashlab ekish sharoitida o‘g‘itlardan unumli foydalanishga yo‘naltirilgan tashkiliy, xo‘jalik, agrokimyoviy va agrotexnikaviy tadbirlarni hisobga olgan holda qishloq xo‘jalik ekinlaridan mo‘l hosil olish uchun eng maqbul o‘g‘it turi, me’yori, qo‘llash muddatlarini belgilashdir. Fanning asosiy vazifasi-ekinlar hosildorligini oshirish va hosil sifatini yaxshilash. Tuproq unumdorligini oshirish va ularni unumdorlik jihatidan bir jinsli bo‘lishiga erishish. O‘g‘itlardan samarali foydalanish va atrof-muhit muhofazasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish.

#### **Fan bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmaga qo‘yiladigan talablar**

- *ekinlarning biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi;*
- *tuproqlarning unumdorligi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;*
- o‘g‘itlarni farqlash har bir ekin turi uchun o‘g‘it me’yori, qo‘llash muddati va usullarini belgilashni;
- oziq elementlari etishmasligi belgilarini to‘g‘ri aniqlashni bilishi va

## **qo'llay olishi kerak;**

-agrokimyoviy xaritanomalar tuzish va shu asosida o'g'itlardan differentsial foydalanishni tashkil qilish, o'g'itlarni ekinlarga qo'llash yuzasidan ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

## **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

O'g'it qo'llash tizimi fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 7 semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalahtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, umumi kimyo, ekologiya va agrometer-ologiya), umumkasbiy (agrokimyo, tuproqshunoslik, umumi dehqonchilik, o'simlikshunoslik, o'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish) va ixtisoslik (tuproqni xaritalash, meliorativ tuproqshunoslik) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

## **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

O'g'itlash tizimi almashlab ekishning maksimal samaradorligini, barcha ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishni, tuproq unimdonorligidan ratsional foydalanishni va o'g'it qo'llashda barcha sharoitlarni agrokimyoviy va iqtisodiy jihatdan qulay bo'lishni ta'minlashga doir masalalarni hal etish kerak.O'g'it qo'llash tizimiga alohida talablar qo'yiladi.Ekinlardan olinadigan hosilning qariyib yarmi mineral o'g'itlar hisobiga olinadi. O'g'itlash tizimi odatda uzoq muddat davomida reja asosida o'g'it kiritish uchun ishlab chiqiladi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarishda o'g'itlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning o'g'it qo'llash tizimi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim axamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda o'g'it namunalari va agrokimyoviy xaritanomalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan

foydalaniladi.

## **Asosiy qism**

### **O‘g‘itlash tizimining asosiy masalalari**

Qishloq xo‘jaligini uyg‘un rivojlantirishda o‘g‘it qo‘llash tizimining o‘rni. Ekinlar hosildorligi va o‘g‘it me’yorlari o‘rtasidagi bog‘liqlik. O‘g‘itlardan samarali foydalanish - ekinlar hosildorligi va tuproq unumdorligini oshirish vositasi. O‘g‘itlash tizimini ishlab chiqish bosqichlari. O‘g‘it qo‘llash tizimining asosiy vazifalari va tiplari.

#### **Ekinlarning o‘g‘itga talabchanligini aniqlashning fiziologik asoslari**

Oziq moddalar yutilishining davriyligi. O‘simlik tomonidan oziq elementlarini tuproqdan olib chiqib ketilishining turlari, miqdori va unga ta’sir etuvchi omillar ( iqlim, ekin navi, hosil miqdori, o‘g‘it me’yori va sug‘orish). O‘simliklar tomonidan tuproqdagagi oziq moddalarini o‘zlashtirishi. Oziq moddalarning o‘zlashtirilish koeffitsienti va unga ta’sir etuvchi omillar.O‘simliklar tomonidan mineral va mahalliy o‘g‘itlar tarkibidagi oziq moddalarni o‘zlashtirishi. Ekinlar ang‘iz va ildiz qoldiqlarini tuproq oziq rejimiga ta’siri.

#### **Turli omillarning mineral va mahalliy o‘g‘itlar samaradorligiga ta’siri**

Iqlim ko‘rsatkichlarining o‘simliklar oziqlanishiga ta’siri. Agrotexnikaviy tadbirlarni sifatli va muddatida o‘tkazish-o‘g‘itlardan samarali foydalanish vositasi. Mahalliy va mineral o‘g‘itlarni birgalikda qo‘llash hamda tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarning ahamiyati.

#### **O‘g‘it qo‘llash usullari**

Asosiy (ekishgacha, ekish oldidan), qatorlab (ekish bilan birga) va qo‘shimcha oziqlantirish. Asosiy o‘g‘itlashning o‘simliklar oziqlanishidagi ahamiyati. O‘g‘it qo‘llash muddatlari: kuzda, bahorda, yozda va h.k.; uyali, o‘chog‘iga, qatorlab, lokal tiplari - tasmasimon, zahiraviy, mexanizmlar yordamida, havo orqali.o‘g‘itlarni tuproq bilan plug oziqlantirgich, tirma va boshqa moslamalar yordamida aralashtirish.

#### **O‘g‘it me’yorini belgilash**

O‘g‘it me’yori va dozasi haqida tushuncha. Mineral o‘g‘itlarning maqbul, oqilona va eng yuqori me’yorlari. O‘g‘it me’yorlarini aniqlash yo‘llari: dala tajribalari va agrokimyoviy tajribalar natijalaridan foydalanish; hisoblash (elementlar balans, me’yoriy balans va qo‘shimcha hosilni hisobga olish). O‘g‘it me’yorini belgilashning kompleks usuli.

## **Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimini tuzish**

Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimini xujjatlari. Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimini ishlab chiqishdagi ketma-ketlik: ekinlarni navbatlash tartibi; melioratsiyaga muhtoj maydonlarni aniqlash; rejadagi hosil asosida ekinlarga mineral o‘g‘itlarni taqsimlash; paykalning xususiyatlarini bilgan holda o‘g‘it qo‘llashning yillik va taqvimiylarini tuzish; xo‘jalikning o‘g‘it qo‘llash uchun kerakli texnika va mexanizmlar bilan ta‘minlanganligini aniqlash; kutiladigan qo‘sishimcha hosil asosida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash; qo‘sishimcha agrotexnikaviy va tashkiliy tadbirlarni rejalshtirish.

## **Donli ekinlarni o‘g‘itlashning o‘ziga xos tomonlari**

O‘g‘itlashda o‘simgan kimyoviy tarkibi, o‘suv davrining davomiyligini hisobga olish. Sug‘oriladigan sharoitda kuzgi bug‘doy, arpa va sulini o‘g‘itlash. Bahorgi bug‘doyni o‘g‘itlash. Don-dukkakililar (soya, ko‘k no‘xat, no‘xat, loviya va mosh), makkajo‘xori va oq jo‘xori (sorgo) ni o‘g‘itlash. Sholini o‘g‘itlash. Sholining ahamiyati va biologik xususiyatlari. Sholi mahalliy va ko‘kat organik o‘g‘itlarga talabchan ekin. Sholini o‘g‘itlashda tuproq xossalari, o‘suv davri va navini hisobga olish. Sholiga qo‘llaniladigan mineral o‘g‘itlarning turlari me’yorlari va muddatlari.

## **G‘o‘zani o‘g‘itlash**

G‘o‘zaning ahamiyati, biologik xususiyatlari navlari, va kimyoviy tarkibi. G‘o‘za - beda almashlab ekish va uning sxemalari. g‘o‘za oziqlanishidagi kritik davrlar. G‘o‘zani o‘g‘itlashda mineral va mahalliy o‘g‘itlarni birgalikda qo‘llash va agrokimyoviy xaritanomalarining ahamiyati. G‘o‘zaning tuproq va o‘g‘itlar tarkibidagi oziq moddalardan foydalanish koeffitsienti. Paxtachilikda nav agrokimyosi. Paxtachilikda qo‘llaniladigan makro va mikro o‘g‘it turlari, me’yorlari va muddatlari.

## **Sabzavot va poliz ekinlarini o‘g‘itlash**

Sabzavot ekinlari oziqlanishining o‘ziga xos tomonlari, ularga mahalliy o‘g‘it qo‘llash muammolari. Mineral o‘g‘itlar va sabzavot hosili sifati. Mineral va mahalliy o‘g‘itlarni birgalikda qo‘llash. Karam pomidor, bodring, sabzi. piyoz va osh ko‘klartini o‘g‘itlash. Poliz ekinlarini (qovun, tarvuz va oshqovoq) o‘g‘itlash.

## **Tok, mevali va tut daraxtlarini o‘g‘itlash**

Mevali daraxtlar va tok oziqlanishining o‘ziga xos tomonlari. Ko‘chatxonalarda o‘g‘it qo‘llash. Bog‘ va tokzor yaratish oldidan tuproqni madaniylashtirish. Mevali daraxtlar va tokni o‘tkazish paytida o‘g‘itlash. Mevaga kirmagan va etuk mevali bog‘ va tokzorlarni o‘g‘itlash. Daraxt va tokka o‘g‘it qo‘llash muddatlari, usullari hamda va o‘g‘itni tuproq bilan aralashtirish yo‘llari. Malina va smorodinani o‘g‘itlash.

### **O‘g‘it qo‘llash hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlik**

O‘g‘it qo‘llash hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlik va uni hisoblashda e’tiborga olinadigan kattaliklar: o‘g‘it hisobiga olinadigan sof daromad va rentabellik darajasi.

### **Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

1. Ekinlarga beriladigan o‘g‘it me’yorlarini elementlar balans usulida hisoblash.
2. Rejalahtiradigan qo‘sishimcha hosil uchun o‘g‘it miqdorini belgilash
3. Mineral o‘g‘itlar me’yorini me’yoriy muvozanatlash (normativ balans) usulida aniqlash
4. Mineral o‘g‘it me’yorlari belgilashda kompleks usuldan foydalanish
5. Etti dalali almashlab ekishda sholi uchun o‘g‘itlash tizimini ishlash
6. G‘o‘za - beda almashlab ekish sxemalari uchun o‘g‘itlash tizimini ishlash
7. Chorva mollari soni va turini bilgan holda, yil davomida to‘planadigan go‘ng miqdorini hisoblash
8. O‘g‘it qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi
9. O‘g‘it qo‘llashni yillik va taqvimiylar rejasini tuzish

### **Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

- darslik yoki o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimldar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, ilmtalab jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki mavzularni chuqr o‘rganish;

- faol o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari (xizmat o‘yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.);
- masofaviy (distantion) ta’lim.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’limning mavzulari quyidagilar:**

1. Qishloq xo‘jalik ekinlarining oziq moddalarga bo‘lgan talabini aniqlash.
2. Almashlab ekishda mahalliy va mineral o‘g‘itlarni birgalikda qo‘llash afzalliklari.
3. Mahalliy o‘g‘itlarni jamg‘arish, saqlash va tuproqqa kiritishni tashkil qilish.
4. O‘g‘it qo‘llash tizimining ekologik muammolari.
5. O‘g‘itlar samaradorligiga tuproq va iqlim sharoitlarining ta’siri.
6. Almashlab ekishda melioratsiyaga muhtoj maydonlarni aniqlash va undan o‘g‘it qo‘llash tizimida foydalanish.
7. Almashlab ekishda tashkiliy tadbirlarni rejalashtirish.
8. O‘g‘it qo‘llash bo‘yicha tavsiya xujjatlarini tayyorlash.
9. O‘g‘itlarni saqlash va tuproqqa kiritish texnologiyasining sxemasi.
10. Lalmikor erlarda kuzgi va bahorgi bug‘doylarni o‘g‘itlash.
11. Dukkakli ekinlarni tuproq unumdarligidagi ahamiyati.
12. Paxta- beda almashlab ekish dalalari bo‘yicha mahalliy o‘g‘itlarni taqsimlash.
13. O‘g‘it qo‘llash rejasini bajarish uchun texnika, mexanizm va ishchi kuchiga bo‘lgan talabni aniqlash.
14. Ekinlar tomonidan hosil birligi (t) bilan tuproqdan olib ketiladigan azot, fosfor va kaliyning tahminiy miqdori.
15. O‘g‘itlar tarkibidagi oziq moddalarning o‘zlashtirish koeffitsientlari.
16. Turli ekinlardan qoladigan ildiz va ang‘iz qoldiqlari hamda ular tarkibidagi oziq moddalar miqdori.
17. Ishlov berish moslamalariga bog‘liq ravishda o‘g‘itlarning tuproq qatlamlari bo‘ylab tarqalishi.
18. G‘o‘zaning o‘suv davrida oziq moddalariga bo‘lgan talabi.

### **Kurs loyihasini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

Kurs ishi g‘o‘za - beda almashlab ekish majmui ekinlari uchun o‘g‘itlash tizimi bo‘yicha bajarilib o‘g‘itlarni qo‘llashning ilmiy asoslangan usullari bilan tanishtirish, talaba ekinlarni o‘g‘itlashda o‘simlikni biologik xususiyatlari,tuproq-iqlim sharoitlari va beriladigan o‘g‘itlarning xossalalarini hisobga olgan holda o‘g‘it qo‘llash rejasini ishlab chiqishi lozim.

Kurs loyihasining taxminiy mavzulari:

- G‘o‘za-beda almashlab ekish majmui ekinlari uchun o‘g‘itlash tizimi.
- G‘o‘za, makkajo‘xori va donli ekinlar navbatlab ekiladigan ekinlar uchun o‘g‘itlash tizimi
- Dukkakli-donli ekinlarni o‘g‘itlash tizimi.

## **Dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti**

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

– Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimi fani asoslari bo‘limiga tegishli ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;

– Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimi fanida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda aqliy xujum, guruxli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan;

– konveyerlarning tuzilishini o‘rganish va ularning asosiy o‘lchamlarini aniqlash, konveyer roliklarning aylanishiga qarshilik koeffitsienti aniqlash mavzularida o‘tkaziladigan tajriba mashg‘ulotlarida kichik guruxlar musobaqalari, guruxli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

O‘quv televideniyasi, diaprojektor, kompyuter texnikasi, slaydlar, o‘quv kino va video filmlar.

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati**

### **Asosiy .**

1. Agroximiya, PG’r prof. B.A.Yagodina. M.,Agropromizdat, 1989.
2. Musaev B.S. «O‘g‘it qo‘llash tizimi» Respublika o‘quv uslubiyot markazi. T. 1998.
3. Efimov V.N., Donskix I.N., Sinitzin G.I. Sistema primeneniya udobreniy. M., Kolos, 1984.
4. Gulyakin M.V. «Sistema primeneniya udobreniy». M., Kolos,1977.

### **Qo‘srimcha**

1. Balashov N.N., Zemyan G.S. Ovohevodstvo. T., «Uzbekistan»,1981.
2. Organicheskie udobreniya v intensivnoy zemledelii. PG’r V.G.Mineeva.M., 1984.

3. H.Ch.Bo'riev., O.A. Ashurmetov «Poliz ekinlari biologiyasi va etishtirish texnologiyasi». T.Mehnat-2000
4. Deryugin I.P., Kulyukin A.N. Pitanie i udobrenie ovochno'x i plodovo'x kultur. M., Izd-vo MSXA, 1998.
5. Ovochno'e kulturo' (Entsiklopediya semyan). Sostaviteli: Vishnyakova G.I., Vasilev V.A., Kolotilov V.N. M.Veche, 2000.
6. Bo'riev X.Ch Havaskor bog'bonga qo'llanma T. Sharq 2002 y.
7. "O'g'it qo'llash tizimi" fanidan ish daftari. 2002 y Ma'ruza matnlari.
8. Jurnallar: Paxtachilik (Xlopkovodstva), O'zbekiston qishloq xo'jaligi (selskoe xozyaystvo Uzbekistana).

### Saytlar:

http://himiy.mnru  
http://www.chemistry nonod (ru) | nasdel| istoriy htm.  
http://www.akim.dp.na.mhhtm  
http://www.agno.ru msgs |ur| ru.htm.  
http://www.himiy.ucor.ru | index | 1-0-0  
http://www.agho.com/nauka | plant rachi ta | index.htm.

**2.IShChI O'QUV DASTURI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TUPROQShUNOSLIK KAFEDRASI**

**"TASDIQLAYMAN"**  
GULDU rektori v.b.  
N.R. Barakaev

«  »        2015 y.

**Almashlab ekishda o'g'itlash tizimi**  
**fani bo'yicha**

5141000 – Tuproqshunoslik

**ishchi o'quv dasturi**

Umumiy o'quv soati	– 126
Shu jumladan:	
Ma'ruza	– 16
Amaliyot mashg'ulotlari	– 24
Laboratoriya ishi	– 20
Mustaqil ta'lif soati	– 66

**GULISTON – 2015**

Fanning ishchi o'quv dasturi namunaviy o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi: Turdimetov Sh.M.** – “Tuprokshunoslik”  
kafedrasi dotsenti

---

(imzo)

**Taqrizchi:** Mirsharipova G. – qG’x.f.n. dotsent v.b.

---

(imzo)

Fanning ishchi o'quv dasturi “Tuprokshunoslik” kafedrasining 2015 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - sonli majlisida ko'rib chiqilib, fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

**Kafedra mudiri:** dots. Japakov N.B.

Fanning ishchi o'quv dasturi “Tabiatshunoslik” fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2015 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi “\_\_\_” - sonli majlisida tasdiqlandi.

Fakultet Ilmiy-uslubiy  
Kengashi raisi:

---

Kelishildi:

O'quv ishlari bo'yicha prorektori

---

## Kirish

### Fanning maqsadi va vazifasi:

**Fanning maqsadi:** almashlab ekish sharoitida o'g'itlardan oqilona foydalanishni tashkil qilish va ekinlaridan mo'l va sifatli hosil olish uchun maqbul o'g'it turi me'yori, qo'llash muddatlarini belgilash.

**Fanning vazifasi:** almashlab ekishda o'g'itlash tizimini ishlab chiqishda o'simliklarning biologik xususiyatlari, tuproqning melioratsiya holatini yaxshilash, almashlab ekishni to'g'ri tashkil etish, agrokimyoviy xaritanomalardan unumli foydalanish, ilmiy tadqiqot muassasalari ma'lumotlari va ishlab chiqarish ilg'orlari yutuqlarini uyg'unlashtirishdan iborat.

*Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmalariga  
DTS ga muvofiq qo'yiladigan talablar*

#### Bakalavr:

- ekinlarning biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi; - tuproqlarning unumdonligi to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lish kerak***.
- o'g'itlarni farqlash har bir ekin turi uchun o'g'it me'yori, qo'llash muddati va usullarini belgilashni; - oziq elementlari etishmasligi belgilarini to'g'ri aniqlashnibishi va ***qo'llay olishi kerak***.  
- agrokimyoviy xaritanomalar tuzish va shu asosida o'g'itlardan differentsial foydalanishni tashkil qilish, o'g'itlarni ekinlarga qo'llash ***yuzasidan ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak***.

#### O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

Fan agrokimyo, dehqonchilik, tuproqshunoslik, o'simlikshunoslik, melioratsiya, selektsiya va urug'chilik, entomologiya va fitopatologiya kabi fanlar bilan bog'liq.

#### Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

Fan 5141000 – Tuproqshunoslik 4-bosqich V11 –semestrida o'tishga rejalashtirilgan. Fanni o'qitish bo'yicha darsliklar, ma'ruza matnlari, o'quv-uslubiy qo'llanma, slaydlar va ko'rsatmalar mavjud.

Fanni o'qitishda mashg'ulot turlarining bajarilish tartiblari mavzular ketma-ketligini va mutanosibligini saqlagan holda amalga oshirilishiga alohida e'tibor berilishi lozim. Nazariy materiallar materiallar konspekti va texnik adabiyotlarga asoslanib olib boriladi. Amaliy va seminar mashg'ulotlari masala va misollar echish, hamda, me'yoriy hujjatlar tuzish ishlarini tashkil qiladi.

## Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

O'qitishning an'anaviy uslublari- test so'rovlari, davra suhbatlari, kollokviumlar, muammoli ma'ruza o'tkazish, ro'znomalar, oynomalar va ma'lumotnoma ma'lumotlaridan, elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalar hamda plakatlar, jadvallardan keng foydalanish. Ma'ruza matnlari asosida darslarni olib borish va talabalar bilimini reyting tizimi asosida (baholash) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga to'plagan ballar orqali ega bo'lish.

### **Almashlab ekishda o'g'itlash tizimi fanidan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulotlar turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti**

### **Almashlab ekishda o'g'itlash tizimi fanidan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulotlar turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti**

T/r	<b>Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni</b>	<b>Jami</b>	<b>Ma'ruza</b>	<b>Analiy mashg'ulot</b>	<b>Laborotoriya</b>	<b>Musvakil ishlash</b>
1.	Kirish. O'g'itlash tizimining asosiy qoidalari	2	2			
2	Ekinlarning o'g'itga talabchanligini aniqlashning fiziologik asoslari. Turli omillarning mineral va mahalliy o'g'itlar samaradorligiga ta'siri	2	2			
3	Qishloq xo'jalik ekinlarining oziq moddalarga bo'lgan talabini aniqlash.	4				4
4	Almashlab ekishda mahalliy va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llash afzallikkleri.	4				4
5	Ekinlarga (masalan paxta, bug'doy, kartoshka) beriladigan o'g'it me'yorini elementlar balans usulida hisoblash.	4		4		
6	O'g'it qo'llashning usullari, muddatlari, tiplari va texnikasi . Qo'llaniladigan mineral o'g'it me'yorlarini belgilash.	10	2	4	4	
7	Mahalliy o'g'itlarni jamg'arish, saqlash va tuproqqa kiritishni tashkil qilish.	4				4
8	O'g'it qo'llash tizimining ekologik muammolari.	4				4
9	O'g'it me'yorini belgilashda rejalashtiriladigan qo'shimcha hosil miqdori asosida hisoblash.	4		4		

10	O'g'it me'yorini belgilashda normativ balans usulidan foydalanish	4		4	
11	Mineral o'g'it me'yorlarini belgilashda kompleks usulini qo'llash.	4		4	
12	O'g'itlar samaradorligiga tuproq va iqlim sharoitlarining ta'siri.	4			4
13	Almashlab ekishda melioratsiyaga muhtoj maydonlarni aniqlash va undan o'g'it qo'llash tizimida foydalanish.	4			4
14	Almashlab ekishda tashkiliy tadbirlarni rejalshtirish.	4			4
15	Donli ekinlarni o'g'itlash.	2	2		
16	Lalmikor erlarda kuzgi va bahorgi bug'doylarni o'g'itlash.	4			4
17	Dukkakli ekinlarni tuproq unum dorligidagi ahamiyati.	4			4
18	Almashlab ekishda o'g'itlash tizimini tuzish. Almashlab ekish tizimidagi sholini o'g'itlash.	2	2		
19	O'g'it qo'llash bo'yicha tavsiya xujjatlarini tayyorlash.	4			4
20	O'g'itlarni saqlash va tuproqqa kiritish texnologiyasining sxemasi.	4			4
21	Tolali texnik ekinlarni o'g'itlash.	2	2		
22	Almashlab ekishning turli sxemalari uchun o'g'itlash tizimini ishlab chiqish	6			6
23	Paxta- beda almashlab ekish dalalari bo'yicha mahalliy o'g'itlarni taqsimlash.	4			4
24	O'g'it qo'llash rejasini bajarish uchun texnika, mexanizm va ishchi kuchiga bo'lgan talabni aniqlash.	4			4
25	Ekinlar tomonidan hosil birligi (t) bilan tuproqdan olib ketiladigan azot, fosfor va kaliyning tahminiy miqdori.	4			4
26	Sabzavot ekinlarini o'g'itlash.	2	2		
27	Poliz, subtropik va boshqa muhim ekinlarni o'g'itlash. Tok, mevali va tut daraxtlarini o'g'itlash.	2	2		
28	O'g'itlar tarkibidagi oziq moddalarning o'zlashtirish koeffitsientlari.	4			4
29	Turli ekinlardan qoladigan ildiz qoldiqlaridagi moddalar miqdori.	2			2
30	Xo'jalikda chorva mollarining sonini va turini bilgan holda, yil davomida to'planadigan go'ng miqdorini hisoblash.	2		2	

31	Mahalliy o'g'itlar hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.	2			2	
32	Dala tajribalarining natijalari va agrokimyoviy xaritanoma ma'lumotlarini xisobga olgan xolda o'g'itlar me'yoriga o'zgartirishlar kiritish.	2			2	
33	O'g'it qo'llashning kalendar rejasini ishlab chiqish.	8		4	4	
34	Ishlov berish moslamalariga bog'liq ravishda o'g'itlarning tuproq qatlamlari bo'ylab tarqalishi.	2				2
35	G'o'zaning o'suv davrida oziq moddalariga bo'lgan talabi.	2				
36	Qishloq xo'jalik ekinlarining oziq moddalarga bo'lgan talabini aniqlash.	2				2
	Jami	126	16	24	20	66

## 2. O'quv materiallarining mazmuni

### 2.1. Ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni

#### 2.1.1. Kirish. O'g'it qo'llash tizimining asosiy masalalari. (2-soat)

Qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirishda o'g'it qo'llash tizimining o'rni. Ekinlar hosildorligi va ularni o'g'it bilan ta'minlanishi o'rtasidagi bog'lilik.

O'g'itlardan oqilona samarali foydalanish-ekinlar hosildorligi va tuproq unumdarligini oshirish vositasi. O'g'itlash tizimini ishlab chiqish bosqichlari. O'g'it qo'llash bo'yicha tavsiya-hujjatlarini tayyorlash va uni amaliyatga tadbiq etish. O'g'it qo'llash tizimining asosiy vazifalari va tiplari. **Adabiyotlar:** 1(3-10)

#### 2.1.2. Ekinlarni o'g'itga talabchanligini aniqlashning fiziologik asoslari.

#### Turli omillarning mineral va mahalliy o'g'itlar samaradorligiga ta'siri. (2-soat)

O'simliklarga oziq moddalari yutilishining rivojlanish davrlariga bog'liqligi. O'simliklar tomonidan tuproqdan oziq elementlarini olib chiqib ketilishi. Oziq moddalari olib chiqib ketilishining turlari. Tuproqdan olib chiqib ketiladigan oziq elementlari miqdoriga ta'sir etuvchi omillar (iqlim sharoitlari, ekinning navi, hosil miqdori, o'g'it me'yori va sug'orish).

O'simliklar tomonidan tuproqdagi oziq moddalarini o'zlashtirilishi. Oziq moddalarining o'zlashtirilish koeffitsenti va unga tuproq unumdarligi, muhiti (r.n), iqlim agrotexnikaviy tadbirlarining ta'siri.

O'simliklarning mineral va mahalliy o'g'itlar tarkibidagi oziq moddalarini o'zlashtirishi. O'zlashtirish koeffitsentini aniqlashda ayirma va nishonlangan atomlar (izotoplar) usullaridan foydalanish. Ekinlarning ildiz va ang'iz qoldiqlarini tuproqning oziq rejimiga ta'siri.

O'zbekiston iqlimining o'ziga xos tomonlari. Iqlim ko'rsatgichlarining oziqlanishiga ta'siri.

Respublika tuproqlarining agrokimyoviy xossalari.Tuproq tiplari,xossalari va o'g'itlar o'rtasidagi munosabat.Mahalliy va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llashning ahamiyati.

Tashkiliy-iqtisodiy sharoitlari. Xo'jaliklarning mineral va mahalliy o'g'itlar bilan ta'minlanganligi, o'g'itlarni saqlash uchun omborlarni qo'llash uchun texnika va mexaninizmlarni mayjudligi. **Adabiyotlar:** 1(24-38) 4(239-240)

### **2.1.3. O'g'it qo'llashning usullari, muddatlari, tiplari va texnikasi. Qo'llaniladigan mineral o'g'it me'yorlarini belgilash. (2-soat)**

O'g'it qo'llashning usullari: asosiy (ekishgacha, ekish oldidan), qatorlab (ekish bilan birga) va qo'shimcha oziqlantirish. Asosiy o'g'itlashning o'simliklar oziqlanishidagi ahamiyati.

O'g'it qo'llashning muddatlari (kuzda, baxorda, yozda x.k.)

O'g'it qo'llashning tiplari: yoppasiga (sochma), o'z joyiga (uyali, uchog'iga qatorlab) lokal-lentasimon, zaxiraviy, mexanizmlar yordamida, havodan.

O'g'itlarni tuproq bilan aralashtirish yo'llari: plug yordamida, oziqlantirgich yordamida, tirmalar yordamida.

O'g'it me'yori va dozasi haqida tushuncha. Mineral o'g'itlarning maqbul, oqilona eng yuqori me'yorlari. qo'llaniladigan mineral o'g'it me'yorlarini aniqlash yo'llari. O'g'it me'yorlarini belgilashda dala tajribalari va agrokimyoviy tekshirishlarning natijalaridan foydalanish. Mineral o'g'it me'yorlarini hisoblash yo'li bilan aniqlash.Hisoblash yo'li bilan aniqlashning elementlar, balans, normativ balans va qo'shimcha hosilni hisobga olish usullari. Mineral o'g'it me'yorlarini aniqlashning kompleks usuli. **Adabiyotlar:** 4(228-242) 4(233-235)

### **2.1. 4. Donli ekinlarni o'g'itlash. (2-soat)**

Donli ekinlarni o'g'itlashning o'ziga xos tomonlari. Donli ekinlarni o'g'itlashda ularning kimyoviy tarkibi, o'suv davrining uzun-qisqaligini hisobga olish. Sug'oriladigan va lalmi sharoitida etishtiriladigan kuzgi bug'doyni o'g'itlash. Arpa va sulini o'g'itlash. Bahorgi bug'doyni o'g'itlash. Don-dukkaklilar (soya, ko'k nuxot, loviya va mosh)ni o'g'itlash. Makkajo'xori va oq jo'xori (sorgo)ni o'g'itlash. **Adabiyotlar** 1(249-254)

### **2.1.5. Almashlab ekishda o'g'itlash tizimini tuzish. Almashlab ekish tizimidagi sholini o'g'itlash. (2-soat)**

Almashlab ekishda o'g'itlash tizimini tuzish uchun kerak bo'ladigan xujjatlar. Almashlab ekishda o'g'itlash tizimini ishlab chiqishdagi ketma-ketlik: ekinlarni nivbatlashning tartibi; melioratsiyaga muxtoj maydonlarni aniqlash; rejallashtirilgan hosil asosida ekinlarga mineral o'g'itlarni taqsimlash; har bir paykalning xususiyatlarini bilgan holda o'g'it qo'llashning yillik rejasini ishlab chiqish; o'g'it qo'llashning taqvimiyl (kalendar) rejasini tuzish; xo'jalikning o'g'it qo'llash uchun kerakli texnika va mexanizmlar bilan ta'minlanganligini aniqlash;

kutiladigan qo'shimcha hosil asosida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash; qo'shimcha agrotexnikaviy va tashkiliy tadbirlarni rejalashtirish.

Sholining xalq xo'jaligidagi ahamiyati va asosiy biologik xususiyatlari. Sholini o'g'itlashda tuproq xossalari va navning o'suv davrini hisobga olish. Sholiga qo'llanadigan azotli o'g'it me'yorlari va turlariga qo'yiladigan talablar. Sholi navlari va mineral o'g'it me'yorlari o'rtasidagi bog'liqlik. Sholiga qo'llaniladigan fosforli va kaliyli o'g'itlarning me'yorlari va muddatlar.

**Adabiyotlar:** 4(224-225) 4(257-264)

### **2.1. 6. Tolali texnik ekinlarni o'g'itlash. (2-soat)**

g'o'zaning biologik xususiyatlari va navlari. g'o'zaning kimyoviy tarkibi. g'o'za – beda almashlab ekish va uning sxemalari. g'o'zaning oziqlanishidagi kritik davrlar. g'o'zani o'g'itlashda mineral va mahalliy o'g'itlarni birgalikda qo'llash. g'o'zaning tuproq va o'g'itlar tarkibidagi oziq moddalardan foydalanish koeffitsienti. Paxtachilikda qo'llaniladigan o'g'it turlari. g'o'zaga mikroo'g'itlar qo'llash. Kanop ekiniga o'g'it normasini aniqlash va taqsimlash. **Adabiyotlar** 4(243-248)

### **2.1. 7. Sabzavot ekinlarini o'g'itlash. (2-soat)**

Sabzavot ekinlari oziqlanishining o'ziga xos tomonlari. Sabzavot ekinlariga mahalliy o'g'itlarni qo'llash muammolari. Sabzavotchilikda qo'llaniladigan mineral o'g'itlar va hosil sifati. Mineral va mahalliy o'g'itlarni birgalikda qo'llash.

Karamni o'g'it-lash. Pomidorni o'g'itlash. Bodrinni o'g'itlash. Sabzini o'g'itlash. Piyozni o'g'itlash. Ko'katni (oshko'klar)ni o'g'itlash. **Adabiyotlar:** 9(132-145)

### **2.1. 8. Poliz, subtropik va boshqa muhim ekinlarni o'g'itlash. Tok, mevali va tut daraxtlarini o'g'itlash (2-soat)**

Poliz ekinlari (qovun, tarvuz va oshqovoq) ni o'g'itlash. Subtropik ekinlarni o'g'itlash. Tamakini o'g'itlash. Zig'irni o'g'itlash. Kungaboqarni o'g'itlash.

Mevali daraxtlar va tokning oziqlanishini o'ziga xos tomonlari. Ko'chatxonalarda o'g'it qo'llash. Bog' va tokzorlarni yaratishdan oldin o'tqaziladigan madaniylashtirish tadbirlari. Yosh (mevaga kirmagan) navlarni o'g'itlash. Mevali bog' va tokzorlarni o'g'itlash. Daraxt va toklarga o'g'it qo'llashning muddatlar, usullari va o'g'itni tuproq bilan aralashtirish yo'llari. Malina va smorodinani o'g'itlash. **Adabiyotlar:** 1(190-205)

## **2.2. Amaliy mashgulotining mavzusi, matni va soat xisobidagi hajmi**

### **2.2. 1. Ekinlarga (masalan paxta, bug'doy, kartoshka) beriladigan o'g'it me'yorini elementlar balans usulida hisoblash. (4-soat)**

qishloq xo'jalik ekinlari uchun zarur bo'lgan o'g'itlar miqdorini rejalashtirilgan hosil asosida balans usulida Aniqlash mumkin. Mazkur usul asosida hosilning shakllanishi uchun sarflanadigan oziq elementlari hamda tuproq

va o'g'it tarkibidan o'zlashtiriladigan oziq elementlari miqdorini taqqoslash yotadi. Adabiyotlar: 1(3-10)

## **2.2. 2.O'g'it me'yорини belgilashda rejalashtiriladigan qo'shimcha hosil miqdori asosida hisoblash. (4-soat)**

Etishtiriladigan hosil (s/ga) hisobiga qancha miqdorda oziq elementlar sarflanishi zarurligi haqidagi ma'lumotlarga asoslanib, rejalashtiriladigan qo'shimcha hosilni hisobga olgan holda tuproqdan chiqib ketadigan oziq moddalar miqdori belgilanadi. qo'shimcha hosil uchun o'g'itlardagi oziq moddalar miqdori tuproq unumdorligiga tuzatish kiritib va o'g'it tarkibidagi oziq moddalardan foydalanish koeffitsientini hisobga olgan holda aniqlanadi. Adabiyotlar: 1(24-38)

## **2.2. 3.O'g'it me'yорини belgilashda normativ balans usulidan foydalanish. (4-soat)**

Tuproqdagagi oziq moddalar miqdori *kirim* va *chiqim* qismlardan iborat. Kirim qismi o'z ichiga tuproqqa o'g'it, urug' va atmosferadan tushadigan oziq moddalarni olsa, chiqim qismi tuproqdan chiqib ketadigan oziq moddalardan tashkil topadi. To'liq (yoki ekologik) va xo'jalik muvozanat bir-biridan farqlanadi.

Muvozanat ijobiy (tuproqqa tushadigan oziq moddalar chiqib ketadigan ko'p), salbiy (chiqib ketadigan va yuviladigan oziq moddalar kelib tushadigandan ko'p) yoki defitsitsiz (chiqim va kirim teng) bo'lishi mumkin. Adabiyotlar: 4(239-240)

## **2.2. 4. Mineral o'g'it me'yорларини belgilashda kompleks usulini qo'llash. (4-soat)**

Rejalashtirilgan hosilni etishtirishda tuproqning oziq elementlari bilan ta'minlanganligi, bonitirovka balli, o'g'itlar ustida o'tkazilgan tajribalarning natijalari, o'tmishdosh ekin va tuproqning bir qator xossalari hisobga olgan holda o'g'it me'yорини belgilash. Adabiyotlar: 4(228-242)

## **2.2. 5. 7-dalali almashlab ekish sxemasidan sholi uchun o'g'itlash tizimini ishlab chiqish. (2-soat)**

Almashlab ekish sharoitida sholidan mo'l hosil olish uchun eng maqbul o'g'it me'yорини, qo'llash muddatlarini belgilash.

Adabiyotlar:(233-235)

## **2.2. 10. O'g'it qo'llashning kalendar rejasini ishlab chiqish.( 4-soat)**

Yillik rejalar tuzishda o'g'itlash muddati, o'g'itning turi, me'yori ko'rsatilishi shart. Yillik rejaga asoslanib ayrim dalalar, almashlab ekish, bo'lim (brigada)lar va butun xo'jalik bo'yicha o'g'itga bo'lgan talab hisoblab chiqiladi, o'g'itlarni keltirish muddati belgilanadi, so'ng tashkiliy jihatdan qaror qabul qilinadi. Adabiyotlar: 1(190-205)-

## **2.3. Laboratoriya mashgulotining mavzusi,matni va soat xisobidagi hajmi**

### **2.3.1. Almashlab ekishning turli sxemalari uchun o'g'itlash tizimini ishlab chiqish. (6-soat)**

Talabalarni xo'jaliklarda almashlab ekishda o'g'itlarni qo'llashning ilmiy asoslangan usullari bilan tanishtirish. Talaba oldiga g'o'zani

o'g'itlash sistemasi va uni qo'llash rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yiladi  
Adabiyotlar: 1(249-254)

### **2.3. 2.O'g'it me'yorini belgilashda rejalashtiriladigan qo'shimcha hosil miqdori asosida hisoblash. (4-soat)**

Etishtiriladigan hosil (s/ga) hisobiga qancha miqdorda oziq elementlar sarflanishi zarurligi haqidagi ma'lumotlarga asoslanib, rejalashtiriladigan qo'shimcha hosilni hisobga olgan holda tuproqdan chiqib ketadigan oziq moddalar miqdori belgilanadi. qo'shimcha hosil uchun o'g'itlardagi oziq moddalar miqdori tuproq unumdorligiga tuzatish kiritib va o'g'it tarkibidagi oziq moddalardan foydalanish koeffitsientini hisobga olgan holda aniqlanadi. Adabiyotlar: 1(24-38)

### **2.3. 3.Xo'jalikda chorva mollarining sonini va turini bilgan holda, yil davomida to'planadigan go'ng miqdorini hisoblash. (2-soat)**

Mahalliy o'g'itlardan foydalanish rejasini tuzishdan oldin tayyorlash imkonи bo'lган go'ng miqdori, shuningdek turli najas-chiqindii, g'o'zapoya qovchoqlaridan kompost tayyorlash va chetdan go'ng keltirish imkoniyatlari o'rganiladi. Adabiyotlar: 4(224-225)

### **2.3. 4.Mahalliy o'g'itlar hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash. (2-soat)**

Ekin turlari bo'yicha qo'llanilgan o'g'itlarning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqiladi. Adabiyotlar: 4(257-264)

### **2.3. 5.Dala tajribalarining natijalari va agrokimyoviy xaritanoma ma'lumotlarini xisobga olgan xolda o'g'itlar me'yoriga o'zgartirishlar kiritish. (2-soat)**

Almashlab ekishda xo'jalikda tuproqning umumiyligi unumdorlik darajasini hisobga olgan holda uzoq muddatli (odatda besh yillik yoki almashlab ekish rotatsiyasi bo'yicha) o'g'itlash tizimi ishlab chiqiladi. Adabiyotlar: 9(132-145)-

### **2.3. 6. O'g'it qo'llashning kalendar rejasini ishlab chiqish.( 4-soat)**

Hozirgi kunda ham Respublikamizda o‘g‘it qo‘llash tizimini takomillashtirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida chopiqtalab ekinlarni etishtirilishi, dehqonchilikni mineral o‘g‘itlar bilan ta’minlash uchun imkoniyatlarning mavjudligi (qisqa muddat ichida o‘g‘it mustaqilligiga erishganimizni alohida ta’kidlash lozim), o‘simliklar oziqlanishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy muassasasi va xodimlarning yetarliligi shular jumlasidandir.

II. O‘g‘itlash tizimi almashlab ekishning maksimal samaradorligini, barcha ekinlardan yuqori va barqaror hosil olishni, tuproq unumdarligidan

ratsional foydalanishni va o‘g‘it qo‘llashda barcha sharoitlarni ham agrokimyoviy, ham iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lishni ta’minlashga doir masalalarni hal etishi kerak.

Xo‘jalikda almashlab ekish sharoitida o‘g‘itlash sistemasi uzoq muddatga mo‘ljallanganligi va almashlab ekishning hamma maydonlarida faqat tuproq unumdorligining umumiylarini hisobga olinishi sababli har yili o‘g‘itlardan foydalanishning yillik rejalarini tuziladi. Ularda o‘g‘it me’yori shakli, o‘g‘itlash muddati va usullari ko‘rsatiladi. Ekinlarning navbatlanishi, yillar bo‘yicha hosildorligi va ob-havo sharoitlarining o‘zgarishi ehtimoli bo‘lgan hollarda tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi. Yillik reja mahalliy va mineral o‘g‘itlarni qo‘llanish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni uchun asosiy xujjat bo‘lib xizmat qiladi. O‘g‘it qo‘llash tizimi xo‘jalikda dehqonchilik tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘g‘itlash tizimini ishlab chiqish bosqichlari:

-*qishloq xo‘jalik korxonalarining tahlil natijalari va xo‘jalik faoliyatining istiqbollari;*

-*iqlim va tuproq sharoitlarining bahosi, tuproq agrokimyoviy kuzatishlar ma’lumotlariga ko‘ra xo‘jalikdagisi erlarning potentsial va aktual unumdorlik darajasi;*

-*imkoniyat darajasida go‘ng va boshqa mahalliy o‘g‘itlar jamg‘arish ularni to‘g‘ri saqlash va foydalanish tadbirlarini rejalaشتirish;*

-*xo‘jalik joylashgan iqtisodiy tuman uchun mineral o‘g‘it kiritishning haqiqiy va istiqboldagi imkoniyatlariga, qishloq xo‘jalik mahsulotlari etishtirishning rejalaشتirilishiga va xo‘jalikning iqtisodiy imkoniyatiga qarab mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan talabini belgilash;*

-*o‘g‘itlarni xo‘jalikka o‘z vaqtida etkazib berilishi, ularni to‘g‘ri saqlash, o‘g‘it tayyorlash va tuproqqa kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni kompleks mexanizatsiyalashtirish.*

III. O‘g‘itlash tizimining asosiy maqsadi almashlab ekish sharoitida o‘g‘itlardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan tashkiliy xo‘jalik, agrokimyoviy va agrotexnikaviy tadbirlarni hisobga olgan holda qishloq xo‘jalik ekinlaridan mo‘l hosil olish, eng maqbul o‘g‘it turi, me’yori qo‘llash muddatlarini belgilashdir.

O‘g‘itlash tizimi odatda har bir paykalga uzoq muddat davomida reja asosida o‘g‘it kiritish uchun ishlab chiqiladi. Tizimni o‘z oldiga quyidagi asosiy vazifalarni qo‘yadi:

- *ekinlar hosildorligini oshirish va ularni unumdorlik jihatidan bir jinsli bo‘lishiga erishish;*

- *o‘g‘itlardan samarali foydalanish, jadal dehqonchilik yuritish va atrof-muhit muhofazasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish.*

Savollar

1. Ekinlar hosildorligi va ularni o‘g‘it bilan ta’minlanishi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
2. O‘g‘it qo‘llash bo‘yicha tavsiya-xujjatlari nima asosda tayyorlanadi?

## **2-MAVZU: EKINLARNING O‘G‘ITGA TALABChANLIGINI ANIQLASHNING FIZIOLOGIK ASOSLARI**

### **Reja**

1. O‘simliklar tomonidan oziq moddalarni o‘zlashtirish davrlari.
2. O‘simliklar tomonidan tuproqdan oziq elementlarini olib chiqib ketilishi va uning turlari.
3. O‘simliklar tomonidan tuproqdagи oziq moddalarni o‘zlashtirilishi.
4. O‘simliklarning mineral va mahalliy o‘g‘itlar tarkibidagi oziq moddalarni o‘zlashtirishi.
5. Ekinlarning ildiz va ang‘iz koldiklarini tuproqning oziq rejimiga ta’siri.

Adabiyotlar 2, 3, 4, 6

Tayanch iboralar: O‘zlashtirish davrlari, biologik va xo‘jalik chiqim, ildiz va ang‘iz qoldiq, oziq moddalarni o‘zlashtirish

I. Oziq moddalar o‘zlashtirilishi o‘simliklarning yoshiga karab o‘zgarib boradi. Oziq moddalar o‘zlashtirilishiga nisbatan *tanglik* (kritik) va *eng ko‘p* (maksimal) o‘zlashtiriladigan davrlar farqlanadi. Oziqlanish muhitida ma’lum bir moddaning etishmasligiga va uni o‘simliklarning rivojlanishiga kuchli ta’sir kursatishi oziqlanishdagi tanglik davr deb yuritiladi. Ekinlar keyinchalik mazkur element bilan mo‘l-kul darajada ta’mnlansada, tanglik davrining asorati uzil-kesil yukolmaydi. Azot va fosforga nisbatan tanglik davr odatda erta bahorda, mikroorganizmlar faoliyati sust bo‘lganda namayon bo‘ladi.

Rivojlanishning nisbatan kechrok muddatlarida o‘simliklarning oziqlanishiga bo‘lgan talabi kuchayadi, kaysiki oziq moddalar eng ko‘p (maksimal) o‘zlashtiriladigan davr deb yuritiladi.

Ko‘p hollarda bu davr o‘simliklar tomonidan eng ko‘p quruq biomassa to‘planadigan muddatga to‘g‘ri keladi.

II. qishloq xo‘jalik ekinlari tuproqdan oziq moddalarni turli miqdor va nisbatlarda olib chiqib ketadi. Bunda o‘simliklarning turi va navi bilan bir qatorda tuproq-iqlim sharoitlari ham muhim o‘rin egallaydi. O‘simliklarning oziq moddalariga bo‘lgan talabi umumiyl hosil bilan olib chiqib ketiladigan oziq moddalar miqdori bilan yoki asosiy mahsulotning hosil birligi bilan belgilanadi. Oziq moddalarning *biologik va xo‘jalik chikimi* tushunchalarini farqlay olishimiz lozim. O‘simliklar tomonidan hosilning biologik massasini (don, somon, ang‘iz va ildiz koldiklari) shakllantirish uchun o‘zlashtiriladigan oziq moddalar miqdori biologik

chikim iborasi bilan yuritiladi. Xo‘jalik chikimi esa faqatgina mahsulotning tovar qismi bilan (don va somon, ildizmeva va palak) olib chiqib ketiladigan oziq moddalar miqdorini ko‘rsatadi. Agar somon yoki palak notovar mahsulot sifatida paykalda qoldirilsa, ular tarkibidagi oziq moddalarining miqdori xo‘jalik chiqimiga kiritilmaydi. Chiqimning qoldiq qismi o‘z ichiga paykalda qoladigan ang‘iz va ildiz qoliqlari, to‘kilgan don va mevalar tarkibidagi, shuningdek, ildizdan tuproqqa oqib o‘tadigan oziq elementlar yig‘indisidan iborat. Tadqiqotlar bo‘yicha chiqimning qoldiq qismi tarkibida hosilning shakllanishi uchun oziq moddalarining talaygina miqdori bo‘lishi aniqlangan.

Amalda o‘simliklarning oziq moddalarga bo‘lgan talabi 1t asosiy mahsulot va unga mos keladigan «yordamchi» mahsulotning shakllanishi uchun sarflanadigan xo‘jalik chiqimi asosida hisoblanadi.

III. O‘simliklar tomonidan tuproqdagi u yoki bu oziq elementlarning o‘zlashtirishi quyidagicha topiladi:

$$Kq \text{ (aG's)} \bullet 100$$

bu erda

K - o‘zlashtirish koeffitsienti %;

a - o‘g‘itlanmagan tuproqdagi hosil bilan olib chiqib ketiladigan oziq elementlar miqdori

s - xaydalma qatlAMDAGI harakatchan shakldagi oziq elementlar miqdori gG’ga

Tuproqdagi oziq moddalarining o‘zlashtirilish koeffitsienti o‘simliklarning biologik xususiyatlariga bog‘liq ravishda, tashqi omillar (tuproq unumдорлигi, *Rh*, iqlim sharoitlari, agrotexnika) ta’sirida keng ko‘lamda o‘zgaradi, undan o‘g‘it meyorlarini belgilashda foydalanishni mushkullashtiradi. Tuproqda harakatchan shakldagi oziq elementlarning miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, tabiiyki, ularni o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilish koeffitsienti shuncha kichik bo‘ladi. Tuproqqa mahalliy va mineral o‘g‘itlar kiritilganda, tuproq oziq elementlarining o‘zlashtirilish koeffitsienti 1,5-2,0 barobar oshadi.

O‘g‘itlar tarkibidagi oziq elementlarning o‘zlashtirilish koeffitsienti oziq moddalarining o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilgan qismini o‘g‘itlar bilan kiritilgan oziq moddalar miqdoriga bulish yuli bilan topiladi:

$$\frac{Kq \text{ Cho‘-Chn} *100}{S}$$

bu erda:

k - o‘g‘it tarkibidagi oziq moddalarining o‘zlashtirish koeffitsienti, %

Cho‘ - o‘g‘itlangan tuproqdan hosil bilan chiqib ketadigan oziq moddalar miqdori, %

*Chn - o‘g‘itlanmagan (nazariy) maydondagi hosil bilan chiqib ketadigan oziq moddalar miqdori, kg/ga*

*S - o‘g‘it bilan tuproqka kiritilgan oziq elementi miqdori, kg/ga*

IV. O‘simliklar tomonidan o‘g‘itlar tarkibidan o‘zlashtiriladigan oziq moddalarining miqdori tuproqdan o‘zlashtiriladigan oziq moddalar miqdoriga nisbatan ancha muqobil hisoblansada, tuproq xususiyatlari, iqlim sharoitlari, ekining biologik xususiyatlari, o‘g‘it turi va qo‘llash usullariga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Masalan, tuproqqa kiritiladigan o‘g‘it miqdorining ortishi tuproqda mazkur element kontsentratsiyasining ko‘payishi va tuproq muhitning nordonlanishi oziq moddalarining o‘zlashtirilish koeffitsientini sezilarli darajadi kamaytiradi.

V. O‘simliklardan qoladigan ildiz va ang‘iz qoldiqlari chiqim qoldiq qismining asosini tashkil etadi. Dukkakli-don va dukkakli ekinlar qoldiradigan ildiz va ang‘iz qoldiqlari ekinlarning oziqlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimini tuzish jarayonida bu albatta hisobga olinishi kerak. Donli va dukkakli-don ekinlarining ildiz va ang‘iz koldiqlari tarkibidagi uglerod va azot o‘rtasidagi nisbat (S:N) juda kichik bo‘lib, mazkur elementlarning go‘ngdagagi nisbatiga yaqinlashib boradi. Ildiz va ang‘iz qoldiqlarining minerallashish jarayoni ham ancha jadal kechadi. Shuningdek, ular tarkibidagi oziq moddalarining o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilish koeffitsienti ham go‘ngdagagi oziq moddalarining o‘zlashtirilish koeffitsientiga juda yaqin. Bu birinchi navbatda azotga tegishli bo‘lib, dukkakli ekinlardan qoladigan ildiz va ang‘iz qoldiqlari tarkibidagi azot birinchi, ikkinchi va uchinchi yillarida 20-25, 15-20 va 5-10 foiz o‘zlashtiriladi. Ma’lumotlarda keltirilishicha dukkakli va dukkakli-don ekinlarning har bir tonna ildiz va ang‘iz qoldiqlari hisobiga 10-15 kg azot tuproqka kelib tushadi.

#### Savollar

1. O‘simliklar tomonidan oziq moddalar o‘zlashtirilishining tanglik va eng ko‘p o‘zlashtirish davrlarini qanday tushunasiz?
2. O‘simliklarning mineral va mahalliy o‘g‘itlar tarkibidan oziq moddalarini o‘rtacha o‘zlashtirish koeffitsientini ayting?
3. Tuproq va o‘g‘itlar tarkibidagi oziq moddalarini o‘zlashtirish koeffitsienti qanday aniqlanadi?

### **3-MAVZU: TURLI OMILLARNING MINERAL VA MAHALLIY O‘G‘IT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI**

#### **Reja**

1. Iqlim sharoitlari va o‘g‘itlardan foydalanish

2. Tuproq xossalari va qo'llaniladigan o'g'itlar o'rtasidagi munosabat
3. Agrotexnika sharoitlarining o'g'itlar samaradorligiga ta'siri.
4. Mahalliy va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llashning ahamiyati

### **Adabiyotlar 2, 3, 4, 5, 11**

Tayanch iboralar: Iqlim, tuproq, agrotexnika, mineral o'g'it, organik o'g'it.

I. O'g'itlar turi, me'yori, muddati qo'llanish usulini tanlash va samaradorligiga iqlim sharoitlari katta ta'sir ko'rsatadi. Yog'in-sochin miqdori va havo harorati vegetatsiya davri davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Suv rejimi yaxshi hududlarda shuningdek, sug'oriladigan tumanlarda o'g'itlarning samaradorligi ancha yuqori bo'ladi va ular tuproqqa yuqori me'yorlarda kiritiladi. Nam etishmaganda o'g'itlashdan olinadigan qo'shimcha hosil miqdori kamayadi. Shu bilan birga erga o'g'it solinganda o'simlik tuproqdagi namdan ancha tejab va unumli foydalanadi, shuning uchun nam kamchil rayonlarda ham o'g'itlash o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini bir muncha yaxshilaydi. O'g'itlardan foydalanishda joriy yil bilan bir qatorda o'tgan yillardagi iqlim sharoitlarini ham hisobga olish lozim. Kuz faslida yog'in-sochin kam bo'lsa, azotli o'g'itlarning samaradorligi kamayadi va aksincha, fosforli o'g'itlarning samaradorligi oshadi. O'g'itlar, ayniqsa mahalliy o'g'itlar, tuproqdagi suv sarfini 10-20 foizga kamaytiradi. O'z navbatida sug'orish ham o'g'itlar samaradorligini oshiradi. O'suv davrining ilk bosqichlaridagi past harorat o'simliklarning azot va fosfor bilan me'yorida oziqlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xaddan tashqari yuqori haroratlarda ham o'simliklarning me'yorida oziqlanish jarayoni buziladi.

II. O'g'itlarning turi va shaklini tanlashda ularning me'yori va tuproqqa kiritish usullarini aniqlashda tuproqning xossalari, albatta, hisobga olish zarur. Tuproqlardagi umumiy zahira va undagi harakatchan oziq moddalar miqdori, ularning mexanik tarkibi, singdirish xususiyati, reaktsiyasi va buferligi ayniqsa katta ahamiyatga ega.

Bo'z tuproqlarda azotli va fosforli o'g'itlarning nisbati katta ahamiyatga ega. Kaliyli o'g'itlar faqat azotli hamda fosforli o'g'itlar fonidagina samarali bo'ladi. Bunday tuproqlar mo'tadil yoki ishqoriy reaktsiyaga ega, shuning uchun bu erlarda fiziologik jihatdan nordon azotli o'g'itlar bir muncha yaxshi samara beradi, qiyin eriydigan fosforli o'g'itlarni qo'llash esa maqsadga muvofiq kelmaydi. O'g'itdagি oziq moddalarining harakatchanligi, ularning singishi va tuproqda mustaxkamlanishi uchun tuproqning mexanik tarkibi muhim ahamiyatga ega. Engil tuproqlar faqat potentsial unumdorligining pastligi bilan emas, balki singdiruvchanlik va buferlik xususiyati pastligi bilan ham farq qiladi. O'g'it me'yori va shaklini, o'g'itlash muddati va usullarini aniqlashda bular hisobga olinishi kerak. O'g'itlarni tabakalashtirib to'g'ri qo'llanish

uchun tuproq reaktsiyasini va undagi oziq moddalarning harakatchan shakllarini aniqlash maqsadida tuproqda agrokimyoviy tekshirishlar olib borish katta ahamiyatga ega.

Unumdoorlik darajasi va tarkibidagi harakatchan oziq moddalarning miqdori jihatdan xo‘jalikdagi ayrim dalalar tuprogi ham bir-biridan katta farq qiladi. Yuqorida qayd etilganidek, o‘g‘itlash tizimini ishlab chiqishda almashlab ekish dalasi tuproqning oziq elementlar bilan ta’milanishini aniqlashda o‘rtacha kursatgichlardan foydalaniladi, harakatchan shakldagi oziq elementlar miqdori orasidagi tavofut esa har kaysi ishlanadigan uchastkalar bo‘yicha o‘g‘itlardan foydalanishning yillik rejasini tuzish vaqtida hisobga olinadi. Bunda tuproqning umumiylashganligi va dalaning o‘tmishdosh ekin davrida kay darajada o‘g‘itlanganligi ham juda muhimdir. Etarli darajada madaniylashgan va oldingi ekin yaxshilab o‘g‘itlangan erlarda mahalliy hamda mineral o‘g‘itlar bilan o‘g‘itlash me’yorini bir oz kamaytirish mumkin.

III. O‘g‘itlash tizimi almashlab ekish jumlasiga kiruvchi ekinlarni parvarishlashda bir-biri bilan yaqindan uzaro munosabatda bo‘lgan barcha kompleks agrotexnika koidalari asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Yuqori agrotexnika (tuproqni ishlashdan tortib, konditsion urug‘lik material tayyorlash, urug‘lik ekish, ekinlarni parvarish qilishga va boshqalargacha) o‘simliklarni tuproqdagi oziq elementlardan va erga solingan o‘g‘itlardan samarali foydalanishi uchun eng zarur sharoitdir. Belgilangan agrotexnika koidalariга rioya qilmaslik (erlarni sifatsiz yoki muddatidan utkazib ishlash, urug‘lik sifatini pastligi, ekinlarni o‘t bosib ketishi va hakazo) o‘g‘itlarning samaradorligini keskin pasaytiradi. Dehqonchilik madaniyati yuqori bo‘lgan joylarda o‘g‘itlarning o‘simliklarni oziqlanish sharoitini yaxshilashi, o‘z navbatida, agrotexnikaning boshqa tadbirlari samaradorligini ham oshiradi. Ravshanki ayrim ekinlarning agrotexnika xususiyatlari va ekish usullari ham o‘g‘itlash muddatiga hamda usuliga ta’sir qiladi.

IV. Mineral o‘g‘itlar va go‘ngni birgalikda qo‘llash ularni alohida-alohida qo‘llashdagiga qaraganda yaxshi samara beradi. Bu birinchidan, go‘ng ta’sirida tuproqdagi mikrobiologik jarayon faolligining kuchayishi va ikkinchidan, mineral o‘g‘itlar ta’sirida go‘ng va tuproqdagi organik moddalarning tezrok parchalanishi bilan bog‘liqdir. Mineral va mahalliy moddalar birgalikda qo‘llanilganda, fosforli o‘g‘itlarning tuproq bilan mustaxkam birikmalar hosil qilishi kamayadi. Go‘ng bilan tuproqka ma’lum miqdorda mikroelementlar kelib tushadi, qaysiki, mikroo‘g‘itlar qo‘llash muammosini osonlikcha hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Go‘ngning parchalanish jarayonida ajralib chiqadigan karbonat angidrid havo tarkibiga o‘tadi va o‘simliklarda fotosintez jarayonini kuchayshi

uchun xizmat qiladi. Mineral va mahalliy o‘g‘itlarni bиргаликда qo‘llashга ayniqsa, tuproqda oziq moddalari kontsentratsiyasining oshib ketishiga o‘ta sezgir, lekin butun o‘suv davri davomida ularni yetarli miqdorda bo‘lishini talab qiladigan bodring, piyoz, makkajo‘xori kabi ekinlar talabchandir.

Go‘ng tuproqning asosiy komponentlaridan bo‘lmish gumus miqdoriga ijobiy ta’sir kursatadi Tuproqda gumus hosil bo‘lishi almashlab ekish turi, kiritiladigan mineral va mahalliy o‘g‘itlarning miqdoriga bog‘liqdir. Go‘ng fonida tuproqqa qo‘s Shimcha ravishda azotli o‘g‘itlar kiritish lozim, chunki o‘simliklar birinchi yilda go‘ng tarkibidagi azotni fosfor va kaliyga qaraganda juda kam o‘zlashtiradi. Xo‘jalikda mahalliy o‘g‘itlar miqdori cheklangan bo‘lsa, bunday hollarda o‘g‘itlash tizimi go‘ngsiz, ya’ni ko‘prok mineral o‘g‘itlar bilan o‘g‘itlashga asoslangani ma’kul. Bunday hollarda organik moddalar zahirasi o‘rnini to‘ldirish maqsadida ko‘kat o‘g‘it sifatida oraliq ekinlar ekib, keyin ko‘k poyasi bilan haydab tuproqqa aralashtirib yuborish maqsadga muvofiqdir.

#### Savollar

1. Mineral va mahalliy o‘g‘itlar samaradorligiga tuproq iqlim sharoiti qanday ta’sir etadi?
2. Almashlab ekishda mahalliy va mineral o‘g‘itlarni bирgalikda qo‘llashning ustunlik tomoni nimada?

### 4-MAVZU: O‘G‘IT QO‘LLASHNING USULLARI, MUDDATLARI, TIPLARI VA TEXNIKASI

#### Reja

1. O‘g‘it qo‘llashning usullari
2. O‘g‘it qo‘llashning muddatlari
3. O‘g‘it qo‘llashning texnikasi

#### Adabiyotlar 2, 3, 4, 6

Tayanch iboralar :asosiy o‘g‘itlash, qatorlab o‘g‘itlash, qo‘s Shimcha oziqlantirish, o‘g‘itlash muddati.

#### I. O‘g‘it qo‘llash usullari

- asosiy o‘g‘itlash (*ekishgacha, ekish bilan*)
- qatorlab o‘g‘itlash (*ekish bilan birga*)
- qo‘s Shimcha oziqlantirish (*ekinlar o‘suv davrida*)

Asosiy o‘g‘itlash. O‘g‘itlashning bu usuli ekinlarni butun o‘suv davrida, ayniqsa oziq moddalariga talab qo‘yiladigan, jadal rivojlanish davrida, oziq elementlari bilan ta’milish uchun qo‘llaniladi. Asosiy o‘g‘itlashda rejalshtirilgan o‘g‘it meyorining asosiy qismi tuproqqa kiritiladi.

O‘g‘itni ekish bilan birga qo‘llash. Ekish bilan birga o‘g‘it qo‘llashda maxsus o‘g‘itlagich moslamalaridan foydalaniladi. O‘g‘itlarni bu usulda qo‘llashdan kutiladigan asosiy maqsad nihollarni rivojlanishning ilk 6-15 kunlarida oziq moddalar bilan yetarlicha ta‘minlash bo‘lib, asosan oson eriydigan mineral o‘g‘itlardan foydalaniladi. Ekish bilan birga kiritiladigan o‘g‘itlar (o‘g‘itning «start dozasi») o‘simgiliklarning ildiz tizimini jadal rivojlanishiga hamda unga tuproq va o‘g‘it tarkibidagi oziq moddalari yutilishini tezlashtirilishga yordam beradi.

Ekinlarni qo‘shimcha oziqlantirish. Ma’lumki sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida, shuningdek nam iqlimli regionlarda azotli o‘g‘itlarni, ayniqsa nitratli va ammiakli-nitratli azotli o‘g‘itlarni, asosiy o‘g‘itlash vaqtida qo‘llab bo‘lmaydi. Azotli o‘g‘itlarning 70-80 foizi, kaliyning yarmi va fosforning kamroq qismi tuproqqa qo‘shimcha oziqlantirish sifatida kiritiladi.

II. Asosiy o‘g‘itlashning eng maqbul muddatlarini belgilashda tuproqning mexanikaviy tarkibi, namlanish sharoitlari va o‘g‘itlarning xususiyatlari hisobga olinadi. Oson eruvchan va serharakat bo‘lganligi sababli nitratli va ammiakli-nitratli azotli o‘g‘itlar faqat tuproqni bahorda qayta haydash davrida yoki kultivator-o‘g‘itlagich yordamida kiritiladi. Bahorgi nam va iliq davrda ammiak shakldagi azot juda qisqa muddat ichida nitrat shakliga o‘tadi va atmosfera yog‘in-sochinlari yoki sug‘orma suvlar ta’sirida osonlik bilan pastki qatlamlarga yuviladi.

Fosforli o‘g‘itlarni iloji boricha chuqurroq qo‘llash uchun ular odatda kuzgi shudgorlash yoki bahorgi qayta haydash oldidan sochib chiqiladi.

Tarkibida xlor tutgan kaliyli o‘g‘itlar yillik me’yorining 50% yoki undan ham ko‘prog‘i kuzgi shudgor ostiga kiritilsa, kuzdagagi yog‘in-sochinlar ta’sirida xloring o‘simgiliklarga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ancha kamayadi.

Go‘ngni ham kuzda, ayrim hollarda bahorgi ishlov paytida ishlatish yaxshi samara beradi. Go‘ngni ko‘mish chuqurligi bevosita tuproqlarning namligi bilan bog‘liq bo‘lib, og‘ir mexanik tarkibli tuproqlarda go‘ngni yuzaroq kiritish yaxshi samara beradi.

Urug‘ni ekish bilan birga asosan azotli va fosforli o‘g‘itlar kiritiladi. Kaliyli o‘g‘itlar o‘g‘itlashning bu usulida qo‘llanilmaydi, chunki ularning tarkibidagi xlor o‘simgiliklarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kuz yoki erta bahorda tuproqqa ko‘p miqdorda o‘g‘it kiritilgan bo‘lsa ekish bilan birga beriladigan o‘g‘itlashning samarasini ancha pasayadi.

qo‘shimcha oziqlantirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:  
- kuzgi galla ekinlari va ko‘p yillik o‘tlarni azot bilan oziqlantirishda;

- engil mexanikaviy tarkibli tuproqlarda, shuningdek, sug‘oriladigan sharoitlarda yetishtiriladigan chopiqtalab ekinlarni azot va kaliy bilan ta’minlashda;
- tuproqdagi tuzlar kontsentratsiyasining oshib ketishiga o‘ta sezgir ekinlardan yuqori hosil etishtirish rejalarashtirilganda;
- mevali daraxtlar va butalarni oziqlantirishda;
- ayrim sabablarga ko‘ra yillik o‘g‘it me’yorining tegishli qismi asosiy o‘g‘itlash davrida kiritilmaganda

III. O‘g‘itlarni tuproqqa kiritish chuqurligi asosan yerni ishslash texnikasi bilan bog‘liq. O‘g‘itlarni tuproqning chuqur qatlamlari bilan aralashtirishda eng yuqori samaraga chimkirkarli plug yordamida erishish mumkin.

Tuproqni ishslash chuqurligi bir xil bo‘lishga qaramasdan, prujina kesgichli kultivator o‘qsimon kesgichli kultivatorga nisbatan o‘g‘itni ancha chuqur qatlamlarga tushirib beradi. Tuproqni ishslash chuqurligi 10 sm bo‘lganda, o‘g‘itning 80% ziyodrog‘i tuproqning yuza, quruq qatlamlarida qolib ketadi, qaysiki, kaliy va fosforli o‘g‘itlarning fiksatsiyalanishini kuchaytirib yuboradi. O‘g‘itlarni tuproq xossalari va ekinlar ildiz tizimining tarqalishini hisobga olgan holda turli chuqurlikka tushushiga erishishi muhim agronomlik tadbirdir. Tuproqning ancha chuqur nam qatlamiga tushgan o‘g‘itlar oson eriydi va o‘simpliklar tomonidan butun o‘suv davrida yaxshi o‘zlashtiradi. Mahalliy va mineral o‘g‘itlarni erga solish muddati va usuliga qarab quyidagi mashinalarni ishlatish mumkin. Agar mahalliy va mineral o‘g‘itlarni kuzgi shudgorlash oldidan solish lozim bo‘lsa, RPTU-2M, RPTM-2A, RTO-4 markali organik o‘g‘it soluvchilar va RTT-4,2 o‘g‘it seyalkasi RUM-3 hamda 1-RMG-4 markali mineral o‘g‘it sepuvchi mashinalardan foydalanish mumkin.

Mineral o‘g‘itni ekishdan oldin solish uchun ChKU-4 markali o‘g‘itlovchi chizel qo‘llaniladi. Sho‘r yuvish va yaxob suvi berish lozim bo‘lgan erlarda o‘g‘it shunday solinadi. Chunki kuzda o‘g‘it kiritilsa, sho‘r yuvish va yaxob suvlari ta’sirida o‘g‘it yuvilib ketishi mumkin.

Agar chigit ekish bilan birga o‘g‘it solish lozim bo‘lsa, u holda traktor chigit seyalka va o‘g‘itlovchi apparatdan iborat ekish agregati qo‘llaniladi.

#### Savollar

1. Qishloq xo‘jalik ekinlarining xususiyatlarini hamda tuproq-iqlim sharoitlariga muvofiq o‘g‘itlar qo‘llanish usullarining ahamiyatini ta’riflab bering?
2. Asosiy o‘g‘itlashning o‘simpliklar oziqlanishidagi ahamiyati nimadan iborat?

## **5-MAVZU: QO'LLANILADIGAN MINERAL O'G'IT ME'YORLARINI BELGILASH**

### **Reja**

1. O'g'it me'yori va dozasi haqida tushuncha
2. Qo'llaniladigan mineral o'g'it me'yorlarini belgilash
3. Mineral o'g'it me'yorlarini hisoblash yuli bilan aniqlash
4. Mineral o'g'it me'yorlarini aniqlashning kompleks usuli

Adabiyotlar 2, 3, 4, 6, 7

Tayanch iboralar: O'g'it me'yori, dozasi, rejalashtirilgan hosil, tuproq xossasi, o'tmishdosh ekin.

I. Ko'p hollarda o'g'it me'yori (normasi) va o'g'it dozasi tushunchalari almashtirib yuboriladi. O'g'it me'yori - ekinga butun o'suv davomida beriladigan o'g'it me'yorining ko'rsatkichi bo'lib, bir hektar maydonga qo'llaniladigan sof moddalarning *kg* (ba'zi hollarda *t*) birlikda ifodlanishidir.

O'g'it dozasi deganda esa, muayyan muddatda (masalan ekish oldidan 3-4 chin barg davri va h.k) bir marta beriladigan o'g'it miqdori nazarda tutiladi.

II. Respublikamizda ekinlardan mo'l va sifatli hosil olish uchun qishloq xo'jaligiga ko'p miqdorda mineral va mahalliy o'g'itlar etkazib berilmokda. O'g'it me'yorlarini to'g'ri belgilashda tuproq o'simlik, o'g'it, iqlim va agrotexnikaviy tadbirlar o'rtasidagi bog'liqlik hisobga olinishi lozim. Har turdag'i ekin uchun o'g'it me'yorni belgilashda mahalliy, qishloq xo'jalik va ilmiy muassasalarning tavsiyalaridan yoki ma'lumotnoma adabiyotlarida ko'rsatilgan miqdorlardan foydalanish mumkin. Tavsiya etiladigan o'g'it me'yorlariga muayyan tuproq, xo'jalik sharoitlarida hamda rejalashtirilgan hosil asosida tegishli aniqlik va tuzatishlar kiritiladi. O'g'it me'yorni rejalashda xo'jaliklarning mineral o'g'itlarni sotib olishga bo'lgan moliyaviy ahvoli hamda to'planadigan mahalliy o'g'itlar miqdoriga ham alohida e'tibor beriladi. Agrokimyoda o'g'itlashning maqbul, oqilona va eng yuqori me'yorlari farqlanadi.

*O'g'itlashning maqbul me'yori* deb har hektar maydondan tuproq unumdorligini saqlagan yoki oshirib borgan holda mo'l va sifatli hosil hamda eng yuqori darajada sof daromad olish uchun kerak bo'ladigan o'g'it miqdoriga aytildi.

*O'g'itlashning oqilona me'yori* - ishlab chiqarishning muayyan tashkiliy-xo'jalik sharoitida bir hektar maydondan imkon qadar yuqori hosil olishni va shu bilan bir qatorda ma'lum miqdordagi iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan o'g'it me'yordir.

*O‘g‘itlashninsh eng yuqori me’yori deganda, talab darajasidagi sifatga ega bo‘lgan, maksimal miqdordagi hosil etishtirish uchun qo‘llaniladigan o‘g‘it me’yori tushuniladi.*

III. Hozirgi davrda o‘g‘it me’yorini belgilashning bir necha usuli mavjud. Rejalahtirilgan hosil uchun o‘g‘it me’yorini hisoblashlar yo‘li bilan ham aniqlash mumkin. Mazkur usul asosida hosilning shakllanishi uchun sarflanadigan oziq elementlari hamda tuproq va o‘g‘it tarkibidan o‘zlashtiriladigan oziq elementlari miqdorini taqqoslash yotadi.

Hosil birligi bilan tuproqdan olib ketiladigan oziq moddalarning miqdori doimiy bo‘lmasdan etishtirish sharoitlariga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Shuning uchun hisoblash ishlarida olib chiqib ketiladigan oziq elementlari miqdorini ko‘rsatish uchun xo‘jalikda yoki unga yaqin ilmiy muassasalarda olingan ma’lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘g‘it me’yorini belgilashda albatta o‘g‘itsiz (qiyyosiy) sharoitda shakllanadigan hosil miqdori va shu davrgacha qo‘llanib kelinayotgan o‘rtacha o‘g‘it me’yori ma’lum bo‘lishi kerak.

IV. Mineral o‘g‘it me’yorlarini aniqlashning kompleks usuli asosida rejalahtirilgan hosil, tuproqning oziq elementlari bilan ta’minlanganligi, bonitirovka balli, o‘g‘itlar ustida o‘tkazilgan tajribalarning natijalari, o‘tmishdosh ekin va tuproqning bir qator xossalari yotadi. Bunda quyidagi tartibda ish yuritiladi:

1. Hosildorlik belgilanadi.

$$K \ q = \frac{X_r Q B_{bp}}{B_{o'r}}$$

bu erda:

K - muayyan sug‘oriladigan paykal uchun hisoblangan hosil s/ga

Í - rejalahtirilgan hosil, s/ga

B<sub>bp</sub> - sug‘oriladigan paykalning bonitirovka balli

B<sub>o'r</sub> - xo‘jalik uchun chikarilgan o‘rtacha bonitirovka balli

O‘rtacha bonitirovka balli (Bo‘r) quyidagi hisoblanadi:

$$B_{o'r} \ q = \frac{B_{bp} \bullet S_1 Q B_{bp} \bullet S_2 Q \dots B_{bp} \bullet S_n}{S_1 Q S_2 Q \dots Q S_n}$$

bu erda:

S<sub>1</sub>, S<sub>2</sub>, S<sub>n</sub> - sug‘oriladigan paykallar yuzasi, ga

2. Tuproq uchun o‘rtacha koeffitsient (Kt) aniqlanadi

$$K_t \ q = K_{tt} \bullet K_m \bullet K_{shx} \bullet K_{o'm} \bullet K_e \bullet K_{tek} \bullet K_{sh} \bullet K_s$$

bu erda:

K<sub>tt</sub> - tuproq tipi

Km - mexanikaviy tartibi  
 Kshx - shagalli qatlam chuqurligi  
 Ko'm - o'zlashtirish muddati  
 Ke - eroziya darajasi  
 Ktek - tekislanganligi  
 Ksh - sho'rlanishi  
 Ks - skeletliligi  
 Mazkur koeffitsientlarning kattaliklari adabiyotlar va tavsiyanomalarda o'z ifodasini topgan.

3. Topilgan ma'lumotlar quyidagi formo'laga qo'yiladi:

$$M_N \neq K \bullet Ch_N \bullet K_t \bullet K_{e-e} \bullet K_i$$

bu erda:

$M_N$  - azotning hisoblab topiladigan me'yori, kg/ga  
 K - rejalashtirilgan hosil, s/ga  
 $Ch_N$  - 1ts hosil uchun sarflanadigan azot miqdori kg/ga  
 Kt - tuproq uchun umumlashtirilgan koeffitsient  
 Ko'e-o'tmishdosh ekin uchun koeffitsient  
 Ki - ishlab chiqarish sharoiti uchun koeffitsient (1.20)  
 Azot me'yori asosida fosfor va kaliyning me'yorlari osonlik bilan hisoblab topiladi.

N:R:K q 1:1,5:1 - bedapoya buzilgach 1 yilda; 1:1:1 - ikkinchi yilda;  
1:0,7:0,5 - 3 va keyingi yillarda

#### Cavollar

- Dala tajribalari va agrokimyoviy tekshirishlarning natijalaridan foydalangan holda o'g'it me'yori qanday belgilanadi?
- Mineral o'g'it me'yorlarini aniqlashning kompleks usulining asosini nima tashkil etadi?

## 6-MAVZU: DONLI EKLARNI O'G'ITLASH

### Reja

- Kuzgi bugdoy va javdarni o'g'itlash
- Bahorgi don ekinlarni o'g'itlash
- Makkajo'xorini o'g'itlash
- Dukkakli don ekinlarni o'g'itlash

#### Adabiyotlar 1, 2, 3, 4, 8

Tayanch iboralar: Mineral va organik o'g'itlar, me'yor, qo'llash muddatlari.

I. Kuzgi don ekinlari barqaror mo'l hosil beradi va o'g'itlarga nihoyatda talabchanligi bilan harakterlanadi. Kuzgi bug'doy kuzgi javdarga qaraganda mo'tadil reaksiya muhitiga va tuproq unumdoorligiga bir muncha talabchan. Kuzgi bugdoy va kuzgi javdar tovar mahsulot birligi

hisobiga erdan chiqib ketadigan oziq-elementlar jihatdan bir-biriga yaqin turadi. Lekin bug'doyning qiyin eriydigan birikmalardan oziq elementlarini o'zlashtirib olish xususiyati javdarnikiga qaraganda kamroq, shuningdek, vaqtinchalik bo'ladigan past harorat va qurg'oqchilikka ham unchalik bardosh bera olmaydi.

Kuzgi don ekinlari tuplanish davrigacha oziq moddalarni uncha ko'p talab qilmaydi, lekin ularning, ayniqsa fosforning tanqisligiga o'ta sezgir. Urug' unib chiqqandan toki nihollar ishlovga kirguncha eng ma'suliyatli davr hisoblanib, bu davrda tuproqda yetarli miqdorda oziq moddalari bo'lishini taqozo qiladi.

Kuzgi ekinlar yaxshi o'sib-rivojlanishi, kishlashi uchun kuzda fosforli kaliyli o'g'itlarni ko'proq, azotli o'g'itlarni kamroq qo'llash kerak. Ayni hol o'simliklarning yaxshi tuplanishiga, baquvvat ildiz otilishiga, tanasida ko'p miqdorda qand moddalari to'planishiga va albatta sovuqqa chidamlilagini oshishiga yordam beradi. Kuzgi don ekinlariga o'g'itlash me'yorini belgilashda ulardan olinadigan hosil miqdori, o'tmishdosh ekin va tuproq-iqlim sharoitlari hisobga olinadi. Madaniylashtirilgan, oldingi ekin yaxshi o'g'itlangan va ko'p yillik o'tlardan bo'shagan dalalarda o'stiriladigan kuzgi ekinlarga fosfor kaliyli o'g'itlarning hammasi azotli o'g'itlarning ozginasi kuzda solinadi. Azotning asosiy qismi bahorda qo'shimcha oziqlantirishda beriladi. Agar kuzgi ekinlarga go'ng solinadigan bo'lsa, kuzda azotli va kaliyli o'g'itlar berilmasa ham bo'ladi (mexanik tarkibi engil kamunum erlar bundan mustasno).

II. Bahorgi don ekinlari ichida bahorgi bug'doy va arpa nisbatan unumdor, muhiti mo'ta'dil yoki mo'ta'tilga yaqin tuproqlarda yaxshi o'sib rivojlanadi. Bu ekinlarning hosildorligi issiqlik rejimi uncha yaxshi bo'limgan og'ir mexanikaviy tarkibli tuproqlarda va shuningdek, engil mexanikaviy tarkibli tuproqlarda keskin kamayadi. Sulining ildiz tizimi yaxshi rivojlangan bo'lib, bahori bug'doy va arpanikiga nisbatan tuproqning ancha chuqur qatlamlariga tushib boradi. U tuproqdagi qiyin eriydigan birikmalarni ham nisbatan ko'proq o'zlashtirish qobiliyatiga ega.

Bir t don (shunga mos miqdorda somon) bilan bahorgi don ekinlari tuproqdan quyidigi miqdorda oziq moddalarni olib chiqib ketadi.

*Bahorgi bug'doy - 38 kg azot, 12 kg fosfor, 25 kg kaliy*

*Arpa - 27 kg azot, 11 kg fosfor, 24 kg kaliy*

*Suli - 30 kg azot, 13 kg fosfor, 29 kg kaliy*

Bahorgi don ekinlari uchun beda, dukkakli don ekinlari va o'g'itlangan kuzgi donli ekinlar yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Bahorgi donli ekinlar uchun birinchi navbatdagi oziq elementi azot hisoblanadi. Ikkinci o'rinda fosfor turadi. Engil mexanikaivy tarkibli tuproqlarda kaliyning ahamityai katta. Barcha tuproq iqlim mintaqalarida bahorgi don

ekinlari ekish bilan gektariga 10 kg fosforni superfosfat yoki ammofos shaklida qo'llash yaxshi natija beradi.

Fosforli-kaliyli o'g'itlarning asosiy qismi kuzgi shudgor ostiga berilgani ma'qul.

Gektaridan 3,5-4,0 t hosil olish uchun bo'z tuproqlar mintaqasida 100-120 azot, 80-90 kg fosfor, 50-60 kg kaliy qo'llaniladi.

III. Makkajo'xori don va ko'k poya uchun ekiladi. Unga kuzgi don ekinlar, dukkakli-don ekinlar va uning o'zi yaxshi o'tmishtdosh hisoblanadi. Makkajo'xori tuproqning oziq rejimiga o'ta talabchan bo'lib, g'ovak va mexanikaviy tarkibi og'ir bulmagan tuproqlarni xush ko'radi. Tuproq muhiti mo'tadil yoki mo'tadilga yaqin bo'lganda yaxshi o'sib rivojlanadi. Ildiz tizimining asosiy qismi tuproqning haydalma qatlamida tarqaladi. Oziq moddalarni butun o'suv davrida talab qiladi. Makkajo'xori 10 ts don va shunga muvofiq keladigan oraliq mahsulotlar bilan tuproqdan 34 kg N 12 kg R<sub>2</sub>O<sub>5</sub> va 37 kg K<sub>2</sub>O 10 ts ko'k poya bilan esa 25 kg azot, 12 kg fosfor va 45 kg kaliyni olib chiqib ketadi. Makkajo'xori mahalliy o'g'itlarga juda talabchan. Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitlarida namlik me'yorida bo'lsa, azotli o'g'itlarning asosiy qismi tuproqlarni ekishga hozirlash paytida beriladi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar esa kuzgi shudgor ostiga kiritiladi. Tuproqda kaliy etishmagan hollarda makkajo'xori yotib koladi.

IV. Dukkakli-don ekinlar boshqa guruh ekinlardan farq qilib, atmosfera azotini fiksatsiyalash va tuproqdagi qiyin o'zlashtiriladigan fosforli birikmalarni o'zlashtirish qobiliyatiga ega. Dukkakli-don ekinlar bir metr va undan ham chuqurroq ketadigan o'q ildizga ega.

Dukkakli-don ekinlaridan no'xat, o'ris no'xat vika, soya, mosh, loviya, lyupin va boshqalar aholi va chorva mollari uchun zarur bo'lgan oqsil muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega. Ular doni va poyasi (paholi) tarkibida oqsil miqdorining ko'pligi bilan boshqa ekinlardan farq qiladi. Dukkakli-don ekinlar barcha hayotiy sharoitlar me'yorida bo'lganda, tarkibidagi yalpi azotning taxminan <sup>2</sup>G<sub>3</sub> qismini atmosferadan va <sup>1</sup>G<sub>3</sub> qismini tuproqdan o'zlashtiradi. Dukkanli-don ekinlar atmosfera azotini fiksatsiyalash qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli ular ko'proq fosforli va kaliyli o'g'itlarga kuchli etiyoj seziladi. Tuproq muhiti, harakatchan fosfor va kaliy bilan ta'minlanish darajasi, namligi va harorati, mikroelementlar (birinchi navbatda molibden) ning miqdori tugunak bakteriyalar faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillardan ayrimlarini me'yordan chetga chiqishi atmosferadan fiksatsiyalanadigan azot miqdorini kamaytirib yuboradi. Barcha omillar me'yorida bo'lib tuproq unumdorligi yuqori bo'lgan tuproqlardagina azotli o'g'itlarni kiritishga hojat qolmaydi.

Dukkakli-don ekinlari eqiladigan paykallarga kuzgi shudgor oldidan sof modda hisobida 45-60 kg fosfor va kaliy qo'llash tavsiya etiladi. Ekishga qadar ozroq me'yorda (20-30 kg) azotli o'g'it qo'llash o'simliklarni rivojlanishning dastlabki davrlarida, ya'ni hali ildizda tunganak bakteriyalar hosil bo'lмагan paytda, azot bilan ta'minlanishini yaxshilaydi. Azotli o'g'itlar ko'p miqdorda ishlatilganda dukkakli-don ekinlarning o'sish organlari «g'ovlab» hosilning pishib etilishi kechikadi. Ularni ekish bilan bir vaqtida ozroq miqdorda (gektariga 10kg R<sub>2</sub>O<sub>5</sub> hisobida) fosforli o'g'it berish o'simliklarni vegetatsiyaning dastlabki davrilarida fosfor bilan ta'minlaydi.

### Savollar

1. Lalmikor erlarda kuzi va bahorgi bug'doyni o'g'itlash
2. Arpa, tariq va sulini o'g'itlash
3. qo'qon oq jo'xori (sorgo) ni o'g'itlash
4. Donli ekinlar uchun qanday asosiy azotli fosforli va kaliyli o'g'itlarni bilasiz?
5. Dukkakli ekinlarni tuproq unumdorligida qanday ahamiyatga ega?.

## 7-MAVZU: KARTOSHKА VA QANDLAVLAGINI O'G'ITLASH TIZIMI

### Reja:

1. Kartoshka ekinini ahamiyati va kimyoviy tarkibi
2. Kartoshkani kelib chiqishi va tarqalishi
3. Kartoshkani agrotexnikasi va almashlab ekish
4. Kartoshkani mineral va mahalliy o'g'itlar bilan o'g'itlash
5. Qandlavlagini o'g'itlashning ahamiyati
6. Qandlavlagini oziq moddalarni olib chiqib ketishi
7. Qandlavlagini mahalliy va mineral o'g'itlar bilan o'g'itlash

Adabiyotlar 2, 3, 4, 6, 10

Tayanch iboralar: Mineral va organik o'g'itlar, me'yor, qo'llash muddatlari, kimyoviy tarkibi.

1. Kartoshka - muhim oziq-ovqat, ozuqabop va texnika ekini. Kartoshkaning oziq-ovqatlik qimmati uning tarkibida uglevodlar, asosan kraxmalning ko'pligi, oqsillarning yaxshi hazm bo'lishi, vitamin S, mineral tuzlar, *Fe*, *Sa*, *Mg* va boshqa moddalarga boyligi bilan belgilanadi.

Kartoshka tuganagida o‘rta hisobda 75-80% suv, 13-20% kraxmal, 08-1,5% shakar, 2% cha xom protein, 0,2-0,3% yog‘lar, 0,8% klechatka va 0,8-1% kul moddalar bo‘ladi.

Kartoshka vitamin *S* ning muhim manbai bo‘lib, xom tugunaklar tarkibidagi miqdori 40 mg ga etadi. Yosh, etilmagan tuganaklar vitamin *S* ga boydir. Tuganaklar pishib, etilib borgan sari va qishda saqlash vaqtida vitamin *S* ning miqdori kamaya boradi. Kartoshkada bundan tashqari vitamin *V<sub>2</sub>* va *RR*-lar bor.

2. Kartoshkaning vatani Janubiy Amerika hisoblanadi. And tog‘i rayonlarida va Tinch okean sohillarida bu ekinning ko‘pgina yovvoyi va yarim yovvoyi turlari hozir ham o‘sadi. XVI asrda Chili kartoshkasi Ispaniyaga, so‘ngra Italiya, Frantsiya, Gollandiyaga keltirilgan. XVII asr oxirlarida Pyotr-I davrida Rossiyaga ham kelib qolgan. XIX asr o‘rtalarida Markaziy Osiyoga ham birinchi marta kartoshka olib kelindi.

Kartoshkani nimrang yoki qayroqi-tezpishar, Kur’er-o‘rtacha, Berlixigen-o‘rtapishar, Lorx-o‘rtapishar, Voltman-qaychibarg-kechpishar, Obidov-2 kechpishar va bir qancha navlari bor.

3. Markaziy Osiyoda kartoshka o‘simligi organik moddalarga boy, tog‘li va tog‘oldi tumanlari, shuningdek, daryoning quyi terrasalaridagi gidromorf tuproqli erlarda yaxshi o‘sadi.

O‘zbekistonda tajriba tarikasida o‘tloq va ekinzorlarga aylantirilgan o‘tloqli botqoq erlarga kartoshka ekilganda yuqori hosil olingan. Masalan, 1) tipik bo‘z tuproqda Lorx navi 211 s/ga Epikur navi 111 s/ga, 2) to‘q tusli o‘tloqi tuproqda Lorx-226 s/ga, Epikur-176 s/ga hosil bergen.

Markaziy Osiyoda kartoshka odatda sabzavot yoki sabzavot em-xashak almashlab ekish dalalariga o‘stiriladi. Sabzavot almashlab ekishda karam, bodring, poliz ekinlari va ildizmevalar, piyoz hamda dukkakli-don ekinlari kartoshkadan oldin eiladigan eng yaxshi ekin hisoblanadi. Kartoshka arning nihoyatda sifatli ishlanishiga talabchan. Erni ishslash odatda chuqur (30-35 sm) kuzgi shudgorlashdan boshlanadi.

4. Kartoshka o‘simligi erdan juda ko‘p miqdorda oziqa moddalarni olib ketadi. Shuning uchun kartoshka eiladigan erlar albatta o‘g‘itlanishi zarur. Kartoshka ekini 100 s/ga hosiliga nisbatan 50-70 kg *N*, 15-20 kg *R<sub>2</sub>O<sub>5</sub>* va 60-80 kg *K<sub>2</sub>O* ni olib chiqib ketadi.

Kartoshkaga azotli o‘g‘itlarni katta me’yorda solinsa, hosildorlik oshadi. Shu bilan birga kartoshka poyasining o‘sib ketishiga sabab bo‘ladi va tuganaklarning etilishini kechikadi. Azotli o‘g‘itlarning haddan tashqari ko‘p berilishi tuganaklar tarkibidagi kraxmal miqdorini kamaytiradi, kartoshkaning saqlanishi va urug‘lik sifatini yomonlashadi va aynigan, yorilgan tuganaklar salmog‘ining ko‘payib ketishiga sabab bo‘ladi.

Fosfor azotning aksicha, kartoshka poyasining o'sishiga emas balki ildiz tizimining rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi, tuproqni yumshatadi va tugunaklarning tez etilishiga hamda tarkibida ko'proq kraxmal toplashiga yordam beradi.

Erga solinadigan fosfor miqdori, kg/ga	0	60	90	120
Tugunakdagi kraxmal miqdori, %	14,7	16,4	17,6	18,9

Kaliy o'simlikning azot va fosforni yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi. Tuproqda kaliy etishmasa, o'simlikning ildiz tizimi yoyilib rivojlanmaydi, barglarida xlorofil kamayadi, ekin kasallanadi, qurg'oqchilikka va past haroratga chidamliligi pasayadi. Kaliyli o'g'itlar tarkibida xlorning ko'p bo'lishi tugunaklardagi kraxmal miqdorining kamayishiga, uning urug'lik sifatining yomonlashishiga sabab bo'ladi. Kartoshkaga kaliyli o'g'itlar ichida kaliy sulfat eng yaxshi o'g'it hisoblanadi.

Markaziy Osiyo tuproqlarida kartoshka o'simligi birinchi navbatda azot va fosforga katta ehtiyoj sezadi. O'zbekiston sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tekshirish institutining o'tloqi tuproqli erlarda har xil mineral o'g'itlar solib (sof holda 60kg/ga) o'tkazilgan tajribalari quyidagicha natijani bergen:

O'g'it	O'g'itlanmag anda	RK	NK	NP	NRK
hosili s/ga	154	166	180	189	193

O'tloqi shuningdek bo'z tuproqlarda ham kartoshkaga azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlarning samaradorligi yuqoridir. O'g'itlar alohida ishlatilganda kam hosil olinadi.

Azotli o'g'itlarni erta bahorda erni haydash yoki boronalashda va keyinchalik o'suv davrida shonalash va meva tugish oldidan solish yaxshi natija beradi.

Fosforli o'g'itlar go'ng bilan aralashtirib (gektariga 200-300 kg superfosfat) solinsa yaxshi natija beradi. Fosforli o'g'itlarning asosiy qismi kuzgi shudgorda va qolganini ikkiga bo'lib, ekishdan oldin va meva tugish oldidan berladi.

Kaliyli o'g'itlarning yillik me'yorini teng ikkiga bo'lib, bir qismini kuzgi shudgorda va qolganini o'simlik shonalash davrida berish kerak bo'ladi.

## **Kartoshka eqiladigan erlarga mahalliy va mineral o‘g‘itlar solishning o‘rtacha me’yorlari, s/ga**

Tuproqlar	ammiakli selitra	super fosfat	kaliy xlor
1. Bo‘z va och tusli o‘tloqi tuproqlarga go‘ng 30-40 t/ga	2-3	4-5	0,3-0,8
2. Shuningdek bedapoyadan bo‘shagan erlarga go‘ng 15-20 t/ga	10-20	5-6	1,1-1,2
3. Koramtir o‘tloqi tuproqlarga go‘ng 10-25 t/ga	1,5-2,0	5-6	1,2-1,4
4. Shuningdek bedapoyadan bo‘shagan erlarga go‘ng 8-10 t/ga	1,3-1,8	7-8	1,4-1,5

### **Qandlavlagini o‘g‘itlash**

5. qandlavlagi Respublikamiz mustaqil bo‘lmasdan oldin Rossiya, Ukraina va Moldova respublikalarida keng ravishda ekilar edi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning aksariyat viloyatlarida bu ekinga qiziqish kuchaydi, chunki Xorazm viloyatida qand zavodi qurilib shakar ishlab chiqara boshladи.

qandlavlagi tarkibida o‘rtacha 17-20 % qand bor. Bundan tashqari bir qancha aminokilotalar, va vitaminlar ham mavjud.

6. qandlavlagi boshqa texnik ekinlar qatori juda ko‘p oziq moddalar iste’mol qiladi. Tuproqdan oziq moddalarni olib chiqib ketishiga ko‘ra dala ekinlari ichida qandlavlagi oldingi o‘rinlardan birini oladi. Gektaridan 400 s/ga hosil etishtirilganda lavlagi 180 kg N, 60 kg R<sub>2</sub>O<sub>5</sub> va 250 kg K<sub>2</sub>O o‘zlashtiradi. Bu miqdor tuproq iqlim sharoitiga va hosil strukturasiga qarab keskin darajada o‘zgaradi.

qandlavlagi vegetatsiya davrining oxirigacha, deyarli hosil yigib olguncha oziq elementlarni talab qiladi.

qandlavlagi dastlabki o‘suv davrida oziq moddalarni (N, R<sub>2</sub>O<sub>5</sub> va K<sub>2</sub>O) kamroq o‘zlashtiradi, keyinchalik ularga talabchanlik birdaniga ortadi iyul-avgust oylariga kelib maksimum darajaga etadi.

7. qandlavlagi eqiladigan erlarni mahalliy va mineral o‘g‘itlar bilan o‘g‘itlansa, butun vegetatsiya davrida oziqlanish sharoiti yaxshi bo‘ladi. qandlavlagi qishloq xo‘jalik ekinlari orasida go‘ng va mineral o‘g‘itlarni birgalikda qo‘sib berilishiga eng talabchan ekin. Go‘ng va fosfor-kaliyli o‘g‘itlarni asosiy qismini kuzgi shudgorda berish kerak bo‘ladi, qolgan qismini o‘suv davrida, shonalashda beriladi.

qandlavlagi uchun natriyli selitra, kaliy tuzi va superfosfat yaxshi samara beradi. qandlavlagi ekishdan 50-300 s/ga hosil uchun gektarida 20-30 t/ga go‘ng, 120-150 kg/ga N, 90-120kg/ga R<sub>2</sub>O<sub>5</sub> va 120-150 kg/ga K<sub>2</sub>O tavsiya etiladi.

### **Savollar:**

1. Kartoshka ekinini navlar bo‘yicha o‘g‘itlashning ahamiyati?
2. Kartoshka ekinining tuproq unumдорлиги va go‘ngga talabchanligi?
3. qandlavlagining natriy va xlor tutgan o‘g‘itlarga talabchanligi?

## **8-MAVZU: ALMAShLAB EKIShDA O‘G‘ITLASH TIZIMINI TUZISH**

### **Reja**

1. Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimining vazifasi
2. Almashlab ekishda tuproq unumдорлигига qarab ekinlarni ketma-ket joylashtirish
3. Xo‘jalikda mahalliy o‘g‘it miqdorini aniqlash
4. Rejalaشتirilgan hosil asosida ekinlarga mineral o‘g‘itlarni taqsimlash
5. Har bir paykalning xususiyatlarini bilgan holda o‘g‘it qo‘llashning yillik rejasini tuzish, ishlab chiqish
6. Xo‘jalikning o‘g‘it qo‘llash uchun kerakli texnika va mexanizmlar bilan ta’minlanganligini aniqlash

Adabiyotlar 2, 3, 6, 7

Tayanch iboralar: almashlab ekish, mineral va mahalliy o‘g‘it, oziqlanish, yillik reja, kalendar reja.

I. Qishloq xo‘jalik ekinlari o‘zining rivojlanishi va oziqlanishi bilan bir-birovidan farqlanish xususiyatiga ega. Chunki har bir ekin oziqa moddalarni tanlab oziqlanadi. Ana shuni uchun tuproqda oziqa moddalar kamayib yetarli miqdorda bo‘lmaydi. Masalan, go‘za, makkajo‘xori va kanop unib chiqmasdan boshlab, toki hosili pishib etilgunga qadar juda ko‘p fosfor, kaliy va mikroozqa moddalarni olib chiqib ketadi.

Dukkaklilar yoki beda o‘simgagini olsak, bu ekinlar juda ko‘p fosfor va kaliyni olib ketadi, tuproqni esa azotga boyitadi. Agar shu yuqoridagi ma’lumotlarga rioya etgan holda ekinlar har 2-3 yilda almashlab turilsa, tuproq unumдорлиги ham, hosildорлиги ham yildan -yil oshib boradi.

Qishloq xo‘jaligida almashlab ekish o‘simlikshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. O‘g‘itlar qo‘llash tizimini tuzishda xo‘jalikni tashkiliy ishlab chiqarish tomonlarini yaxshi o‘rganilishi kerak. Buning uchun xo‘jalikning ish rejalari, kelajakda rivojlanishi, ekinlar hosildorligining o‘sishi, almashlab ekish, xo‘jalikda jamg‘ariladigan mahalliy o‘g‘it miqdori, chorva mollar soni va chorvachilik mahsuldorligi, tuproq haritasi, agrokimyoviy xaritanoma, oxirgi yillardagi ekinlar hosildorligi, mahalliy va mineral o‘g‘itlar me’yori, oxirgi besh yilda olingan va sarflangan daromadlar, o‘rganilib o‘g‘itlash tizimi tuziladi.

II. Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimi - almashlab ekishda tuproq unumdoorligini, o‘simliklarning biologik xususiyatlarini o‘g‘itlarning tarkibi va xossalalarini hisobga olgan holda har bir almashlab ekishning to‘liq rotatsiyasi uchun tuzilgan o‘g‘itlardan foydalanishning ko‘p yillik rejasidir. Uni ishlab chiqishda o‘g‘itlarning ayrim turlari va shakllariga qarab ularning nisbatini to‘g‘ri belgilash, zarur

O‘g‘itlash tizimi almashlab ekishning maksimal samaradorligini, barcha ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olishni, tuproq unumdoorligidan ratsional foydalanishni va o‘g‘itlar qo‘llashni ham agronomlik ham iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lishini ta’minlashga doir masalalarni hal etishi kerak.

Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimini ishlab chiqishda o‘g‘itlarning samaradorligiga ta’sir etadigan barcha tabiiy, agrotexnika tashkiliy iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni hisobga olinadi.

III. Almashlab ekish dalalarini o‘g‘itlashda mahalliy va mineral o‘g‘itlardan birgalikda foydalanishning ahamiyati katta. Ilmiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, go‘ng va mineral o‘g‘itlar me’yorining yarmini aralashtirib berilganda gektaridan olingan qo‘sishimcha hosil, o‘g‘itlarning o‘zini alohida-alohida to‘liq me’yorda solingandagiga qaraganda hosildorlik ham bir muncha oshgan.

Xo‘jalikda mahalliy o‘g‘itlar miqdorini aniqlashda xo‘jalik o‘zidagi va shu joyda istiqomat qiladigan aholi chorva mollarini sonini aniq bilishi kerak. Chorva mollari soni aniq bo‘lgandan so‘ng, molxonalarda boqiladigan o‘rtacha kunlarni hisoblash kerak. Yuqoridagi ma’lumotlar aniqlagandan so‘ng tavsiyanomalar orqali hayvonlar turiga qarab bir kecha-kundauzda go‘ng to‘planishi har bir mol uchun aniqlab xo‘jalikdagi mahalliy o‘g‘it miqdorini aniqlash mumkin. Buning uchun umumiy mollar sonini, bir kecha-kunduzdagi go‘ng miqdoriga va o‘rtacha boqiladigan kunlar soniga ko‘paytirib topiladi.

IV. Qishloq xo‘jalik ekinlariga mineral o‘g‘itlarni taqsimlash uchun rejalaشتirilgan hosil, tuproq unumdoorligi, o‘tmishdosh ekinga solingan mahalliy va mineral o‘g‘itlar me’yori, almashlab ekish tizimi, ko‘chat soni

va boshqa bir qancha omillar hisobga olinadi chiqiladi va har bir ekin turiga alohida o‘g‘it me’yori belgilab, oziqlanish davrlariga taqsimlab chiqiladi.

V. Har bir kartaga (paykalga) o‘g‘itlar yillik me’yorini ishlab chiqishda, oldin shu paykal tarixini (oxirgi 2-3yillik) mukammal o‘rganib, yildan-yilga hosil oshib va kamayib borishini aniqlab, almashlab ekish va ekin turlarini o‘rganib, paykalning agrokimyoviy xossalalarini to‘liq bilib, paykaldan kelajakda olinadigan hosilga qarab o‘g‘it qo‘llashning yillik me’yori tuziladi va ishlab chiqiladi.

VI. O‘g‘itlardan oqilona foydalanishda, xo‘jalikda ishlatiladigan, tuproqqa o‘g‘itlar kiritadigan texnik vositalar muhim rol o‘ynaydi.

Agar xo‘jalikda o‘g‘itlarni o‘simgiliklar oziqlanish davrida kiritadigan texnik vositalar nosoz bo‘lsa yoki umuman bo‘lmasa, bu xo‘jalikda o‘g‘itlardan foydalanish umuman talabga javob bermaydi, o‘g‘itlarning isrofgarchiligiga olib keladi. Bu esa atrof-muhitni, aholini, chorvani zaharlanishiga sabab bo‘ladi. Xo‘jalikda o‘g‘itlar kiritadigan texnik vositalar yetarli bo‘lsa, o‘g‘it bir tekisda beriladi va o‘simgiliklar o‘g‘itdan to‘la bahramand bo‘lib, yuqori va sifatli hosil beradi.

#### Savollar

1. Almashlab ekishda melioratsiyaga muxtoj maydonlarni aniqlashdan maqsad nima?
2. Qishloq xo‘jalik ekinlariga o‘g‘itlar tizimini tuzishda xo‘jalik nimalarga rioya etishi kerak.
3. O‘g‘itlar ishlatib, olingan qo‘sishimcha hosilni iqtisodiy samaradrligini aniqlash yullarini bilasizmi?
4. Almashlab ekishda tashkiliy tadbirlar qanday rejalashtiriladi?.

## 9-MAVZU: ALMASHLAB EKISH TIZIMIDA ShOLINI O‘G‘ITLASH

### Reja:

1. Sholining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va asosiy biologik xususiyatlari
2. Sholiga qo‘llaniladigan azotli o‘g‘itlarning me’yorlari va muddatlari
3. Sholiga qo‘llaniladigan fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning me’yorlari va muddatlari

### Adabiyotlar 2, 3, 4, 6, 11

Tayanch iboralar: Mineral va organik o‘g‘itlar, me’yor, qo‘llash muddatlari, almashlab ekish.

I. Sholi dunyoda eng keng tarkalgan ekinlardan hisoblanadi. Uning asosiy maydonlari Markaziy Osiyo respublikalari, Kavkaz orti, Shimoliy

Kavkaz, Primere ûlkasi, shuningdek Volga, Don, Dnepr, Bug va Dunay daryolarining quyi qismida joylashgan.

Sholi issiqsevar va yorug‘sevar o‘simliklar jumlasiga kirib, suvga o‘ta talabchan. Muhiti mo“tadil va mo“tadilga yaqin tuproqlarda yaxshi o‘sadi.

Kuchsiz nordon va kuchsiz ishqoriy tuproqlarda ham sholidan yuqori hosil etishtirish mumkin. Bu ekin chirindiga boy, garanulomertik tarkibi o‘rta va og‘ir soz hamda loyli tuproqlarda yaxshi rivojlanadi. Engil tuproqlar sholichilik uchun yaroqsizdir. Vaqtı-vaqtı bilan suvga bostirilib turilganligi sababli tuproqda ko‘prok anaerob jarayonlar sodir bo‘ladi. Ildiz rizoferasi atrofida aerob mikroflora ishtirokida oksidlanish jarayoni ham ketadi. Kislorod ildiz va rizosferaga bargdan o‘simlikning biologik xususiyatiga xos kuch bilan haydab beriladi.

Bir tonna sholi hosili bilan (shunga mos miqdordagi paholi bilan) tuproqdan o‘rtacha 22 kg azot, 10 kg fosfor va 30 kg kaliy olib chiqiladi. Sholining murgak nihollari tuproqdagi tuzlar kontsentratsiyasi xloridli sho‘rlanishda 0,1 foizdan, sulfatli sho‘rlanishda esa 0,2 foizdan oshib ketganda zararlanadi. Ulg‘ayib qolgan nihollarga tuzlar kontsentratsiyasining 0,7 foizga etishi ham unchalik ta’sir ko‘rsata olmaydi.

Sholi yonlamasiga tarmoqlargan, yutish qobiliyati uncha kuchli bo‘limgan popuk ildiz tizimiga ega. Ildizlarning taxminan 80% tuproqning ustki 4-6 sm qatlamida joylashadi. Sholining hosili va guruchning sifati navning biologik xususiyatlari va tashqi muhit sharoitlariga bog‘liq. Mazkur sharoitlar ichida ayniqla mineral oziqlantirishning ahamiyati katta.

II. Sholi azotga juda talabchan ekin. Azotni o‘suv davrining boshidan oxirigacha o‘zlashtiradi. Azot o‘zlashtirilishi nihol ulg‘ayganda ham davom etadi (so‘ngi barg paydo bo‘lgunga qadar), so‘ngra keskin kamayadi. Azot tansiqligi sharoitida nihollarning rivojlanishi sekinlashadi, barglari sarg‘aya boradi, fotosintez va shoxlanish sustlashadi, ro‘vaklar kam donli bo‘lib, hosildorlik sezilarli darajada pasayadi.

Respublikamizla sholi almashlab ekish sharoitida etishtiriladi. O‘tmishdosh ekin sifatida ko‘p hollarda beda, dukkakli-don ekinlari bilan band bo‘lgan shudgor va sholining o‘zi tanlanadi.

Toshkent viloyatining o‘tloqli-bo‘z tuproqlar sharoitida (R.Haydarov, 1980) bedapoya buzilgan yilning o‘zida sholi ekilganda, azotning eng ma’qul me’yori 100-120 kg deb topilgan. Almashlab ekishning bundan keyingi yillarida azot me’yori oshirilib boriladi. Surunkasiga 3-4 yil sholi ekilganda azotning yillik me’yori 30-35 % ko‘paytiriladi. Azot me’yorini belgashda o‘tmishdosh ekinning turi ham muhim ahamiyatga ega. Azotli o‘g‘itning yillik me’yori bo‘lib-bo‘lib ekish

oldidan va qo'shimcha oziqlantirishda beriladi. Asosiy o'g'itlash ammiak shaklidan azotning nitrifikatsiyalanishni kamaytirish maqsadida ekish oldindan o'tkaziladi. Bunda yillik azot me'yorining  $^1G_2$ - $^2G_3$  qismi kultivator yoki diskali tirma yordamida tuproqning 8-10 sm chuqurligiga kiritiladi. Ko'p hollarda qo'shimcha oziqlantirish ikki muddatda 2-3 chin barg va tuplanish davrlarida o'tkaziladi. qo'shimcha oziqlantirish oldidan sholipoyalarga suv kirishi tugatiladi o'g'itlashdan keyin 2-4 kun o'tkach cheklar yana suv bilan bostiriladi.

III. Guruch sifatiga fosforli o'g'itlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Nihollar o'suv davrining boshlarida fosforga juda talabchan bo'ladi. Fosfor etishmagan hollarda o'simlik tanasidagi oqsil almashinushi jarayoni buziladi, ildiz tizimi kuchsiz rivojlanadi va oqibatda hosildorlik keskin kamayib ketadi. Almashlab ekish sharoitida fosforli o'g'itlar azotli o'g'itlar bilan birgalikda qo'llanilganida yaxshi samara beradi. Sholi uchun eng yaxshi fosforli o'g'it - superfosfat hisoblanadi. Markaziy Osiyo sharoitida 1 hektar maydonga, tuproqning harakatchan fosfor bilan ta'minlanganligini hisobga olgan holda, 60-90 kg fosfor kiritish lozimligi aniqlangan. Lekin uni qo'llash muddatlari haqida yakdil fikrga kelinmagan. Fosforning yillik me'yori ko'pincha to'laligicha shudgor ostiga kiritiladi. Ayrim mutaxassislar fosforning yillik me'yorini  $^1G_2$ - $^2G_3$  qismini shudgor ostiga, qolgan qismini esa to'planish davrida qo'shimcha oziqlantirish sifatida kiritish tarafdiridir.

Sholining kaliyga bo'lgan talabi odatda uning tuproqdagi zahirasi hisobiga qondiriladi. Kaliy etishmagan hollarda, ayniqsa nihollar endigina unib chiqqan davrda, sholining barglari juda sekin shakllanadi, shoxlanish ham sust boradi. Kaliyli o'g'itlarning me'yori tuproqning almashinuvchan kaliy bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq ravishda belgilanadi. Kaliyli o'g'itlarning sholi uchun tavsiya etiladigan o'rtacha me'yori gektariga 50-100 kg.

Belgilangan kaliyli o'g'it to'laligicha tuproqni asosiy ishslash paytida kiritiladi. Sholiga har qanday shakldagi kaliyli o'g'itlarni qo'llash mumkin, bu maqsadda ko'proq kaliy xloridi va kaliy tuzi ishlatiladi.

Savollar:

1. Sholi qanday azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlarni tanlab oziqlanadi?
2. Sholi ekini nima uchun mahalliy o'g'itlarga nisbatan ko'kat o'g'itlaridagi oziq moddalarni yaxshi o'zlashtiradi?
3. Tuproqlar unumdarligi sholiga qanday ta'sir ko'rsatadi va o'g'itlar me'yori qanday aniqlanadi?

## **10-MAVZU: TOLALI-TEXNIK EKLARNI O‘G‘ITLASH**

### **Reja**

1. G‘o‘za - qimmatbaxo texnikaviy ekin
2. G‘o‘zaga azotli o‘g‘itlarni qo‘llash rejası
3. G‘o‘zaga fosforli o‘g‘itlarni qo‘llash rejası
4. G‘o‘zaga kaliyli o‘g‘itlarni qo‘llash rejası
5. G‘o‘zani o‘g‘itlashda mahalliy o‘g‘itlarni qo‘llash

### **Adabiyotlar 1, 2, 4, 6, 7, 11**

Tayanch iboralar: Mineral va organik o‘g‘itlar, me’yor, qo‘llash muddatlari, g‘o‘za.

I. Respublikamizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga katta e’tibor bermoqda. Ma’lumki, paxta qimmatbaho texnikaviy ekin bo‘lib, hozirgi kunda undan olinadigan hosilning deyarli uchdan ikki qismi mineral o‘g‘itlarni qo‘llash hisobiga olinmokda. Respublikamiz hukumati paxtachilikni rivojlantirishga alohida e’tibor bermoqda. Keyingi yillarda dehqonchilikni rivojlantirish borasida qabul qilingan qarorlar va xujjatlar buning yorqin dalilidir.

Ko‘p hollarda «Mineral o‘g‘itlardan ko‘r-ko‘rona foydalanish, ularni bevaqt va noto‘g‘ri ishlatish, ortiqcha sarflash nafaqat kutilgan samarani bermayapti, ayniqla tuproq holatini yomonlashuviga atrof muhitning ifloslanishiga sabab bo‘lmoqda» (1997 yil 1-chakirik X sessiya materiallaridan). O‘g‘itlardan oqilona foydalanish ko‘p jihatdan xo‘jaliklarning tuproqlarni har tomonlama o‘rganish, agrokimyoviy haritanomalarini tuzish va shu asosda har bir paykalda etishtiriladigan ekin uchun o‘g‘it me’yorini belgilash bilan bog‘liqdir.

II. Sug‘orib dehqonchilik kilinadigan maydon tuprog‘ining nitrafiksialash qobiliyati yuqori bo‘lganligi sababli ularda azotning jadal migratsiyasi sodir bo‘ladi. Sug‘orish jarayonida nitratlar suv bilan birga tuproqning quyi qatlamlariga yuvilib tushadi, sug‘orishlar orasida o‘tadigan davr ichida esa yuqoriga ko‘tariladi, bu o‘simliklarni azot bilan me’yorida oziqlanishini cheklab qo‘yadi. Bunday sharoitda nitratlarning yuvilib ketishi va denitrifikatsiyaga uchrashish natijasida azotli o‘g‘itlarning anchagina qismi isrof bo‘ladi. Azotli o‘g‘itlar isrofgarchilikini kamaytirish va ularning samaradorligini oshirish uchun o‘g‘itlash muddati va usulini to‘g‘ri belgilash, sug‘orish rejasiga qat’iy amal qilish, shuningdek, ammiakli azotli o‘g‘itlar va mochevina tuproqqa kiritilganda, azotning nitrafiksialanishni ma’lum darajada cheklaydigan tadbirlarni qo‘llash hamda nitrafiksia ingibitorlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Paxtaga azotli o‘g‘itlar me’yorini belgilashda

o‘tmishdosh ekin va uni tuproq unumdorligiga ko‘rsatadigan ta’sirini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, azotli o‘g‘itlar ekishigacha, ekish bilan birga va qo‘srimcha oziqlantirish sifatida qo‘llaniladi. Ekishgacha (erta bahorda chizellash paytida) yillik azot me’yorining 20-25 kg miqdori berilishi mumkin. Ko‘p hollarda azotli o‘g‘itlarning bir qismi tuproqqa ekish bilan birga kiritiladi, lekin uning miqdori gektariga 20-25 kg dan oshib ketmasligi lozim. Aks holda chigit atrofidagi azotning kontsentratsiyasi ortib ketishi hisobiga ularning unib chiqishi kechikadi. g‘o‘za nihollarini qo‘srimcha oziqlantirishlar soni azotning yillik me’yori va tuproq sharoitlariga bog‘liqdir. Yillik azot me’yorining ekishgacha va ekish bilan birga berilgandan keyin qoladigan qismini rivojlanishning 2-3 chin barg, shonalash va gullash davrlarida teng miqdorlarda taqsimlanishi maqsadga muvofiqdir. Sungi qo‘srimcha oziqlantirish iyul oyining birinchi o‘n kunligidan kechiktirmasligi lozim, chunki kech muddatlarda kiritilgan azotli o‘g‘itlar g‘o‘zani «g‘ovlab ketishi»ga, hosil miqdorini kamayishi va pishishining kechikishiga sabab bo‘ladi.

III. Paxtadan yuqori va sifatli hosil etishtirishda fosforli o‘g‘itlarning ahamiyati katta. Ko‘p sonli dala tajribalari ma’lumotlarining ko‘rsatishcha fosforli o‘g‘itlar hisobiga bo‘z tuproqlarda 2-3 s/ga, o‘tloqa tuproqlarda 3-4 s/ga ayrim allyuvial tuproqlarda esa 6-7 s/ga qo‘srimcha paxta hosili olish mumkin.

qo‘llaniladigan fosforli o‘g‘itlarning samaradorligi tuproqdagi harakatchan shakldagi fosfatlar miqdoriga bevosita bog‘liq. Haratchan fosfor miqdori bo‘yicha tuzilgan agrokimyoviy haritonomalarning ma’lumotlari asosida fosforning tabaqalantirilgan me’yorini belgilash sezilarl iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shuningdek fosforli o‘g‘itlar me’yorini belgilashda rejalashtirilgan paxta hosili miqdorini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda 1 tsentner chigitli paxta uchun fosfor sarfi 1,5 kg deb qabul qilinadi. Tuproqdagi harakatchan fosfor miqdori  $15 \text{ mgG} \text{ kg}^{-1}$  dan kam bo‘lganda, g‘o‘zaga belgilangan yillik fosfor me’yori uchta muddatda beriladi: shudgor ostiga ekish bilan va gullash davrida qo‘srimcha oziqlantirish sifatida. Harakatchan fosfor miqdori 16-30 mg/kg atrofida bo‘lganda fosforning yillik me’yori ikki muddatda: shudgor ostiga va ekish bilan birga kiritilishi maqsadga muvofiq, harakatchan fosfor bilan o‘rtacha va undan yuqori darajada ta’minlangan tuproqlarda (bir kilogramm tuproqda 31 mgdan ko‘p) fosforning yillik me’yori to‘laligicha kuzgi shudgor ostiga kiritilsa yaxshi iqtisodiy samara beradi.

IV. Respublikamizdagi paxta etishtiriladigan xo‘jaliklarning tuproqlari yalpi kaliy bilan azot va fosforga nisbatan yaxshi ta’minlangan.

Lekin paxta va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarining hosili bilan tuproqdan ko‘p miqdorda olib chiqib ketilishi natijasida o‘simliklar tomonidan oson o‘zlashtiriladigan kaliyning miqdori keskin kamayadi, qaysiki kaliyli o‘g‘itlarni qo‘llashni taqazo etadi.

Tuproqqa azotli va fosforli o‘g‘itlar ko‘p miqdorda kiritiladigan erlarda, shuningdek, g‘o‘za-beda almashlab ekish sharoitida ekinlarning kaliyga bo‘lgan talabi keskin oshadi. Odatda g‘o‘zaga kaliyli o‘g‘itlarning me’yori tuproqdagagi almashinuvchan kaliy miqdorini bilgan holda o‘rtacha va yuqori darajada ta’minlangan bo‘lsa, kaliyning yillik me’yori kamaytiriladi, juda yuqori darajada ta’minlangan tuproqlarga kaliyli o‘g‘itlar kiritilmasa ham bo‘ladi.

Kaliyli o‘g‘itlarning yillik me’yori kam bo‘lgan hollarda, to‘laligicha shonalash yoki gullash davrlarida qo‘srimcha oziqlantirish sifatida qo‘llaniladi, kaliyli o‘g‘itlarning yillik me’yori yuqori bo‘lsa, yarmi kuzgi shudgor ostiga, qolgan yarmi esa shonalash davrida tuproqqa kiritiladi. g‘o‘za qator oralariga ishlov berish vaqtida qo‘srimcha oziq sifatida beriladigan kaliyni mumkin qadar tuproqning chuqurroq qatlamlariga tushishiga erishish lozim.

G‘o‘za-beda almashlab ekishda (3 yil beda va 5-6 yil g‘o‘za) bedapoya haydalgandan keyingi birinchi yili chigit eqiladigan erlarni kuzgi shudgorlashda fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning oshirilgan me’yori bilan o‘g‘itlash tavsiya etiladi. Kaliyli o‘g‘itlarni bahorda faqat qumli va qumloq tuproqlarga, shuningdek, sho‘ri yuvilgan tuproqlarga qo‘llash mumkin.

V. G‘o‘zani oziq moddalari bilan ta’minlanishda mahalliy o‘g‘itlarning ahamiyati katta. Mahalliy o‘g‘itlar ichida go‘ng, kompaostlar va tuproqli o‘g‘itlar alohida o‘rin tutadi. Go‘ngning tarkibida azot, fosfor va kaliydan tashqari ko‘p miqdorda uglerod hamda kamroq miqdorda mikroelementlar mavjud. Tuproqqa kiritilgan go‘ng tezda mikroorganizmlar ta’sirida parchalanadi. Uning tarkibidagi uglerod oksidlanib, karbonat kislotani hosil qiladi, qaysiki o‘z navbatida tuproq fosfatlarining eruvchanligini oshirib, o‘simliklarning oziqlanishi uchun layoqatli shaklga o‘tkazib beradi. Uglerodning bir qismi yana mikroorganizmlar ta’sirida tuproq chirindisi tarkibiga o‘tadi. qishloq xo‘jalik ekinlariga go‘ngni chala chirigan yoki kompost holatida qo‘llash lozim. Go‘ng bilan birinchi navbatda qadimdan dehqonchilik qilinayotgan maydonlar o‘g‘itlanadi. Tuproqqa kiritiladigan go‘ngning o‘rtachi yillik mie’yori gektariga 15-20 tonna qilib belgilangan. U yuza ko‘milgan paytda tarkibidagi uglevod va azotning asosiy qismi uchib ketadi.

Go‘ngni mineral o‘g‘itlar bilan birgalikda qo‘llash sezilarli darajada yuqori hosil olish imkonini beradi. Go‘ng odatdaa bedapoya haydalgandan keyin 4-5 yil o‘tgach solinadi.

Savollar:

1. Mahalliy va mineral o‘g‘itlar g‘o‘za hosildorligi va hosil sifatiga qanday ta’sirko‘rsatadi?
2. Paxtachilikda qanday mikroo‘g‘itlar ishlatiladi?
3. Paxtachilikda agrokimyoviy xaritanomalardan keng foydalanilishining sababi nimada?
4. G‘o‘za navlarining urug‘idagi yog‘ tarkibiga mineral o‘g‘itlarning ta’sirini izolang.

## **11-MAVZU: SABZAVOT EKINLARINI O‘G‘ITLAsh**

### **Reja**

1. Sabzavot ekinlari oziqlanishining o‘ziga xos tomonlari
2. Mineral va mahalliy o‘g‘itlarni qo‘llash
3. Sabzavot ekinlarini (karam, pomidor, bodring, sabzi va piyozni) o‘g‘itlash

### **Adabiyotlar 2, 3, 4, 6, 10**

Tayanch iboralar: Mineral va organik o‘g‘itlar, me’yor, qo‘llash muddatlari, kimyoviy tarkibi, sabzavot ekinlar.

I. Sabzavot ekinlari hosilini oshirishda o‘g‘itlar nihoyatda katta ahamiyatga ega. Sug‘oriladigan erlarda sabzavot etishtirishda ekinlarni o‘g‘itlash, ayniqsa samarali bo‘ladi. Sabzavot o‘simgliklari erdan oziq muddalarni butun o‘suv davrida olib turadi, meva tugish vaqtida ular o‘g‘itlarga juda talabchan bo‘ladi. O‘g‘itlarni faqat ekishdan oldin emas, balki o‘suv davrida ham qo‘shimcha oziq muddalar berish kerak. Sabzavot ekinlarida oziqlantirish usulini aniqlashda o‘simgliklarning biologik xususiyatlaridan tashqari o‘g‘itlar tarkibini, oziq muddalar dinamikasini, agrotexnik ishlovlarni hisobga olish kerak bo‘ladi.

II. Sabzavot ekinlari ayniqsa mahalliy o‘g‘itlarga talabchandir

Mahalliy o‘g‘itlar mineral o‘g‘itlarga qo‘shib ishlatilganda yaxshi samara beradi. Mahalliy o‘g‘itlarni yillik me’yori xo‘jalikda bu o‘g‘itning mavjudligi va foydalanish holatiga qarab bir hektar maydonga 15-20 tonnadan 60 tonnagacha bo‘lishi mumkin.

Azotli o‘g‘itlar yillik me’yorining 60-75% ini o‘simglik o‘suv davrida va 25-40% i ekish oldidan solinadi.

Fosforli o‘g‘itlarni yillik me’yorining 60-75% i kuzgi shudgorlashda, qolgan 25-40% i urug‘ ekish yoki ko‘chat o‘tqazish bilan birga solinadi.

Kaliyli o‘g‘itlar yillik me’yorining 50%i fosforli o‘g‘itlar bilan qo‘sib kuzgi shudgorlashda solinadi va qolgan 50%i azotli o‘g‘itlarga qo‘sib o‘simliklarning shonalash davrida beriladi.

Sabzavot ekinlariga mahalliy o‘g‘itlardan: turli kompostlar, fekaliylar, parranda ahlati va pilla chiqindilari ham yaxshi samara beradi.

III. Karam ekini oziq moddalar olish va o‘g‘itga talabchanligi jihatidan sabzavot ekinlari orasida birinchi o‘rinda turadi. 100 ts karam hosili bilan tuproqdan o‘rtacha 31kg azot, 12kg fosfor va 40kg kaliy olib chiqib ketadi.

Karam ko‘chati organo-mineral o‘g‘itlarni juda yoqtiradi va yaxshi rivojlanadi. Bir kvadrat metr maydon uchun mahalliy o‘g‘itlarga 1,5kg ammiakli selitra 1,7kg oddiy superfosfat, 0,6kg kaliy xloridi 0,5-1,0g bura va 0,4g ammoniy molibdat qo‘siladi.

Karam ekini uchun bir gektar maydonga o‘rtacha 90-180 kg azot, 30-90kg fosfor va 90-150kg kaliy tavsiya etiladi.

Mahalliy va mineral o‘g‘itlar birgalikda qo‘llaniladigan eng ko‘p qo‘sishimcha hosil olinadi. Karam ekini uchun gektariga 20 tonnadan 40 tonnagacha mahalliy o‘g‘it tavsiya etiladi.

- Pomidor unumdor erlarni tanlaydi va o‘g‘itlarga juda ham talabchan o‘simlik hisoblanadi. Pomidor tuproqdag‘i oziq moddalarni iste’mol qilish jihatidan sabzavot ekinlari orasida oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. 100 ts pomidor hosili 20-30kg azot, 8-10kg fosfor va 20-25kg kaliyni tuproqdan olib chiqib ketadi.

Azot pomidorning rivojlanishini kuchaytirsa, fosfor mevalarni tez etilishiga, shakar miqdorini oshishiga yordam beradi.

Kaliyli o‘g‘itlar esa pomidor mevalaridagi quruq modda miqdorini oshiradi. Pomidor ekini uchun gektariga 20-30 tonna mahalliy o‘g‘it 150-180 kg azot, 120-140kg fosfor va 90-120kg kaliy tavsiya etiladi.

- Bodring uchun go‘ng, kompost eng yaxshi o‘g‘it hisoblanadi. Bodring 100 ts hosili bilan tuproqdan 28kg azot, 19kg fosfor va 44kg kaliyni olib chiqib ketadi.

Bodring ekiniga organo-mineral o‘g‘itlar berilsa hosildorligi ikki hissa oshadi. Bodring tuproq eritmasining kontsentratsiyasiga o‘ta sezgir bo‘lganligi sababli, mineral o‘g‘itlarning yillik me’yorini bo‘lib-bo‘lib berish kerak.

Bodring uchun gektariga 90-120kg azot, 120-160kg fosfor, 90-120kg kaliy hamda 30-40 tonna mahalliy o‘g‘it tavsiya etiladi. Bodringga

azotli o‘g‘itlarni ko‘p ishlatmaslik kerak, tarkibida quruq modda juda kamayib ketadi.

- Sabzi eng muhim sabzavot ekinlaridan biridir. Sabzi ekni uchun azot-karotin moddalarini, oqsil almashinuvini, fosfor-quruq modda, qand, karotin moddalar miqdorinini va kaliy uglevodlar almashinuvini yaxshilaydi. Sabziga 150 kg azot, 100 kg fosfor va 50 kg kaliy berilganda, hosildorlik ancha yuqori bo‘lishi aniqlangan. Sabzi ekini uchun 20-30 tonna go‘ng, 120-150kg azot, 90-120kg fosfor va 90-120kg kaliy tavsiya etiladi. Bu o‘g‘itlarni asosiy qismini shudgorlashda va erta bahor ekishdan oldin solinadi.

- Piyoz 100 ts hosil bilan birga 50 kg N, 11-15 kg P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> va 30-40 kg K<sub>2</sub>O ni tuproqdan olib chiqib ketadi. Piyoz uchun gettariga 100-150 kg azot, 100-150 kg fosfor, 75-90 kg kaliy va 20-30 tonna go‘ng tavsiya etiladi.

#### Savollar:

1. Sabzavot ekinlar hosiliga fosforli o‘g‘it me’yorlarining ta’siri?
2. Sabzavot ekinlari qanday mikroo‘g‘itlar bilan o‘g‘itlanadi?
3. Sabzavot ekinlarida qanday asosiy oziqlantirishlar bor?

## 12-MAVZU: POLIZ VA SUBTROPIK EKINLARNI O‘G‘ITLASh Reja:

1. Poliz ekinlarining kimyoviy tarkibi
2. Poliz ekinlari (qovun, tarvuz, qovoq)ni o‘g‘itlash
3. Subtropik ekinlarni o‘g‘itlash

#### Adabiyotlar 3, 4, 6, 10, 11

Tayanch iboralar: Mineral va organik o‘g‘itlar, me’yor, qo‘llash muddatlari, kimyoviy tarkibi, poliz ekinlari, subtropik ekinlar.

I. Poliz ekinlari tarkibida uglevodlar va qand miqdorining yuqoriligi bilan oziq-ovqat ahamiyatiga molikdir. Poliz mevalari tarkibidagi qand miqdori nafaqat uning nava, mahalliy va mineral o‘g‘itlar miqdoriga, o‘sish sharoiti va tuproqning tarkibiga ham bog‘liqdir. Poliz ekinlarining tarkibidagi qand miqdori shimoldan janubga siljigan sari o‘zgarib boradi.

II. Poliz ekinlari unumdor, strukturali tuproqlarga ancha talabchan bo‘lib, yangi erlarda, ko‘p yillik o‘tlardan bo‘shagan tuproqlarda yaxshi o‘sib rivojlanadi.

Almashlab ekishda beda, don, dukkakli ekinlar, kartoshka, o‘g‘itlangan karam va ildizmevalardan bo‘shagan erlarga ekish tavsiya etiladi. Bu tur ekinlarni bir erga surunkali ekish hosilning pasayishiga,

sifatining yomonlashuvi hamda o'simliklarda so'lish kasalligining ko'payib ketishiga sabab bo'ladi.

Poliz ekinlari uchun go'ng, kompost muhim o'g'it hisoblanib, mineral o'g'itlar bilan maqbul nisbatda aralashtirib oziqlantirilsa hosil yanada yuqori bo'ladi. Bedadan bo'shagan erlarga ekilgan poliz ekinlariga birinchi yil azotli o'g'itlar bermasdan faqat fosfor va kaliy o'g'itlar solinadi.

O'zbekiston Sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tekshirish institutining tavsiyasiga binoan, poliz ekinlaridan gektaridan o'rtacha 250-300 ts hosil olish uchun, fosfor 100-150 kg, kaliy 50 kg; o'tloq va botqoq o'tloq tuproq uchun azot 80-100, fosfor 100-120, kaliy 50-60 kg belgilanib, gektariga 30-40 tonnadan go'ng qo'llanilganda, go'ng tarkibidagi o'rtacha azot, fosfor va kaliylarning miqdoriga asoslanib, mineral o'g'itlarning yillik me'yori ham biroz kamaytiriladi. Go'ng, kompostning yillik me'yori, fosforning 60-70% i kaliyning 50% i kuzgi shudgor ostiga solinadi. Azotli o'g'itlar esa ekish oldidan, o'suv davrida, 3-4 chin barg chiqarganda, qolgan kism fosfor bilan birgalikda gullah fazasida, shudgor ostidan berilmay qolgan (50%) kaliy bilan aralashtirilib, chopiqdan so'ng, oziqlantiruvchi kultivator o'g'itlagich yordamida egatlar o'rtasida 15-18 sm chuqurlikda solinadi.

Poliz ekinlari o'g'itlangandan so'ng suvlansa, o'g'itning samarasi yanada yaxshi bo'ladi. Bedapoyadan so'ng ikkinchi yil ekilgan poliz ekinlari uchun fosforga nisbatan azot me'yori 50% ni tashkil etishi kerak, ya'ni gektariga 100 kg/ga bo'lishi lozim.

Kam unumli tuproqlardagi ekinlarni ertarok va oz-ozdan o'g'itlash samarali usul hisoblanib, ekinlarni so'nggi o'g'itlashni birinchi hosilni terish arafasida yakunlash kerak.

Tarvuz ko'proq fosfor va fosfor-kaliyli o'g'itlarga talabchan bo'lib, qovun tarvuzga nisbatan organik o'g'it, jumladan, go'ngga talabchandir.

Shunga qaramasdan go'ngning yillik me'yori gektariga 60-70 tonnagacha etkazilsa, qovunning ta'mi pasayadi va tarkibidagi foydali vitaminlar miqdori kamayib ketadi. Poliz ekinlari kichik maydonlarga ekilganda (issiqxonalar) organik va mineral o'g'itlarning me'yori  $1m^2$  ga hisob qiladi.

qovoqning agrotexnikasi va uni o'g'itlash muddati tarvuz, va qovunnikaday bo'ladi.

**III. Anor.** To'rt-besh yil hosil bergen anorga gektariga 120 kg azot, 90 kg fosfor, 60 kg kaliy va 10 tonna go'ng berish yaxshi samara beradi. Ko'p yillik anorzorga o'g'itni bahorda berish muhim ahamiyatga ega.

**Anjir.** Mevali bir gektar anjirzorga 120-180 kg azot, 90-120 kg fosfor, 45 kg kaliy beriladi. Azotli o'g'itlarni ikki muddatda bahorda

(50%) va yozda (50%) beriladi. Gektariga 10-20 tonna hisobida go‘ng solish juda yaxshi natija beradi.

**Xurmo.** To‘rt-besh yildan beri hosil berayotgan xurmo uchun bir gektar erga 120 kg azot, 90 kg fosfor, 60 kg kaliy va 10-20 tonna go‘ng berish kerak. Xurmo daraxtining kattalashishi va hosil miqdori ko‘payishi bilan qo‘llanadigan o‘g‘it miqdori ham oshiriladi.

#### Savollar

1. Poliz ekinlarining hosili va hosil sifatiga qaysi azotli o‘g‘itlar qattiq ta’sir etadi?
2. Organik o‘g‘itlar me’yorlarining poliz ekinlariga ta’siri qanday?
3. Limon, xurmo va apelsinlarni o‘g‘itlash muddatlari va usullari qanday bo‘ladi?

### **13-MAVZU: TOK, MEVALI VA TUT DARAXTLARINI O‘G‘ITLASH**

#### **Reja:**

1. Bog‘ va tokzorlarni o‘g‘itlash
2. Mevali daraxtlarni o‘g‘itlash
3. Tutzorlarni o‘g‘itlash
4. Malina va smorodinani o‘g‘itlash

#### **Adabiyotlar 2, 3, 4, 6, 9**

Tayanch iboralar: Mineral va organik o‘g‘itlar, me’yor, qo‘llash muddatlari, kimyoviy tarkibi, bog‘, tokzor, mevali daraxt, tut, malina, smorodina.

I. Agarda bog‘ va tokzorlar barpo qilishdan oldin tuproqni chuqur haydab o‘g‘itlar solingan bo‘lsa, unda ko‘chat mevaga kirkuncha deyarli o‘g‘itlamasa ham bo‘ladi.

Agarda ilgari boshqa ekinlar bilan band bo‘lgan erlarga tok ekiladigan bo‘lsa, tok ko‘chatini o‘tqazish paytida har bir chuqurchaga o‘g‘it solinadi. Har bir chuqurchaga 500-600 gramm superfosfat 4-5 kg chirindiga aralashtirib solinadi va ustidan tuproq tortiladi.

Bunday tokzorlarda ikkinchi yili qo‘sishmcha oziq sifatida 90 kg/ga azot, 60 kg/ga fosfor va 40 kg/ga kaliy beriladi.

Hosilga kirgan tokzorlarni yil sayin o‘g‘itlab turish kerak. Har bir xo‘jalikning tuproq sharoitlariga, tokning yoshiga va holatiga hamda mo‘ljallangan hosildorlikka qarab o‘g‘it normasi belgilanib boriladi. Go‘ng gektariga 30-40 tonna hisobidan solinadi.

Hosilga kirgan har bir gektar tokzorga 180 kg azot, 160 kg fosfor va 90 kg kaliy o‘g‘itlari beriladi.

Mineral o‘g‘itlar bahorda 120 kg/ga azot, 90kg/ga fosfor va 60kg/ga kaliy hisobida qo‘llaniladi. Ikki-uch yilda bir marotaba mineral o‘g‘itlar egat oralab 50-60sm chuqurlikda solinadi va bir vaqtning o‘zida tuproqning pastki qatlamlari yumshatib boriladi.

Hosilga kirgan toklar o‘suv davrida ikki marta qo‘sishimcha oziqlantiriladi: birinchisi may oyida gullashga 15-20 kun qolganda gektariga 60 kg azot, 45 kg fosfor va 30 kg kaliy hisobidan, ikkinchisi gullagandan 10-15 kun utgach gektariga 45 kg fosfor 30 kg kaliy hisobidan 60 kg azot hisobidan o‘g‘itlanadi. Har bir oziqlantirishdan keyin qo‘sishimcha sug‘oriladi.

II. Yosh bog‘lar yaxshi o‘zlashtirilgan erlarda barpo etilsa, mevaga kirgunga qadar o‘g‘itlarni deyarli ko‘p talab qilmaydi.

Sust o‘sayotgan daraxtlarga, bitta daraxtga 4-5kg chirindi hisobida o‘g‘it solinadi, ya’ni gektariga 800kg go‘ng yoki chirindi bo‘lmagan takdirda erta bahorda bitta daraxtga (N-15, P-10) 250-300 gramm azotli va kuzda 300-400 gramm fosforli o‘g‘it solinadi.

Daraxtlarning o‘sishi bilan o‘g‘itlar me’yori ham oshiriladi.

Meva beradigan bog‘lardagi kuchli payvandtagli daraxtlarga beriladigan o‘g‘itlarning yillik me’yori gektariga 120 kg azotni 60 kg fosforni va 60 kg kaliyni tashkil etadi.

Sust o‘sadigan payvandtaglardi hosildor bog‘larda o‘g‘it solish me’yori quyidagicha belgilanadi: gektariga 180 kg azot, 160 kg fosfor va 90 kg kaliy.

Agar yuqori hosil, ya’ni gektaridan 150-200 va undan ko‘proq tsentner olish rejorashtirilgan bo‘lsa, katta mevali daraxtlar uchun mineral o‘g‘itlarning me’yori 1,2-2 marotaba ko‘paytiriladi. Toshli tuproqli erdag‘i bog‘larga mineral o‘g‘itlardan tashqari mahalliy o‘g‘it sifatida 20-40 t/ga miqdorida go‘ng solish zarur.

III. Tut daraxti ko‘p yillik ekin. Tutning shox va novdalari ipak qurti uchun har yili bahorda kesib olinadi. Shuning uchun ham uning o‘g‘itlarga bo‘lgan talabi katta.

Tut ko‘chati 10 yashargacha bo‘lganda har bir daraxt tagiga 125 gramm, 10 yashardan 20 yashargacha 250 gramm, 20 yashardan 40 yashargacha 375 gramm 40 yoshdan yuqori bo‘lganda 500 gramm azot solinadi. Fosfor va kaliyni muvofiq ravishda 60-30, 125-60, 185-90, 250-125 grammdan beriladi.

Tutlar butazor sifatida ekilganda keng qatorli tutzorlarning gektariga 120 kg va tor qatorli tutzorlarda 180kg azot solinadi. Fosfor va kaliy ham muvofiq ravishda 60-90 va 30-45 kilogrammdan beriladi. Tut

daraxtlari go‘ngni yaxshi o‘zlashtiradi. Chirindi go‘ng har ikki-uch yilda kuzda yoki bahorda erni haydashdan oldn gettariga 20 tonna hisobida solinadi.

Yangi o‘zlashtirinayotgan sho‘r bosgan erlarda (qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida va Markaziy Farg‘ona) azotli o‘g‘itlar me’yori umum qabul qilinganiga nisbatan 1,5 barobar oshiriladi.

Mineral o‘g‘itlarning yillik me’yori ikki davrda beriladi: azot, fosfor va kaliyning 50% bahorda (mart-aprel) oylarida, shox va novlar kesib olgunga qadar, qolgan 50 % shox va novlar kesib olingandan keyin (may-iyun oylarida) beriladi. O‘g‘itlar sug‘orishdan oldin seyalkaning egat ochgichi yordamida solinadi.

IV. Smorodina va malina plantatsiyasini shudgorlashda har bir gettar erga 30-40 tonna go‘ng va 100-120 kg fosfor o‘g‘iti solinadi. Smorodina va malina o‘tqazilgandan so‘ng ikkinchi yili hosil bera boshlaydi. Birinchi va ikkinchi yili gettariga 30-50 kg azot uchinchi va keyingi yillarda har yili 60-120 kg fosfor, 60-120 kg azot va 30-60 kg/ga kaliy solinadi.

Azotli o‘g‘it yarmini o‘sish davri boshlanishida qolgan yarmini esa tuplab bo‘lgandan so‘ng, fosforni erta bahor va kuzda, kaliyni esa kuzda fosfor bilan qo‘shib beriladi.

Savollar:

1. Ko‘p yillik mevalarga va toklarga organik va mineral o‘g‘itlarni ishlatish me’yorlari va usullari qanday bo‘ladi?
2. Ko‘p yillik mevali daraxtlar va tok qanday mikroo‘g‘itlar bilan bargidan oziqlantiriladi?
3. Bir, ikki va uch yillik ko‘chatlar uchun organo-mineral o‘g‘itlar qanday tayyorlanadi va qancha miqdorda beriladi?
4. Malina va simorodina bargidan qanday oziqlantiriladi?

## **14-MAVZU: O‘G‘ITLARNI QO‘LLASH, TUPROQ VA TABIIY SUVLAR MUHOFAZASI**

**Reja:**

1. O‘g‘itlarni qo‘llashning ekologik muammolari
2. Azotli o‘g‘itlarni ekologik roli
3. Fosforli o‘g‘itlarni ekologik roli
4. Kaliy o‘g‘itlarni ekologik roli

## Adabiyotlar 3, 4, 5, 6, 10

Tayanch iboralar: *Ekologiya, o‘g‘it qo‘llash, muammo, eroziya, sugorma suvlar, zovurlar, ariklar.*

I. Hozir qishloq xo‘jalik erishilgan muvaffaqiyatlar ko‘p jihatdan yuqori dozada o‘g‘it ishlatish bilan bog‘liq. O‘g‘itlardan foydalanish va uni ishlatish usullari kun sayin kengayib va takomillashib bormokda.

Agar gektar boshiga solinadigan azot, fosfor va kaliyli o‘g‘itlarni o‘rtacha 100kg/ga deb olsak, u vaqtida hozir mavjud bo‘lgan ekin maydonlarini o‘g‘itlash uchun har yili 150 mln. tonna o‘g‘it ishlab chiqarish kerak bo‘ladi.

Professor V.A.Kovdaning hisobiga qaraganda XXI asrning boshlarida o‘rtacha 300-400 mln.tonna o‘g‘it ishlab chiqarish bilan shu davr talabini qondira olish mumkin. Bizning mamlakatimizda don va texnika ekinlarini o‘g‘itlash, shu qatori tabiiy o‘tloqlar va yaylovlarni oziqlantirishni kuzda tutib yiliga gektar boshiga 300 kg hisobidan o‘g‘it ishlab chiqarish kuzda tutilmokda. Mineral o‘g‘itlar bilan bir qatorda go‘ng, kompost singari mahalliy o‘g‘itlardan ham keng foydalanilmoqda. XXI asrda jami turdag‘i o‘g‘itlar ishlatish hajmi 5,6 marta ortishi kerak.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish faqat mineral o‘g‘itlardan to‘g‘ri va ratsional foydalanilgan holdagina yaxshi natija berish mumkin. Bu sohada agrokimyogarlar doimiy izlanishlar olib borib, o‘g‘itlarning yangi turlarini yaratish, ulardan foydalanishning eng muvofiq moddalari va optimal me’yorlarini belgilash ustida ish olib bormoqdalar. Bu masalalarning to‘g‘ri hal qilinishi faqat ekinlar hosilining oshirish uchungina emas, balki atrof muhit, tuproq va suvlar muhofazasi uchun ham katta ahamiyatga ega.

II. Azot o‘simlik va tirik organizmlarning hayot komponentlari tarkibiga kiruvchi muhim elementdir. Azot tanqisligi oqsil, ferment, xlorofil moddalar sintezini susaytiradi, uglevodlar sintezi esa xlorofilsiz bormaydi, o‘simliklarning rivojlanish jarayoni susayadi.

Azot, ayniqsa yangidan tashkil topayotgan hujayralar uchun juda zarur. Shunga ko‘ra o‘simlik avj olib rivojlanayotgan ya’ni hosil tugishi davrida azotni ko‘p talab qiladi.

Ekinlardan me’yordagi hosilni olish uchun har gektar erga 100 kg dan 300 kg gacha sof azot hisobida o‘g‘it solinadi. Shuning bilan birga ekinlarning azotga nisbatan talabi har xil bo‘lib, bu o‘simliklarning turi, tuproq unumdarligi va joyning ekologik sharoitiga bog‘liq. O‘g‘itlardan to‘g‘ri foydalanish uchun ana shu ko‘rsatgichlarni bilish kerak bo‘ladi. Turli o‘simliklarning azotga talabi har xil bo‘lishi bilan birga, ularning organlari (ildiz-poya, barg va meva va boshqa) ham vegetatsiya davrida

azotni turli miqdorda iste'mol qiladi. O'simlik hosilini pishib etilish davrida vegetativ organlaridagi azot generativ organlari tomon oqadi. Ana shu vaqtida o'simlik tuproq azotini ham ko'p talab qiladi. Etishtirilgan hosilning bir qismini inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun iste'mol qiladi. Demak, o'simlik tomonidan to'plangan azotning bir qismi kaytib tuproqqa tushmaydi. Shuning uchun ham tuproqda etishmaydigan azot o'rmini to'ldirish maqsadida har yili erga mineral va mahalliy o'g'itlar solinadi. Agar mineral o'g'it tarkibidagi azotning foydalanish koeffitsienti 50-60%, mahalliy o'g'it tarkibidagisini 30-40% deb olsak, ko'pchilik ekin ekiladigan erlarda azot tanqisligi ruy beradi. Shunga ko'ra erga solinadigan azotli o'g'itning miqdorining ko'pchilik maydonlarda oshirishga to'g'ri keladi. Bunda tuproqdagagi harakatchan azot va tuproqning bu xildagi o'g'itdan foydalanila olish qobiliyatini hisobga olish kerak. Azotli o'g'itlardan o'z vaqtida kerakli miqdorda foydalanish hosilni ko'paytiribgina qolmay, balki atrof muhitni ortiqcha azot birikmalari bilan ifloslanishdan saqlaydi.

Tuproqdagagi azot miqdori me'yordagidan ortib ketsa, o'simliklarning vegetativ organlarining generativ organlariga nisbatan rivojlanishni tezlashtirib yuboradi.

Tuproqda ortiqcha azot asosan nitratlar shaklida to'planadi. Nitratlar tuproqqa singmay, tezda yuvilib ketishni yoki gaz holatda tuproqdan atmosferaga uchib yo'qolishi mumkin.

Mineral o'g'itlarning ko'payishi hosilning ko'payishiga mutanosib kelmaydi. AQShning Illinoys shtatidan olingan ma'lumotlarga qaraganda hosildorlikni ko'tarish maqsadida mineral o'g'itlar dozasi oshirilgan chunonchi fermerlar gektar boshiga g'alladan olingan hosil 55 ts kam bo'lган holda uni rentabel emas deb, o'g'it dozasini oshirganlar. Natijada tuproqdagagi nitratning miqdori tabiiy suvlarda, shu jumladan ichimlik suv manbalarida keskin ko'payib ( $45\text{mgG}^1$ ), bolalarda turli xil kasalliklar keltirib chiqargan. Shunday olganda nitratlar zaharli emas, lekin ular ichak bakteriyalarining ta'sirida nitritlarga aylanib, qonning gemoglobinini bilan birikadi va uni metgemoglobiniga aylantiradi. Metgemoglobin qon aylanish tizimida kislороднинг ko'chib yurishiga to'sqinlik qilib, organizmni zaharlaydi.

III. Fosfor mummosi uning tabiiy zapaslarining tugab borayotganligi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki tuproqqa solinadigan mineral o'g'itlarning bir-biriga nisbati to'g'ri bo'lishi juda katta ahamiyatga ega. Fosfor elementining azot singari biologik manbai bo'lмаганлиги uchun uni hamisha tuproqqa mineral o'g'it sifatida solinib, etishmagan qismi to'ldirib boriladi.

Fosfor azot singari eng muhim hayotiy elementdir. Fosfor nukleoproteidlar, fosfatidlar, fitin, qandli fosfatlar va boshqalar tarkibiga kiradi. Fosfor asosan o'simlikning o'sish nuqtalari va donlarida to'planadi, ildiz va poyalarida unchalik ko'p bo'lmaydi. O'simlikning turi va talabiga qarab har gektar erdan me'yordagi hosilni olish uchun sarf bo'ladigan fosfor 15 kg dan 50 kg gacha va undan ko'proq bo'lishi kerak.

Biologik yul bilan to'plangan fosforning uchdan ikki qismini qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatida odam iste'mol qilib, tuproqda uchdan bir qismi qoladi.

Fosforli o'g'itlarning foydali koeffitsienti azotnikiga qaraganda ikki barobardan ham kamdir. Fosforli o'g'itlar tarkibidagi fosfor tuproqdagi kaltsiy, magniy, temir va ammoniy elementlari bilan tezda birikib suvda yomon eriydigan fosfotlarni hosil qiladi. Bundan tashqari fosfor tuproqning mineral va organik qismi orqali kimyoviy singdirilishi mumkin. Fosforga xos bo'lgan bu xususiyatga asosan fosforli o'g'itni tuproqdagi etishmaydigan miqdoriga nisbatan bir necha bor ortiq solish kerak bo'ladi. Shu bilan birga fosforli o'g'itni erga solish me'yorini belgilashda uning tuproqdagi harakatchan shakldagi miqdorini ham hisobga olish kerak bo'ladi.

Fosforli o'g'itlar odatda o'simlik ildizlariga yaqinroq qilib solinadi. Amerikalik olimlarning hisoblariga qaraganda molga em-xashak tayyorlash uchun sarflangan 10 qism fosforning bir qismini odam oziq moddalari bilan iste'mol qilsa va uch qismi tuproqqa singib qolsa, qolgan olti qismi chiqindi suvlar bilan yuvilib ketadi.

Fosforli birikmalar suvda yomon erishiga qaramay ularning asosiy geokimyoviy aylanma harkati ko'llar, daryolar dengiz va okeanlar orqali ro'y beradi. Hisoblarga qaraganda hozir har yili 4 mln. tonnaga yaqin fosfor tuproqdan okeanlarga yuvilib ketadi. Shu bilan birga turli dengiz hayvonlari baliq, mollyuskalar, suv o'tlarini dengizdan quruqlikka chiqarilishi, quruqlikda dengiz mahsulotlarini ko'p ishlatalishi bir qism fosforning dengizdan quruqlikka kuchishiga ba'zi erlarda fosfor miqdorini me'yordan ortib ketishiga olib kelyapti.

IV. Azot va fosforli o'g'itlar kabi kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish ham kun sayin ortib boryapti. Kaliy elementi ham azot va fosfor singari eng zarur oziq moddasi hisoblanadi. U o'simlik organizmida turli hayotiy vazifalarni bajaradi fotosintezning normal ketishiga, barglardan uglevodlarni o'simlikning boshqa organlariga oqib o'tishiga yordam beradi, bir qancha fermentlarni aktivligini oshiradi, protoplazma kolloidlarining hidrofillik darajasini kuchaytirib hujayralarning tezkorlik holatini saqlash uchun osmotik kontsentratsiyasini bir me'yorda tutib turishga yordam beradi. O'simlik tarkibidagi kaliy 0,01%-2,3% boradi.

Kaliyli o‘g‘itni planlashtirishda ham tuproq sharoiti, uning ximiyaviy va mexanik tarkibi hisobga olinishi shart.

Kaliyli o‘g‘itlar tuproqqa nitrat, sulfat va xlorli kaliy birikmalar holatida solinadi.

Amalda ko‘proq KCl o‘g‘iti ishlatiladi. Bu o‘g‘it tarkibidagi sof kaliy 60% ga boradi.

Kaliy xlor tabiatda silvin va silvinit minerallari sifatida ko‘p tarqalgan va u juda arzonga tushadi. Biroq u o‘g‘itni ishlatish tuproq takribida xlor ioni miqdorining ortib ketishiga bu esa ko‘pchilik ekinlarning zaharlanishiga olib keladi. Bundan tashqari xlorning ko‘payishi tuproqdagagi jarayonlarning buzilishiga, nordon tuproqlar muhitini yanada nordonlanishi, neytral va ishqoriy muhitdagi tuproqlarning sho‘rtoblanishiga olib keladi.

Kaliy o‘g‘itni tuproqdagagi harakatchan kaliy miqdori  $200 \text{ mgG} \text{ kg}^{-1}$  dan oz bo‘lgandagina erga solish tavsiya kilinadi. Lekin kaliyni o‘g‘itni kerakli miqdordan oshirmay, o‘simlik ko‘prok talab qiladigan vaqtida ozroq fosfor, kaliyning bir-biriga nisbatini bilib ishlatish kerak. Kaliyli o‘g‘itni bilib ishlatish tuproqni oriqlanishidan saqlab unumdorligini keskin oshiradi.

Kaliy o‘g‘itni me’yоридан ортиқча ishlatish qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifatiga salbiy ta’sir qilish bilan birga atrof-muhit, tuproq va suvlarni ifloslantiradi. Bu bilan ko‘l va suv havzalarining evtrofikatsiyasi bog‘liqdir.

Suv havzalariga ko‘plab oziq moddalar oqib kelishi bilan suv o‘tlari va mikroorganizmlar avj olib o‘sа boshlaydi va suv betini qoplab oladi. Kislorod suv o‘tlari, mikroorganizmlarning nafas olishi va ularning organik qoldiqlarini oksidlash (chiritish, parchalash) uchun sarf bo‘lib, suv havzalarida kislorod etishmay undagi baliq va boshqa organizmlar qirilib ketadi.

### **Savollar:**

1. Mahalliy va mineral o‘g‘itlarni tayyorlash va ishlatishdabolalarga necha yoshdan boshlab ishlashga ruxsat etiladi?
2. Mahalliy va mineral o‘g‘itlar bilan uzoq ishlaganda inson qanday kasalliklarga yo‘liqadi?
3. Insonga va o‘simliklarga kuchli ta’sir etadigan moddalar nimalardan iborat?
4. Mahalliy va mineral o‘g‘itlar er ostiga necha m chuqurlikka singib boradi?

## **15-MAVZU: O‘G‘ITLAR QO‘LLASh HISOBIGA OLINADIGAN IQTISODIY SAMARADORLIKLER**

### **Reja:**

1. Iqtisodiy samaradorlik va uni hisoblash
2. Qo‘sishimcha hosil uchun sarflangan harajatlarni aniqlash
3. O‘g‘itlar hisobida olinadigan sof daromad va rentabellikni hisoblash

### **Adabiyotlar 2, 3, 4**

Tayanch iboralar: Sof daromad, rentabellik,o‘g‘it.

I. Qishloq xo‘jaligida o‘g‘itlar qo‘llash tizimiga va uni qoidalariga rioya etilsa, har qanday o‘g‘itlarni (organik va mineral) ishlatib qo‘sishimcha hosil olish mumkin.

Agarda tuproq unumdoriligidagi va undagi harakatchan oziq moddalarga, almashlab ekish, o‘g‘itlar tarkibi, xo‘jalikdagi mahalliy va mineral o‘g‘itlar miqdoriga va agrokimyoviy xaritanomalarga e’tibor bermasdan o‘g‘itlar ishlatilsa, qo‘sishimcha hosil u yoqda tursin, rejalangan hosilni ham olish amri maholdir.

Agrokimyo fani - o‘g‘itlar ishlatish me’yorlariga va usullariga rioya etib qo‘sishimcha hosil olish yo‘llarini o‘rgatadigan fandir. qo‘sishimcha hosil bu xo‘jalik uchun qo‘sishimcha daromaddir.

II. Qo‘sishimcha daromadni aniqlash uchun xo‘jalikka sarflangan harajatlarini hisoboti kerak.

O‘g‘itlarni ishlatib olingan qo‘sishimcha hosilga hamma harajatlar kiradi.

Bu harajatlarga agrotexnik ishlovlar, urug‘ va o‘g‘itlar tannarxi, hosilni yigib-terib olishga ketgan harajatlar va hashorat va kasalliklarga ishlatilgan kimyoviy moddalar narxi va boshqa bir qancha qo‘sishimcha harajatlar kiradi. Shu yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni sinchikovlik bilan hammasini hisoblab umumiylar harajatni oldin 1 ts hosilga nisbatan hisoblanadi.

So‘ngra xo‘jalik har bir ekindan o‘g‘itlar qo‘llab olgan qo‘sishimcha hosildan sof daromadni aniqlanadi. Buni uchun adabiyotlardan maxsus jadvallar bor.

III. Odatta iqtisodiy samara gektaridan olinadigan qo‘sishimcha hosil (1s/ga), tuproqqa kiritilgan o‘g‘it birligining don, tola, meva yoki ozuka bilan qoplanishi va shuningdek sof daromadning miqdori (sum) bilan ifodalananadi.

Mamlakatimiz va xorijda amalga oshirilgan ko‘p sonli dala tajribalari asosida, mineral o‘g‘itlar tuproqqa o‘rtacha me’yorda kiritilganda bir kg ta’sir ko‘rsatuvchi sof modda qo‘sishimcha ravishda 2,7-5,7 kg dan 4,7-7,1 kg makkajo‘xori doni, 6-11 kg sholi, 20-32 kg kartoshka, 26-52 kg qandlavlagi, 2,3-5,6 kg paxta tolasi, 2,0-3,5 kg

kungaboqar urug‘i va 30-40 kg sabzavot olish imkonini berishi bir necha marta aniqlangan.

Turli tuproq va iqlim sharoitlarida o‘g‘it qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan bir so‘mlik sarf-harajat 1,5-8,0 so‘mlik sof daromad keltiradi. Mahalliy o‘g‘itlarni qo‘llash uchun sarflangan bir so‘m 1,5-5,0 so‘m bilan qoplanadi.

Ishlab chiqarish sharoitidagi iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun o‘g‘itlangan va o‘g‘itlanmagan maydonlardagi hosil miqdori o‘zaro taqqoslanadi.

Shartli sof daromadni hisoblashda qo‘sishimcha mahsulotning qiymatidan hosilni etishtirish uchun sarflangan barcha harajatlarning kiymati chegirib tashkanadi.

O‘g‘it qo‘llash hisobiga olinadigan sof daromadning miqdori quyidagicha formula yordamida hisoblab topiladi:

$$S_d q (Q Q q) - X;$$

bu erda:

$S_d$  - sof daromad miqdori, so‘m

$K$  - o‘g‘it hisoblashga olingan qo‘sishimcha hosilning  
kiymati, so‘m

$k$  - shu asosda olingan oralik mahsulotning  
qiymati, so‘m

$X$  - barcha harajatlarning yig‘indisi, so‘m

O‘g‘it kiritishning rentabelligini hisoblab topish uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$R q \frac{(qQq) - X}{X} \cdot 100$$

yuqoridagi formulada ( $KQk$ )- $XqS_d$  bo‘lganligi sababli

$$R q (S_d G' X) \cdot 100$$

bu erda:

$R$  - o‘g‘itning rentabelligi, foiz

Rentabellik - sof daromadni qo‘sishimcha sarf harajatlarning umumiy miqdoriga nisbatini ko‘rsatuvchi kattalikdir.

Savollar:

1. Xo‘jalikda o‘g‘itlar hisobidan olingan qo‘sishimcha hosil qanday aniqlanadi?
2. Iqtisodiy samaradorliklarni aniqlashda qanday harajatlar hisobga olinadi?
3. Texnika va sabzavot ekinlari etishtirish uchun kiritilgan 1 kg sof oziq modda hisobiga necha kg qo‘sishimcha hosil olish mumkin?

## **13. O‘quv materiallari (ma’ruza matni, uslubiy qo‘llanmalar)**

### **O‘G‘IT QO‘LLASH TIZIMI FANIDAN ISh DAFTARI**

#### **1-ISh. Ekinlarga beriladigan o‘g‘it me’yorini elementar balans usulida hisoblash (davomiyligi 4 soat)**

*Ishning maqsadi:* qishloq xo‘jalik ekinlari uchun zarur bo‘lgan o‘g‘itlar miqdorini rejorashtirilgan hosil asosida balans usulida aniqlash mumkin. Mazkur usul asosida hosilning shakllanishi uchun sarflanadigan oziq elementlari hamda tuproq va o‘g‘it tarkibidan o‘zlashtiriladigan oziq elementlari miqdorini taqqoslash yotadi.

*Ishni bajarish tartibi:* Ushbu usul bilan o‘g‘itlar me’yorini Aniqlashda talaba quyidagilarga e’tibor qaratishi zarur.

Asosiy mahsulot tomonidan oziq elementlarini o‘zlashtirishi (bu ko‘rsatkich 1-chi ilovadan yoki adabiyotlardan olinadi).

**Ayrim ekinlar tomonidan hosil birligi (t) bilan tuproqdan olib  
ketiladigan azot, fosfor va kaliyning tahminiy miqdori, kg.**

Ekin turi	Asosiy mahsulot	Asosiy mahsulot bilan (oraliq mahsulot ham hisobda) chiqib ketadigan		
		azot	fosfor	kaliy
1	2	3	4	5
Kuzgi bug‘doy	Don	35	12	26
Kuzgi javdar	Don	30	12	28
Bahorgi bug‘doy	Don	38	12	25
Arpa	Don	27	11	24
Makkajo‘xori	Don	34	12	37
Suli	Don	30	13	29
Tariq	Don	33	10	34
Grechixa	Don	30	15	40
O‘ris no‘xat	Don	30	16	20
Kungaboqar	Urug‘	60	26	180
Zig‘ir	Tola	80	40	70
Ekinbop nasha	Poya	15	7	12
-----//-----	Tola	200	60	100
g‘o‘za	Tola	45	15	50
Kartoshka: ertagi	Tugunak	5	1,5	7
Kechki		6	2	9
Qand lavlagi	Ildiz meva	6	2	7,5
Makkajo‘xori	Ko‘k massa	2,5	1,2	4,5
Karam	Karam bosh	3,4	1,3	4,4
Sabzi	Ildiz meva	3,2	1,2	5,0
Xo‘rakli lavlagi	Ildiz meva	2,7	1,5	4,3
Pomidor	Meva	3,2	1,1	4,0
Bodring	Meva	2,8	1,4	4,4
Piyoz	Piyoz bosh	3,7	1,3	4,0
Mevali daraxtlar	Meva-cheva	5,0	3,0	6,0
Tok	Uzum	1,7	1,4	5,0
Choy	Choy bargi	50	7	23

Haydalma qatlAMDAGI harakatchan shakldagi oziq elementlar miqdorini bilish kerak. Bu kattalik oziq elementlarning agrokimyoviy xaritanomadagi miqdorini ( $\text{mgG}^{\prime}\text{kg}$ ) 3 koeffitsentiga ko‘paytirish yo‘li bilan topiladi. Masalan: bir kg tuproqda 45 mg harakatchan fosfor mavjud bo‘lsa, uning haydalma qatlAMDAGI umumiy miqdori 135kg/ga ni ( $45 \times 3$ ) tashkil etadi.

O‘simliklar tomonidan tuproqdan va qo‘llanilgan o‘g‘itlar tarkibidan oziq moddalarni o‘zlashtirish koeffitsentini bilish kerak bo‘ladi (bu ma’lumotlar 2-ilovada keltirilgan).

2-ilova

### **O‘g‘itlar tarkibidagi oziq moddalarning o‘zlashtirish koeffitsentlari(P.M.Smirnov malumoti)**

O‘g‘it turi	Yillar	Azot	Fosfor	Kaliy
O‘g‘it kam va o‘rtacha me’yorda kiritilganda				
Go‘ng	1-yil	20-25	25-30	50-60
	2-yil	20	10-15	10-15
	3-yil	10	5	-
	Rotatsiya davomida	50-55	40-50	60-75
Mineral o‘g‘it	1-yil	60-70	15-20	50-60
	2-yil	-	10-15	15-20
	3-yil	-	5	-
	Rotatsiya davomida	60-70	30-40	65-80
O‘g‘it yuqori me’yorda kiritilganda				
Go‘ng	1-yil	15-20	15-20	40-50
	2-yil	15	10	10
	3-yil	10	5	-
	Rotatsiya davomida	40-45	30-40	50-60
Mineral o‘g‘it	1-yil	45-55	10-15	40-50
	2-yil	-	5-10	10-15
	3-yil	-	5	-
	Rotatsiya davomida	45-55	20-30	50-65

Talaba xo‘jalik ma’lumotlari va adabiyotlarga asoslangan holda elementar balans usulida ikki ekin turi uchun (paxta, donli ekin) o‘g‘itlar me’yorini 1-jadval yordamida hisoblab chiqish kerak.

**1-jadval**

№	Ko‘rsatkichlar	Donli ekin	Paxta
		Hosildorlik s/ga	

		N	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O	N	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O
1.	10ts asosiy hosil bilan o‘zlashtirilgan modda,(kg/ga)						
2.	Rejalashtirilgan hosil bilan o‘zlashtirilgan modda,(kg/ga)						
3.	Tuproqdag‘i oziq modda miqdori, (mgG’kg)						
4.	Tuproqdag‘i oziq moddalar miqdori,(kg/ga)						
5.	O‘simlik tomonidan tuproqdan oziq elementlarni o‘zlashtirishi,%						
6.	O‘simlik tomonidan tuproqdan o‘zlashtirilgan oziq moddalar miqdori,(kg/ga)						
7.	1ga beriladigan go‘ng miqdori,(t)						
8.	Go‘ng tarkibidagi oziq moddalarni o‘zlashtirilishi,%						
9.	O‘simlikni go‘ng tarkibidagi oziq moddalarni o‘zlashtirilishi (kg/ga)						
10.	Mineral o‘g‘it holida berish kerak (kg/ga)						
11.	Mineral o‘g‘itlardan oziq moddalarni o‘zlashtirishi,%						
12.	O‘zlashtirish ko‘rsatkichini hisobga olgan holda beriladigano‘g‘it meyori,(kg/ga)						

**Kerakli materiallar:** Harakatchan oziq moddalar miqdorini ko‘rsatuvchi agrokimyoviy xaritanoma, mikrokalkulator, adabiyotlar: 1,4,7.

## **15.Курс ишилари мавзулари**

**Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimi fanidan kurs loyihalarini bajarish  
bo‘yicha  
uslubiy qo‘llanma**

### **KIRISH**

«O‘g‘it qo‘llash tizimi» fani bo‘yicha kurs loyihasi bajarishdan maqsad talabalarni xo‘jaliklarda almashlab ekishda, o‘g‘itlarni qo‘llashning ilmiy asoslangan usullari bilan tinishtirishdan iborat. Talaba oldiga g‘o‘zani o‘g‘itlash tizimi va uni qo‘llash rejalarini ishlab chiqish vazifasi qo‘yiladi. Talaba ishni faqat o‘zi mustaqil holda bajarishi lozim.

O‘g‘itlarni qo‘llash rejasi xo‘jalikda qabul qilingan maydonlarni almashlab ekish sxemasi asosida ishlab chiqilishi lozim, bunda g‘o‘za almashlab ekishga kiratilgan barcha ekinlar uchun ham o‘g‘itlash tizimi ishlab chiqiladi.

Agrokimyoviy kartogramma ma’lumotlari (harakachan fosfor, almashinuvchan kaliy miqdorlari va boshqa ko‘rsatkichlar) mineral o‘g‘itlarni to‘g‘ri taqsimlash, shuningdek ularni ilmiy asoslangan holda qo‘llash negizi hisoblanadi. qishloq xo‘jalik ekinlari, jumaladan g‘o‘zaga o‘g‘it berishda o‘g‘itlardan yaxshi foydalanish uchun o‘g‘itlash tizimining asosiy elementlariga e’tibor berish lozim.

1. Rejalahtirilayotgan ekin hosildorligiga mo‘ljallab mineral o‘g‘itlarni qo‘llashda tuproq unumdorligini hisobga olish.
2. Organik o‘g‘itlarni qo‘llash.
3. Agrotexnik fon (o‘tmishdosh ekinlar)
4. O‘g‘it berish muddatlari, usullari, shuningdek o‘g‘itlarning shakli.

O‘g‘it qo‘llash tizimining eng muhim masalaridan biri va hosildorlikning ko‘tarishning asosiy tadbiri har bir ekinni o‘g‘itlash tizimini o‘simlikning biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitlari va beriladigan o‘g‘itlarning xossalari hisobga olgan holda, to‘g‘ri ishlab chiqishdir. Shu sababli o‘g‘itlarni qo‘llash tizimi bo‘yicha kurs loyihasini bajarish tuproqshunoslik va agrokimyo fakulteti talabalarining o‘quv tayyorgarligi rejasiga kiritilgan.

## **KURS LOYIHASINING ASOSIY MAZMUNI**

Ishning birinchi betida talaba vazifa nomerini va uning shartlari (fermer xo‘jalikdagi tuproq tipi, almashlab ekish, ekin maydoni, hosil, chorva mollari soni, o‘g‘itlar turlari va boshqalar ko‘rsatib o‘tadi. Kurs loyiha quyidagi bo‘limlardan tashkil topishi kerak.

### **KIRISH.**

1. Tuproq - iqlim sharoitlari (fermer xo‘jaliklari misolida )
2. Organik o‘g‘itlarni to‘plash va ulardan foydalanish.
3. Fermer xo‘jalikda qabul qilingan almashlab ekish va ekin maydonlarining almashlab ekish sxemasi asosida taqsimlanishi.
4. Rejalashtirilayotgan g‘o‘za hosildorligiga qarab o‘g‘itlar miqdorini hisoblash usuli. Joriy yil uchun o‘g‘itlarni qo‘llash rejasini tuzish (azotli, fosforli, kaliyli o‘g‘itlar bo‘yicha alohida - alohida).
5. Xulosa.
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

### **LOYIHANING KIRISH QISMI**

Loyihaning kirish (muqaddima) qismida qishloq xo‘jaligini kemyolashtirishning ahamiyati va vazifalari, xukumatning Respublikamizda mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish bo‘yicha qarorlari, paxtachilikda (va boshqa ekinlar) o‘g‘itlar qo‘llash samaradorligiga to‘xtalib o‘tadi.

### **I. TUPROQ - IQLIM ShAROITLARI.**

O‘g‘itlarning qo‘llash xo‘jalikning tuproq-iqlim sharoitlari bilan bog‘lanishi kerak, chunki o‘g‘itlar samaradorligi birinchi navbatda shu sharoitlarga bog‘liq.

IQLIM. Fermer xo‘jalik joylashgan zona va tuman iqlimi qisqa bayon etiladi. Eng muhim metrologik ko‘rsatkichlar - yog‘inlar miqdori, havo temperaturasi. Oxirgi va birinchi qor sovuqlar kuzatiladigan sanalar.

TUPROQ. Fermer xo‘jalikning tuproq sharoitlari va ularning agrokimyoviy tasnifi adabiyotlar asosida bayon etiladi. 1 jadvalda tuproqning tipi, mexanik tarkibi, agroximik tafsiloti, gumus (chirindi) miqdori, yalpi azot, fosfor, kaliy ko‘rsatkichlari va tuproqning boshqa ko‘rsatkichlari keltirilishi shart.

### **1.TUPROQNING AGROKIMYVIY TASNIFI.**

Tuproq	Gumu	Yalpi	Harakatchan	Almashinuv	pH
--------	------	-------	-------------	------------	----

tipi	s	shakllar, % hisobida			shakllar, tuproqda kg/mg hisobida			chi kaliy, tuproqda kg/mg hisobida	
		N	P	K	NH <sub>3</sub>	N0 <sub>3</sub>	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>		

Tuproqning mavjud shkalaga ko‘ra haraktchan oziq shakllari (fosfor va kaliy bo‘yicha) bilan ta’minlanganlik darajasi haqida xulosa chiqarish.

## 2. ORGANIK O‘G‘ITLARNI JAMG‘ARISH VA ULARDAN FOYDALANISH.

Fermer xo‘jalikda organik o‘g‘itlarni jamg‘arish, saqlash va undan foydalanish maxsus tashkil etilgan va yil bo‘yi ishlaydigan, mexanizatsiyalashgan chorva fermalarida amalga oshiriladi.

Mahaliy o‘g‘itlardan to‘g‘ri va keng miqyosda foydalanish - tuproqning unumdorligini tiklash, dehkonchilik madaniyatini oshirish va qishloq xo‘jalik ekinlar hosildorligini oshiri shdagagi asosiy omillardkan hisoblanadi. Fan yutuqlari hamda ilg‘or xo‘jaliklar tajribalari mahaliy o‘g‘itlardan, ayniqsa, go‘ngdan samarali foydalanilganda barcha ekinlardan yuqori hosil olib, olingan mahsulotning sifati yaxshi bo‘lishi ko‘rsatadi.

Yarim chirigan holatdagi go‘ngdan foydalanish yaxshi natija beradi. Yukumli kasal bilan og‘irgan hayvonlardan olingan go‘ngni yoqib yuborish lozim. Go‘ng yig‘ishni to‘g‘ri tashkil qilish va uning miqdorini 30-40 foiz ko‘paytirish uchun har xil chiqindilardan mol tagida to‘shama sifatida foydalanish kerak.

Fermer xo‘jalikda organik o‘g‘itlardan foydalanish rejasini tuzishdan oldin tayyorlash imkonini bo‘lgan go‘ng miqdori, shuningdek turli najas-chiqindi, g‘o‘zapoya qavachoqlaridan kompost tayyorlash aniqlanadi va chetdan go‘ng keltirish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Jamg‘ariladigan go‘ng turi va miqdori, birinchi navbatda chorva mollari soni, ularni bog‘lab yoki qo‘ramda saqlab boqish davri, to‘shama miqdori (yoki molni saqlash usuli) va beriladigan em-xashakka bog‘liq. Talaba go‘ng jamg‘arish rejasini 2 jadvalga muvofiq tuzib chiqadi.

**Jadval 2****GO'NG JAMG'ARISHNING TAXMINIY HISOBI**

№	Chorva turi	Soni	1 sutka davomida molning har boshiga to'shamma normasi kg	Boqilish davri, kun	1 bosh mol beradigan go'ng		Jami moldan boqish davrida olinadigan go'ng, t
					1 sutka da kg	boqila digan davrida kg	
1	qoramol	200	6	120	15	180	160
2	qo'y						
3	Ot						

Mol bog'lab boqiladigan davrida jamg'ariladigan yillik go'ng miqdori sutkalik jamg'arishni bir yilga yoki bog'lab boqiladigan kunlar soniga ko'paytirib topiladi. Hisob-kitoblarda to'shamani ham hisobga olish mumkin, chunki go'ngning chiqishi to'shamma miqdoriga ham bog'liq bo'ladi.

Bir bosh molga o'rtacha bir sutkali to'shamma normasi quyidagicha: qoramol yoki otlarga 3-6 kg; buzoqlarga 2-3 kg; ona cho'chqalarga hamda qo'ylar uchun 1-1,5 kg.

Turli hayvonlarning har boshida o'rtacha bir sutka davomida kuni dagi miqdorda chiqitlar chiqadi: qormol 20-30 kg, otlar 15-20 kg, qo'y 1,5-2 kg.

Xo'jalikda jamg'arilgan go'ng hisobi aniq bo'lidanidan keyin uni almashlab ekish dalalar bo'yicha taqsimlash zarur. Odatda g'o'za maydonlariga bedapoya bo'zib haydalaganidan keyingi 4 - 5 yildan 20-30 t/ga miqdorda solinadi.

### **3. ALMAShLAB EKISh VA EKIN MAYDONLARINI TAqSIMLAsh**

Fermer xo'jaligida tadbiq etilgan jami almashlab ekish maydonlari bayon etiladi. Agar bunday almashlab ekish bo'lmasa, talabaning o'zi fermer xo'jalikning ixtisoslashuvi yo'nalishiga mos keladigan, g'o'za va oziqa etishtirishga ko'proq o'rni ajratilgan maqsadga muvofiq almashlab ekishni rejalashtiradi. So'ngra talaba almashlab ekish asosida ekin maydanlarini taqsimlab chiqadi.

### **4. REJALAShTIRILGAN G'O'ZA HOSILDORLIGIGA YILLIK O'G'IT NORMALARINI HISOBBLAsh USULI, JORIY YIL UChUN AZOTLI, FOSFORLI VA KALIYLI O'g'ITLARNI SOLISh REJASINI TUZISH**

## AZOTLI O‘G‘ITLARNI QO‘LLASH REJASI

Rejalarshirilayotgan hosil uchun zarur bo‘lgan azotli o‘g‘itlar normasi balans hisob usuli bilan topiladi. Avval biologik norma hisoblab chiqiladi, so‘ngra tuproq tipiga qarab (3 jadval) tuzatma koeffitsientlar orqali va agrotexnik foniga (g‘o‘za o‘tmishdoshlari) qarab ( 4 jadval) hisoblariga tuzatishlar qilinadi.

Balans hisobi formulasiga ko‘ra azot normasini topish:

$$\frac{A \cdot q(V - v) \cdot 5}{40} \cdot 100 \quad \text{yoki} \quad A \cdot q(V - v) \cdot 12,5$$

Bu erda: A - azotni biologik normasi, kg/ga;

V - g‘o‘za hosildorligi, s/ga;

v - tuproq hosildorligi va erga ilgari berilgan o‘g‘itlar hisobiga olingan paxta hosili (hosildorlik 20-30; 30-40; 40-50 s/ga bo‘lganda bu hosil yuqoridagi tartibga muvofiq 5-10; 10-12,5; 12,5-15,0 s/ga ni tashkil etadi)

Masalan, g‘o‘za hosildorligi 35 s/ga bo‘lganda tuproq unumdarligi hisobiga olingan norma hosili har gettarga 12 tsentnerga teng bo‘ladi.

5 -1 ts paxta hosil qilish uchun sarflanadigan azot, kg;

40- g‘o‘zaning o‘g‘itlardagi azotdan foydalanish koeffitsienti, %;

100 - konstanta

3 jadval

### **O‘ZBEKISTON TUPROQLARI TIPIGA KO‘RA AZOTLI O‘G‘ITLARNI TABAQALASHTIRIB REJALASHTIRISH VA QO‘LLASH BO‘YICH A TUZATMA Koeffitsientlar.**

Yarim cho‘l zonasini tuproqlari				Cho‘l zonasini tuproqlari	
Tipik bo‘z tuproqlar	Koeffitsienti	Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi	Koeffitsienti	Janubiy, o‘rta shimoliy kenglik zonalar	Koeffitsienti
Tipik bo‘z va o‘tloqi bo‘z	1,0	Och tusli bo‘z va o‘tloqi bo‘z	1,1	Taqirli, o‘tloqi-taqirli, yuvilgan kuchsiz sho‘rlangan	1,2
O‘tloqi	0,8	O‘tloqi	0,9	O‘tloqi, yuvilgan va kuchsiz sho‘rlangan	1,0
To‘q tusli	0,7	O‘rtacha va	1,1	O‘tloqi,	1,2

		kuchsiz sho‘r-langan o‘tlo-qi, doimiy sho‘ri yuvi- ladigan		o‘rtacha va kuchsiz sho‘rlan-gan, doimiy shuri yuviladigan	
Yupqa qa- vatli, zahi qochirilgan va eroziyaga uchragan	1,2	Yupqa qa- vatli, qumlo- qi, zaxi qochi-rilgan va eroziyaga uchragan	1,3	Yupqa qavatli, qumloqi- shagelli eroziyaga uchragan	1,4

**Eslatma:** azot normasi tuproqning madaniylashganlik darajasiga qarab tabaqlashtiriladi. Unumdorligi past va yangi erlarda azot normasi 10% ortiqroq, unumdor erlarda esa 10% kamroq olinadi.

#### 4 jadval

### O‘ZBEKISTONNING SUG‘ORILADIGAN ERLARIDA AGROTEXNIK FONGA KO‘RA AZOTLI O‘G‘ITLARNI TABAQALASHTIRIB REJALASHTIRISH VA QO‘LLASH BO‘YICHA TUZATMA KOEFFITSENTLAR.

Agrofon	Hosildorligi s/ga	Azor normasi kg/ga	Tuzatma koeffitsient	Tabaqlashti rishgan azot normasi, kg/ga
Makkajo‘xor idan keyin  qatlami ag‘darib haydalgan bedapoya	30	250	1,2	300
Ag‘darma qatlami yuzaga chiqarib haydalgan bedapoya	30	250	0,6	150
Uchinchi va keyingi yillar	30	250	0,8	200
			1,0	250

g‘o‘za hosildorligi 30 s/ga bo‘lganida azotning biologik normasi G’A q (30 - 10) • 12,5 q 250 G’ - 250 kg/ga ni tashkil etadi. Shu sababli 5

jadvalga bu ko'rsatkich (250 kg/ga) ni yozib qo'yamiz. So'ngra uni 3 va 4 jadvallardagi tuzatma koeffitsientlar yordamida tabaqalashtirish zarur. Bizning misolimizda (5 jadval) tuproq-tipik bo'z tuproq, g'o'zadan keyin haydalgan, bedapoya haydalganidan keyin 6 yil muddat o'tgach, 30 s/ga hosildorlik uchun azotning biologik normasi 250 kg/ga. Tuzatma koeffitsientini e'tiborga olgan holda bunday tuproq uchun azotning tabaqalashtirilgan normasi 250 • I q 250 kg/ga, agrotexnik fon ham hisobga olinganda 250 • I q 250 kg/ga bo'ladi. Tabaqalashtirilgan azot normasini aniqlaganimizdan keyin yoki 5 jadval yozib qo'yamiz va bu miqdorni erga solish muddatlariga qarab taqsimlashga o'tamiz.

Odatda azotli o'g'itlar bo'lib-bo'lib: ekishgacha, ekish vaqtida va o'simlikni parvarishlash - o'suv davrida solinadi. Ekishga qadar solingan o'g'itlarning samaradorligi juda o'zgarib turadi va iqlim, tuproq, zonaning agrotexnika sharoitlariga bog'liq.

Sho'rlanmagan va zaxi qochirilmagan och tusli bo'z tuproqlarda, shuningdek tipik bo'z tuproqlarda yillik yog'in yig'indisi 230-250 mm tashkil etadigan sharoitlarda yillik azot normasining 25% ni ammoniy sulfat shaklida ekish oldidan solish mumkin.

Boshqa tuproq tiplarida eng yaxshisini yillik azot normasini 25-30% ni ekish oldindan berish ma'qul.

Sho'rlangan, kuzgi shudgorlashdan keyin sho'r yuvish o'tkaziladigan bo'lsa azot erni chizellash paytida beriladi. Ilmiy tadqiqot muassasalari ma'lumotlari va xo'jaliklaridagi ilg'or tajribalar natijalari azotni ekish vaqtida berish samarali ekanligini ko'rsatadi. Ekish vaqtida azot normasi 20-25 kg/ga dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Oziqlantirish soni yillik azot normasi va tuproq sharoitlariga bog'liq. Odatda quyidagi muddatlarda 2-3 marta oziqlantirish o'tkaziladi: 2-4 chin barg fazasida; shonalash; gullash-ko'sak tugish fazalarida. Har bir oziqlantirishda azot normasi g'o'zani biologik ehtiyojlariga qarab tabaqalashtiriladi.

Yillik azot normasiga qarab birinchi oziqlantirishda 50 dan 75 kg/ga gacha, ikkinchi va uchinchi oziqlantirish 50 dan 100 kg/ga gacha azot berilishi mumkin.

qavati yupqa qumloqi tosh shag'alli tuproqlarda oziqlantirish sonini 5-6 martagacha oshirish kerak. Bunda har bir oziqlantirishda azotni kam normada 40-50 kg/ga dan oshirmay boriladi.

g'o'zani oziqlantirishni tugallash muddati ham muhim ahamiyatga ega. Uni juda barvaqt tamomlash o'simlikning aynan hosil to'plash davrida azot bilan oziqlanishini g'oyat cheklab qo'yadi, g'o'zani oziqlantirishni yakunlashning eng optimal muddatlari shimoliy zonalar uchun 10-15 iyul, o'rta zonalarda 15-20 iyul, janubiy zonalarda 20-25 iyul hisoblanadi.

qavati yupqa shag‘alli tuproqlarda o‘simlikning holatiga qarab oziqlantirishni 1 avgustga qadar o‘tkazish mumkin. Bizning misolimizada (5 jadval) 250 kg/ga azotning tabaqalashtirilgan normasi berish muddatlariga qarab quyidagicha taqsimlanadi: ekishdan ilgari 50 kg, ekish bilan birga 25 kg, I va II oziqlantirishda 50 kg dan va III oziqlantirishda 75 kg (6 dala).

Azotli o‘g‘itlarni qo‘llash bo‘yicha tuzilgan rejani xo‘jalik azotli o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash bilan birga yakunlash kerak. Dastlab har bir hektar uchun kerak bo‘lgan azotli o‘g‘itlarga talab aniqlanadi va uni suratga yozib qo‘yiladi, so‘ngra dala maydoniga kerakli o‘g‘it miqdori tonnalarda maxrajiga yozib qo‘yiladi. Shundan so‘ng almashlab ekish dalalari bo‘yicha ehtiyojlar jamlanib o‘g‘itlarning umumiyligi miqdori topiladi. Jadvalda qaysi azotli o‘g‘itlarning qo‘llanilganini ko‘rsatib o‘tish zarur.

## 5 jadval

### AZOTLI O‘G‘ITLARNI QO‘LLASH REJASI

Dala №	Tuproq nomi	Maydoni, ga	Almashlab ekish dalalari	Rejalangan hosil, s/ga	Yillik azot normasi kg/ga		Azot berish muddatlariga ko‘ra taksimlash				
					biologik	tabakalashtirilgan	ekish oldidan	eki sh va qtid a	oziklan-tirish		
					I	II	III	-	-	-	

### jadval (davomi)

Dala №	Mineral o‘g‘itlar extiyoj: suratida - kg/ga, maxrajida-jami maydonga tonna NN <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> (34%N)						
	Ekish dan iglari	Ekish bilan birga	Oziklantirish		Jami o‘g‘itlarga (NN <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> ) extiyoj, t		
			I	II	III		

## FOSFORLI O‘G‘ITLARNI QO‘LLASH REJASI

Fosforli o‘g‘itlarning samaradorligi tuproqdagi xarakatchan fosfor miqdoriga bog‘lik, shu sababli bu o‘g‘itlar normasi va ularni borish muddatlari agrokimyoviy kartogrammalar asosida aniqlanadi.

Xo‘jalikda fosforli o‘g‘itlarni ko‘llash rejasini tuzish uchun 8 jadvalni to‘ldirish zarur. Tuproqdagi xarakatchan fosfor miqdori bo‘yicha ma’lumotlar xo‘jalikning agrokimyoviy kartogrammasi olinadi va fosforning yillik normasi aniqlandi. Bunday ma’lumotlarni talaba xo‘jalikning uzidan olgani maksadga muvofik, agar buning imkoniyat, tuproqdagi xarakatchan ozik modda miqdorini talabaning aniqlaydi. Birinchi navbatda fosforning biologik normasi aniqlanadi, so‘ngra, tuzatma koeffitsientlar bilan (6 jadval) tabakalashtirilgan normalar belgilanadi va 8 jadvalga yoziladi. Fosforning biologik normasi g‘o‘za xosildorligi ma’lumotlari va g‘o‘za xosili bilan chiqib ketadigan fosfor miqdori asosida aniqlanadi, 1 ts paxta uchun fosfor sarfi 1,5 kg deb qabul qilinadi, 6 jadvalda tuproqda xarakatchan fosfor miqdoriga va xo‘jalikning fosforli o‘g‘itlar bilan ta‘minlanganiga qarab yillik fosfor normalarini belgilashga misol keltirilgan. Masalan, paxta xosili 35 s/ga darajasida rejalahtirilmoqda (8 jadval). Bunday xosil uchun  $R_2O_5$  ning biologik normasi  $35 \cdot 1,5 = 52,5$  kg/ga ni tashkil etadi.

Keyin fosforning bu normasi tuzatma koeffitsientlar orkali tuproqdagi xarakatchan fosfor miqdoriga qarab va xo‘jalikdagi fosforli o‘g‘itlar jamgarmasini hisobga olgan xolda (6 jadval) tabakalashtiriladi. Yuqorida keltirilgan misolda (8 jadval) tuproqdagi fosfatlar miqdori 15 mgG/kg, xo‘jalik fosforli o‘g‘itlar bilan yetarli ta‘minlangan (birinchi usul bo‘yicha). Bunday sharoitlarda fosforning tabakalashtirilgan normasi ko‘yidagicha topiladi. Fosforning biologik normasi tuzatma koeffitsientga kupaytiriladi (6 jadvaldan olinadi), ya’ni  $52,5 \cdot 5 = 262,5$  kg/ga.

Fosforning tabakalashtirilgan normasini aniqlab, 8 jadvalga yozib, o‘g‘itni berish muddatlari bo‘yicha taksimlashga o‘tiladi. Fosforli o‘g‘itlarni berish muddatlariga ko‘ra taksimlash tuproqdagi xarakatchan fosfor miqdoriga karab (7 jadval) bajariladi. Masalan, tuproqda xarakatchan fosfor miqdori - 0 dan 15 mgG gacha, o‘g‘itlar uch muddatda solinadi% shudgolashdan oldin; ekish bilan birga va gullah davrida oziqlantirish.

Tuproqda 16-30 mgG/kg harakatchan fosfor bo‘lganda o‘g‘it shudgorlashdan oldin va ekish bilan birga beriladi. Harakatchan fosfor miqdori 31 mgG/kg ortiq bo‘lgan tuproqlarda o‘g‘it faqat bir marta shudgorlashdan oldin beriladi.

8 jadvalda fosforli o‘g‘itlarni taqsimlashga misollar keltirilgan. g‘o‘za ag‘darib haydalgan bedapoya qatlamiga ekiladi, tuproqdagi fosforlar miqdori 15 mgG’kg, ya’ni fosfor bilan ta’minlanish juda past. Shu sababli o‘g‘it uch muddatda beriladi. Shudgorlashdan oldin 172 kg/ga; ekish bilan birga 40 kg/ga va gullah fazasida 45 kg/ga ( $P_2 O_5$  ning tabaqalashtirilgan normasi 262 kg/ga).

Keyin o‘g‘it berish muddatlariga qarab xo‘jalikning fosforli o‘g‘itlarga bo‘lgan talab-ehtiyojlari aniqlanadi: suratiga 1 ga maydon uchun kg larda; maxrajiga jami maydonga tonnalarda.

Bizning misolimizda dala maydoni 100 ga, 1 ga uchun superfosfat (20 %  $P_2 O_5$ ) ga ehtiyojini kg larda 1310, maxrajga esa jami maydon uchun zarur bo‘lgan superfosfat miqdorini tonnalarda 131,0 yozib qo‘yamiz.

### **KALIYLI O‘G‘ITLARNI QO‘LLASH REJASI.**

g‘o‘za kaliyni azot bilan birga barobar miqdorda iste’mol qiladi. Kaliyli o‘g‘itlarni qo‘llamasdan g‘o‘za bilan boshqa ekinlarni surunkasiga etishtirish tuproqdagi kaliy jamg‘armalarini juda kamaytirib yuboradi. Shu sababli qishloq xo‘jaligida kaliyli o‘g‘itlardan foydalanish juda zarurdir.

Xo‘jalikda kaliyli o‘g‘itlardan foydalanish rejasini tuzish uchun 9 jadvalni to‘ldirish kerak. Yillik kaliy normasi rejulashtirilayotgan g‘o‘za hosildorligi, hosil bilan chiqib ketadigan kaliy miqdori va tuproqdagi almashinuvchi kaliy miqdori (agrokimyoviy kartogramma ma’lumotlari asosida) nazarda tutilgan holda belgilanadi. Masalan, almashinuvchi kaliy miqdori 0 dan 200 mgG’kg bo‘lgan sharoitlarida kaliyli o‘g‘itlar o‘simgliklar iste’mol etadigan miqdorga mos keladigan norma bo‘yicha qo‘llaniladi. (biologik norma). Bunda 1 tsentner paxta uchun kaliy sarfi 5 kg deb belgilanadi.

Jadval 6

**FOSFORNING TABAQALASHTIRILGAN NORMALARINI  
BELGILASH**

Hosildor-lik s/ga	Tuproqning fosforlar bilan ia’minlanganlik shkalasi	Tuproqdagi harakatchan fosfor miqdori, mg/kg	Fosfor-ning biologik normasi, kg/ga	Yillik norma uchun tuzatma koeffitsienti	Fosfor-ning tabaqalash-tirilgan normalari, kg/ga
-------------------	---	--	-------------------------------------	--	--

Birinchi usul.

(Xo‘jalik fosforli o‘g‘itlar bilan yetarli ta’minlangan)

30	juda past	0-15	45	5	225
----	-----------	------	----	---	-----

30	past	16-30	45	4	180
30	o‘rtacha	31-45	45	3	135
30	yeterli	46-60	45	2	90
30	yuqori ta’milgan gan	61 va undan ortiq	45	1	45

**Ikkinchi usul**

30	Juda past	0-15	45	4	180
30	Past	16-30	45	3	135
30	O‘rtacha	31-45	45	2	90
30	Etarli	46 va un- dan ortiq	45	1	45

7 jadval

**FOSFOR NORMASINI O‘G‘IT BERISH MUDDATLARIIGA  
KO‘RA TAqSIMLASH**

Tuproqdagi harakachan fosfor miqdori, mg/kg	Hosil- dorlik s/ga	Tabaqalash- tirilgan fosfor normasi, kg/ga	Fosforni berish muddatlari		
			Shudgor- lashdan oldin	Ekish bilan birga	O‘simlik gullashi dan oldin
15 ga qadar	30	225	140	45	40
16-30	30	180	135	45	-
31-45	30	135	135	-	-
45-60	30	90	90	-	-
61 va undan yuqori	30	45	45	-	-

Jadval 8

**FOSFORLI O‘G‘ITLARNI QO‘LLASH REJASI.**

D al a №	Tuproq nomi	Almashlab ekish dalalari	Ekin maydoni, ga	Harakatch an fosfor miqdori, mgG’kg	Rejalang an hosil, s/ga	Yillik fosfor normasi, kg/ga		
						biologik	Tabaqalash tirilgan	

Dal a №	O‘g‘it berish muddatlari			Mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyoj: suratida - kg/ga, maxrajida - jami maydonga tonna Sa ( $N_2RO_4$ ) <sub>2</sub> (20 % R <sub>205</sub> )			
	Shudgor -lashdan oldin	Ekin bilan birga	g‘o‘za gullaganda	Shudgor lash dan oldin	Ekish bilan birga	g‘o‘za gullag anda	Sa ( $N_2RO_4$ ) <sub>2</sub> bo‘lgan umumiy ehtiyoji

### KALIYLI O‘G‘ITLARNI QO‘LLASH REJASI.9 jadval

Dal a №	Tuproq nomi	Almashlab ekish dalalari	Ekin maydoni, ga	Yillik go‘ng normasi t/ga	Tuproqdagi almashinuvchi kaliy miqdori mgG’kg	Rejalash-tirilayotgan hosil, s/ga	Yillik kaliy normasi, kg/ga

Dala №	O‘g‘it berish muddatlari			Mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyoj: suratida - kg/ga, maxrajida - jami maydonga tonna Sa ( $N_2RO_4$ ) <sub>2</sub> (20 % R <sub>205</sub> )		
	Shudgor-lashdan oldin		Shonalash davrida	Shudgorlash dan oldin	Shonalash davrida	Sa ( $N_2RO_4$ ) <sub>2</sub> bo‘lgan umumiy ehtiyoji

Agar tuproqda almashinuvchi kaliy miqdori 200 dan 400 mgG’kg bo‘lsa, 1 tsentner paxta uchun biologik norma 205 kg deb qabul qilinadi. Tuproqdagi almashinuvchi kaliy 400 mgG’kg dan ortiq bo‘lsa kaliy o‘g‘itlari qo‘llanilmaydi.

Keltirilgan misolda (9 jadval) g‘o‘za hosildorligi 35 s/ga. Tuproqdagi kaliy miqdori 100 mgG’kg. Kaliyning biologik normasi 35 x 5 q 175 kg/ga tashkil etadi. Biz yillik kaliy normasini 9 jadvalga yozib qo‘yib, uni berish muddatlari bo‘yicha taqsimlashga o‘tamiz.

Kaliyli o‘g‘itlar quyidagicha taqsimlanadi. Yillik kaliy normasi 50-75 kg/ga bo‘lganida kaliyli o‘g‘itlar shonalash davrida azot bilan birga, norma 75 kg/ga dan ortiq bo‘lganda ikki muddatlarda yarim erni haydashdan oldin, yarmi shonalash davrida beriladi.

### KURS LOYIHASINI BAJARISH BO‘YICHA TOPShIRIQLAR

**Topshiriq 1** Ekin maydoni 100 ga. Tuprog‘i - o‘tloqi (shimoliy zona). Rejalashtirilgan paxta hosili 28 s/ga. Tuprog‘i harakatchan fosfor bilan kam ta’minlangan, kaliy bilan o‘rtacha ta’minlangan. O‘g‘itlar ammiakli selitra,

ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -17 bosh, qoramollar - 25 bosh, qo'y-echkilar -150 bosh. qo'lda boqiladigan kun 150.

**Topshiriq 2** Ekin maydoni 90 ga. Tuprog'i - to'q tusli o'tloqi. Rejalarashtirilgan kuzgi bug'doy hosili 33 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan o'rtacha ta'minlangan, kaliy bilan yuqori ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -23 bosh, qoramollar - 27 bosh, qo'y-echkilar -148 bosh. qo'lda boqiladigan kun 120.

**Topshiriq 3** Ekin maydoni 84 ga. Rejalarashtirilgan bahorgi bug'doy hosili 29 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan yuqori ta'minlangan. O'g'itlar mochevina, superfosfat, kaliy xlorid. Tuprog'i - tipik bo'z tuproq. Mollar soni: otlar -21 bosh, qoramollar - 23 bosh, qo'y-echkilar -115 bosh. qo'lda boqiladigan kun 105.

**Topshiriq 4** Ekin maydoni 80 ga. Tuprog'i - to'q tusli o'tloqi. (tipik bo'z tuproq mintaqasida). Rejalarashtirilgan makkajo'xori (don uchun) hosili 52 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan juda kam ta'minlangan, kaliy bilan kam ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, ammofos, 40 % li kaliy tuzi. Mollar soni: otlar -12 bosh, qoramollar - 28 bosh, qo'y-echkilar -160 bosh. qo'lda boqiladigan kun 140.

**Topshiriq 5** Ekin maydoni 120 ga. Tuprog'i - och tusli o'tloqi. (tipik bo'z tuproq mintaqasida). Rejalarashtirilgan arpa hosili 36 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar natriyli selitra, superfosfat, 40 % li kaliy tuzi. Mollar soni: otlar -12 bosh, qoramollar - 22 bosh, qo'y-echkilar -170 bosh. qo'lda boqiladigan kun 140.

**Topshiriq 6** Ekin maydoni 80 ga. Tuprog'i - o'tloqi to'q tusli . (tipik bo'z tuproq mintaqasida). Rejalarashtirilgan suli hosili 42 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan yuqori ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, superfosfat, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -21 bosh, qoramollar - 25 bosh, qo'y-echkilar -22 bosh. qo'lda boqiladigan kun 120.

**Topshiriq 7** Ekin maydoni 120 ga. Tuprog'i - kam quvvatli qumli shag'alli (shimoliy zona). Rejalarashtirilgan paxta hosili 30 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar mochevina, ammofos, kaliy sulfat. Mollar soni: otlar -15 bosh, qoramollar - 30 bosh, qo'y-echkilar -160 bosh. qo'lda boqiladigan kun 110.

**Topshiriq 8** Ekin maydoni 95 ga. Tuprog'i - o'tloqi kuchsiz, sho'rlangan,yuvilgan. (o'rtacha zona). Rejalarashtirilgan paxta hosili 32 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar kaltsiyli selitra, ammofos, kaliy sulfat. Mollar soni:

otlar -14 bosh, qoramollar - 26 bosh, qo'y-echkilar -105 bosh. qo'lda boqiladigan kun 150.

**Topshiriq 9** Ekin maydoni 90 ga. Tuprog'i - o'tloqi kuchsiz, sho'rlangan (janubiy zona). Rejalahtirilgan karam hosili 150 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan juda kam ta'minlangan, kaliy bilan kam ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, superfosfat ,40 % li kaliy tuzi. Mollar soni: otlar -15 bosh, qoramollar - 23 bosh, qo'y-echkilar -155 bosh. qo'lda boqiladigan kun 120.

**Topshiriq 10** Ekin maydoni 85 ga. Tuprog'i - och tusli bo'z tuproq (och tusli bo'z tuproq poyasida). Rejalahtirilgan pomidor hosili 129 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar mochevina, ammofos, kaliy sulfat. Mollar soni: otlar -16 bosh, qoramollar - 30 bosh, qo'y-echkilar -140 bosh. qo'lda boqiladigan kun 125.

**Topshiriq 11** Ekin maydoni 95 ga. Tuprog'i - och tusli bo'z tuproq. Rejalahtirilgan suli hosili 38 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar kaltsiyli selitra,tomoschlak , kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -17 bosh, qoramollar - 28 bosh, qo'y-echkilar -150 bosh. qo'lda boqiladigan kun 130.

**Topshiriq 12** Ekin maydoni 90 ga. Tuprog'i - och tusli bo'z tuproq (och tusli bo'z tuproq poyasi). Rejalahtirilgan kuzgi bug'doy hosili 38 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar ammoniy sulfat, ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -20 bosh, qoramollar - 23 bosh, qo'y-echkilar -95 bosh. qo'lda boqiladigan kun 120.

**Topshiriq 13** Ekin maydoni 100 ga. Tuprog'i - o'tloqi, kuchsiz, sho'rxok, yuviladigan (shimoliy zona). Rejalahtirilgan kartoshka 206 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -17 bosh, qoramollar - 28 bosh, qo'y-echkilar -165 bosh. qo'lda boqiladigan kun 130.

**Topshiriq 14** Ekin maydoni 98 ga. Tuprog'i - o'tloqi bo'z tuproq (och tusli bo'z tuproq poyasida). Rejalahtirilgan kuzgi bug'doy 42 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan o'rtacha ta'minlangan, kaliy bilan yuqori ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, tomoschlak, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -15 bosh, qoramollar - 25 bosh, qo'y-echkilar -120 bosh. qo'lda boqiladigan kun 120.

**Topshiriq 15** Ekin maydoni 74 ga. Tuprog'i - o'tloqi (sahro zonasida). Rejalahtirilgan paxta hosili 28 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar ammoniy

sulfat, superfosfat, kaliy sulfat. Mollar soni: otlar -18 bosh, qoramollar - 25 bosh, qo'y-echkilar -120 bosh. qo'lda boqiladigan kun 125.

**Topshiriq 16** Ekin maydoni 110 ga. Tuprog'i - o'tloqi (tipik bo'z tuproq zonasi). Rejalashtirilgan karam hosili 135 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan juda kam ta'minlangan, kaliy bilan yuqori ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -19 bosh, qoramollar - 26 bosh, qo'y-echkilar -170 bosh. qo'lda boqiladigan kun 140.

**Topshiriq 17** Ekin maydoni 100 ga. Tuprog'i - o'tloqi, kuchsiz, sho'rangan (och tusli bo'z tuproq poyasida). Rejalashtirilgan paxta hosili 27 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -20 bosh, qoramollar - 31 bosh, qo'y-echkilar -105 bosh. qo'lda boqiladigan kun 135.

**Topshiriq 18** Ekin maydoni 110 ga. Tuprog'i - o'tloqi bo'z tuproq (tipik bo'z tuproq poyasida). Rejalashtirilgan paxta hosili 25 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -20 bosh, qoramollar - 25 bosh, qo'y-echkilar -110 bosh. qo'lda boqiladigan kun 115.

**Topshiriq 19** Ekin maydoni 1150 ga. Tuprog'i - to'q tusli o'tloqi (tipik bo'z tuproq poyasida). Rejalashtirilgan paxta hosili 30 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -150 bosh, qoramollar - 250 bosh, qo'y-echkilar -1200 bosh. qo'lda boqiladigan kun 120.

**Topshiriq 20** Ekin maydoni 105 ga. Tuprog'i - och tusli bo'z tuproq (och tusli bo'z tuproq poyasida). Rejalashtirilgan paxta hosili 30 s/ga. Tuprog'i harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. O'g'itlar ammiakli selitra, ammofos, kaliy xlorid. Mollar soni: otlar -16 bosh, qoramollar - 24 bosh, qo'y-echkilar -150 bosh. qo'lda boqiladigan kun 120.

Mundarija		
1	Kirish	4
2	Ta'lim texnologiyasi	46
3	O‘g‘itlash tizimining asosiy vazifalari.	114
4	Ekinlarning o‘g‘itga talabchanligini aniqlashning fiziologik asoslari	116
5	Turli omillarning mineral va mahalliy o‘g‘it samaradorligiga ta’siri	118
6	O‘g‘it qo‘llashning usullari, muddatlari, tiplari va texnikasi	121
7	Qo‘llaniladigan mineral o‘g‘it me’yorlarini belgilash	124
8	Donli ekinlarni o‘g‘itlash	126
9	Kartoshka va qandlavlagagini o‘g‘itlash tizimi	129
10	Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimini tuzish	133
11	Almashlab ekish tizimida sholini o‘g‘itlash	135
12	Tolali-texnik ekinlarni o‘g‘itlash	138
13	Poliz va subtropik ekinlarni o‘g‘itlash	143
14	Tok, mevali va tut daraxtlarini o‘g‘itlash	145
15	O‘g‘itlarni qo‘llash, tuproq va tabiiy suvlar muhofazasi	147
16	O‘g‘itlar qo‘llash hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorliklar	151
17	O‘g‘it qo‘llash tizimi fanidan ish amaliy masalalar	154
18	Almashlab ekishda o‘g‘itlash tizimi fanidan kurs loyihibalarini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma	158